

**UYG'UN JUMAYEV**

**O'ZBEKISTONDA ARXIV  
ISHI TARIXI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**UYG'UN JUMAYEV**

**O'ZBEKISTONDA ARXIV  
ISHI TARIXI**

*5320300-Arxivshunoslik bakalavriyat yo'nalishi  
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

**TOSHKENT  
«TURON-IQBOL»  
2016**

UO'K: 930.253(075)(575)

KBK: 79,3(50')

J-87

### **Jumayev Uyg'un**

O'zbekistonda arxiv ishi tarixi: bakalavriyat yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma / U. Jumayev. – Toshkent: «TURON-IQBOL», 2016. - 188 b

### **Mas'ul muharrir:**

**M.M. Xaydarov** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

### **Taqrizchilar:**

**N.A. Abduraximova** – tarix fanlari doktori, professor

**Sh.M. O'ljayeva** – tarix fanlari doktori

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekistonda arxiv ishi tarixi xususida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib, bundan tashqari Turkistonda arxiv ishining tashkil qilinishi, Arxiv ishi markaziy boshqarmasi arxivlarining faoliyati, O'zbekistonda Davlat arxiv ishini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, arxiv xizmatining rivojlanishi, davlat arxivlari tizimi hamda arxiv sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari o'z aksini topgan.

В данной учебной пособие освещается история архивного дела Средней Азии и Узбекистана, история основных архивов Республики Узбекистан. Также рассматривается организация архивного дела в Туркестане, деятельность Архив иши Марказий Бошкармаси. Кроме того, показано реорганизация Центрального Государственного архива Узбекистана, архивной службы, создание системы государственных архивов, нормативно-правовой базы архивного дела.

This textbook is contains archive work in Central Asia and Uzbekistan, history of archives of Uzbekistan. Also showed organizing of archive work in Turkestan, activity of Tsuardel. Exept it showed reorganizing of Central State Archive jf Uzbekistan, archive syervise, creating of system state archives, law base of archive work.

ISBN 978-9943-14-378-4

© «Turon-Iqbol» 2016-y.

## KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritilayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

O'zbekiston milliy mustaqilligini qo'lga kiritganligi buyuk tarixiy voqea bo'ldi. Istiqlol tufayli jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan tarix fanlari sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida tarixchilar oldida turgan vazifalar haqida gapirib shunday deydi: "Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirishimiz lozim". Mana shu ma'noda o'zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklashda arxiv hujjatlarining ahamiyati kattadir.

O'zbekistonning tarixini o'rganishda arxivlarda saqlanayotgan arxiv hujjatlari va yozishmalarning ahamiyati benihoyat kattadir. Bu ortiqcha tushuntirish va izohga hojat bo'lmagan haqiqat. Lekin, ularni topish, o'rganish va o'z o'rnida foydalanish o'ta qiyin, bu tadqiqotchida chuqur bilim, maxsus malaka, qunt, sabot va matonat talab qiladi.

Arxiv hujjatlarini jamiyat hayotini o'rganishda o'rni beqiyosdir. O'rta Osiyo xonliklari: Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining davlat arxivi o'tgan asrda, ya'ni 1865, 1876-yillardan keyin, ya'ni xonliklar Rossiya impyeriyasi harbiylari tomonidan bosib olingandan keyin, Rossiyaga olib ketildi hamda muzey va kutubxonalarda saqlandi. Ularning – ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid qismi, 1960-yildan keyin Toshkentga O'zbekiston Markaziy davlat tarix arxiviga qaytarildi.

Xiva xonligining arxivi va uning materiallari asosida asrimizning 60-yillarida ozmi-ko'pmi ilmiy ishlar olib borildi. Biz bu

yerda Xiva xonligi arxivi ustida ko'p ish olib borgan P.P. Ivanov, M.Y. Yo'ldoshev, A.K. Borovkov, Yu.E. Bregel, Yu.A. Shayxova va boshqa tadqiqotchilarni nazarda tutmoqdamiz.

O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini o'rganishda Qo'qon xonligi arxivining ham ahamiyati kattadir. Bu muhim arxiv ham o'z vaqtida (1876-yildan keyin) Sankt-Peterburgga olib ketilgan va imperator muzeyi (hozirgi Sharqshunoslik instituti) Sankt-Peterburg xalq kutubxonasi fondlarida joylashtirilgan edi. Mazkur arxivga tegishli hujjatlar prof. A.L. Troitskaya tomonidan o'rganilib, 1968-yilda "Katalog arxiva kokandskix xanov XIX veka" nomli ma'lumotnomasi e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida Qo'qon, Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivi, Turkiston general-gubernatorligi, uning barcha tashkilotlari arxivlari, shuningdek, O'zbekistonning oktabr to'ntarishidan keyingi davr, sovet davri, mustaqillik davri tashkilotlarining arxiv materiallari saqlanadi. Bu arxivda uch mingdan ortiq fondlar mavjud. Bu Markaziy Osiyodagi eng katta va boy arxivdir.

Buxoro amirligining arxivi eng eski davlat arxivlaridan biri hisoblanadi. Uning Buxoro-Rossiya diplomatik va savdo munosabatlari qismi shu kunlarda Moskvada, qadimgi hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanmoqda. Moskvada saqlanayotgan hujjatlar Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, arxiv hujjatlari tirik o'tmish va xalqimizning tarixi bitilgan xotirasidir. Shuning uchun arxiv hujjatlari xalqimizning bebaho noyob tarixiy boyligi hisoblanadi.

"O'zbekistonda arxiv ishi tarixi" o'quv qo'llanmasi bakalavriat yo'nalishi arxivshunoslik talabalariga mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak arxivchilarga Turkiston ASSRda va O'zbekistonda arxiv ishi tarixini, O'zbekistonning asosiy arxivlari tarixini o'rgatadi.

# 1-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHI TARIXI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

---

## Reja:

1. Arxiv tushunchasi.
2. O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
3. O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

**Arxiv tushunchasi.** Yozuvning vujudga kelishi doimiy ravishda arxiv ishini rivojlantirib bordi. Tadqiqotchilarning fikricha, yozuvning vujudga kelishida hukmron doirada va mahalliy jamiyatda to‘laonli axborotga ega bo‘lish, uni yetkazish yoki boshlang‘ich holatini tiklash ehtiyojlari ortishi kabi omillar sabab bo‘ldi. Masalan, avvallari davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar og‘zaki tarzda olib borilgan va har qanday hukmdorlarning xabarlarini maxsus choparlari tomonidan og‘zaki usulda yetkazilgan. Buning natijasida chopar tomonidan o‘zining psixologik dalillari, ortiqcha so‘zlarning qo‘shilishi yoki ayrim so‘zlarning unutilishi kabi holatlar ko‘p uchragan va h.k. Natijada axborot va xabarning to‘liq yetkazilmasligi yoki to‘g‘ri qabul qilish imkoniyatlari cheklangan. Bunday axborot almashinuvi ko‘p hollarda tomonlarning o‘zaro bir-birlarini tushunmasliklarini keltirib chiqargan. Bundan tashqari, tashqi va ichki siyosatda og‘zaki shartnoma (shartnomalar tuzilishi, hukumat farmonlarining e‘lon qilinishi va h.k.) lar ma‘lum vaqt o‘tgach o‘sha shartnomalardagi ayrim fakt va detallarni alohida aniqlab olishga imkoniyat bermagan.

O‘rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv turlaridan biri – oromiy xati bo‘lib, ahamoniylar davrida bu yozuv keng tarqalgan. Yozuv paydo bo‘lgach qadimgi davlatlarda u yoki bu sohaga oid turli hujjatlar

(shartnomalar, farmonlar, soliq hujjatlari va h.k.) tuzish va ularni maxsus binoda saqlashga ehtiyoj vujudga keladi. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanib borishi natijasida hujjatlar saqlanadigan maxsus muassasalar – arxivlar tashkil topdi.

O‘rta Osiyoda arxivlar juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Arxiv so‘zi atamasiga kelsak, bu lotincha “arxivium” – “mahkama”, “muassasa” so‘zidan olingan. Lekin, “arxiv” atamasining hozirgi qo‘llanishi birmuncha kengroq. “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida “arxiv” tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Arxiv – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa”. Hozirgi kunda biron-bir tashkilot, korxonalar, muassasa yoki jismoniy shaxslar qo‘lida to‘plangan nodir qo‘lyozma va hujjatlar majmuiga nisbatan ham “arxiv” tushunchasi ishlatiladi.

Jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanib borishi bilan O‘rta Osiyodagi qadimgi va o‘rta asr davlatlarida arxivlar tashkil etilib, unda turli sohalarga oid hujjatlar saqlangan. Vaqt o‘tishi bilan arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar saqlov birligining ortib borishi tufayli hujjatli materiallarni saqlash va ulardan jamiyat hayotida foydalanish bilan bog‘liq jarayonlar ham murakkablashdi. Natijada hujjatlarni qabul qilish va saqlash, hujjatlar ro‘yxatini tuzish, ularni nashrga tayyorlashning qoidalarini, arxiv ishi nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish, ulardan qadimgi, o‘rta asr va hozirgi davlatlardagi arxiv ishi tarixi va ish yuritishni o‘rganish, shuningdek, ular tajribasidan foydalanish kabi omillarga ehtiyoj sezildi. Bu omillar “O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi, deb atalmish ko‘makchi tarix fanining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganishda arxivlarda saqlanayotgan arxiv hujjatlari va yozishmalar katta mohiyat kasb etadi. O‘tmish sanalari va sahnalari ilk asosiy manbalar sifatida arxivlarda saqlanayotgan ishonchli asl nusxa hujjatlar vositasida o‘z aksini topmoqda, namoyon bo‘lmoqda. Demak, arxiv hujjatlari – bu tarix, tirik o‘tmish. Usiz na kechamizni, na bugunimizni, na ertamizni tasavvur qila

olamiz. Hujjatlarda tarixning har bir lahzasi, kuni, oyi va yili tilga kiradi, sodir bo'lgan voqea, hodisalarni hikoya qiladi. Biz arxiv hujjatlarida qadimiy o'zbek zaminini, xalqimizning bosib o'tgan hayotini, o'tmishini ko'rib goh hayratga tushamiz, goh armonimiz, goh g'ururimiz ortadi. Shuning uchun arxiv hujjatlari xalqimizning bebaho noyob tarixiy boyligi hisoblanadi. Arxiv hujjatlari hech vaqt yo'q qilinmaydi, ular umrbod abadiy saqlanadi.

**O'zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining predmeti** boshqa fanlarga o'xshash holda o'ziga tegishli arxivlar tarixini o'rganish va tartibga solish, nazariy-amaliy qoida-tartiblar tizimiga ega. Maxsus tarix fanlar tizimining alohida sohasi sifatida ushbu fan davlat hujjatlarini saqlash vazifalarini bajarish uchun tashkil etilgan arxivlar tarixi, ulardagi nodir qo'lyozma va hujjatli materiallarda aks etgan tarixiy voqealar tahlilini o'rgatishni qamrab oluvchi o'z predmetiga ega.

**O'zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining asosiy maqsadi** arxivshunoslik o'quv kursi universitetlar tarix fakultetlari talabalariga, bo'lajak tarixchilarga O'zbekistonda arxiv ishi tarixini, O'zbekistonning hududiy arxivlari faoliyatini o'rgatish orqali malakali arxivshunos, ish yurituvchi, hujjatshunos kadrlarni tayyorlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi **vazifalarni** bajarish talab etiladi:

– O'zbekistonda arxivlarning vujudga kelish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

- arxiv muassasalari tuzilishi hamda ularning faoliyatini o'rganish;
- davlat arxivlarining huquq va majburiyatlari, vazifalarini yoritish;
- zamonaviy davlat arxivlari tizimini takomillashtirishning vosita va yo'llarini tushuntirish.

O'zbekistonda arxiv ishi tarixi fani bir qator **ijtimoiy-gumanitar fanlar** bilan bog'liq ravishda o'z masalalarini yoritadi.

**Maxsus tarix fanlari**, jumladan tarixiy xronologiya, sfragistika, arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti bilan ham chambarchas bog'liq.



**Tarixiy xronologiya** usullaridan o‘tmishda mavjud bo‘lgan vaqt o‘lchovlari, davlat muassasalarini davriy rivojlanishini o‘rganishda foydalaniladi.

**Sfragistika** – hujjatlarga qo‘yilgan muhrlar orqali uning qaysi davlat, idora yoki mansabdor shaxsga tegishliligini aniqlashda yordam beradi.

**Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti** – arxiv hujjatlarini tashkil qilishni, arxiv tashkilotlari ishining ilmiy, amaliy masalalarini tadqiq etishda ko‘maklashadi.

**Umumiy tarix fanlari** yordamida jahon davlatchiligi evolyutsiyasi davlat muassasalari tizimi, ularni vazifalari to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘ladi.

**Vatan tarixi fani** o‘rganilayotgan davlat tarixi, davlat muassasalarini shakllanishi, mansabdor shaxslar vazifalarini talqin etishda ko‘mak beradi.

**Yuridik fanlar** davlat va huquq asoslari tushunchasi, davlat shakllarini o‘rganishda yordam bersa, ijtimoiy-siyosiy fanlar davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish va taqqoslash orqali ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi, O‘zbekistonning asosiy arxivlari tarixini o‘rganishni bir qator fanlar bilan bog‘liq ravishda olib borish hamda olgan nazariy bilimlarni amaliyotda arxivlar faoliyatini takomillashtirishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Arxiv deb nimaga aytiladi?
2. Arxivlar qanday vujudga kelgan?
3. O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi, O‘zbekistonning asosiy arxivlari tarixini o‘rganishning ahamiyatini sharhlang.

4. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi, O'zbekistonning asosiy arxivlari fanining predmeti nimadan iborat?
5. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi fani qaysi fanlar bilan bog'liq?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Закон “Об архивах Республики Узбекистан”. Материалы XIV сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан 14-15 апреля, 1999 г. / Народное слово. 1999, 16 апреля.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30 oktabrdagi “Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori.
4. “Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil, 30 oktyabr, 482-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston,” 2003.
6. O'zbekiston Respublikasining “Arxivlar to'g'risida”gi qonuni. – Toshkent, 1999.
7. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995.
8. Alimov I.A. Arxivshunoslik. – Andijon, 2005.
9. Mityaev K.G. Teoriya i praktika arxivnogo dela. Uchebnoe posobie. – M., 1946.
10. Isakova M.S. Stanovlenie i razvitie arxivnogo dela v Uzbekistane. – Tashkent: Univyersitet, 2012.

### Reja:

1. O‘rta Osiyo hududida ilk arxiv muassasalarining paydo bo‘lishi.
2. Qadimgi Nisodagi Parfiya va qadimgi Xorazmdagi Tuproqqal’a arxivlari.
3. Devashtich arxivi va qadimgi So‘g‘d yozuvlari.

**O‘rta Osiyo hududida ilk arxiv muassasalarining paydo bo‘lishi.** O‘rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diniy jarayonlarga juda katta ta’sir qiladi. Qadimgi davr tarixidan ma’lumki, O‘rta Osiyoda quyidagi tarixiy-madaniy viloyatlar mavjud bo‘lgan: Baqtriya (Afg‘onistonning shimoli-sharqi, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo viloyati), Xorazm (Amudaryoning quyi oqimlari), So‘g‘d (yoki hozirgi So‘g‘diyona – hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalari), Marg‘iyona (Turkmaniston janubidagi Murg‘ob vohasi) va Parfiya (Turkmanistonning janubi-g‘arbi, Eronning shimoli-sharqi). Bu davlatlar mavjudligini arxeologlar tomonidan topilgan qadimgi ashyolar, yozuv va tangalar dalolat beradi.

Yozuvning vujudga kelishi doimiy ravishda arxiv ishini rivojlantirib bordi. Tadqiqotchilarning fikricha, yozuvning vujudga kelishida hukmron doirada va mahalliy jamiyatda to‘laqonli axborotga ega bo‘lish, uni yetkazish yoki boshlang‘ich holatini tiklash ehtiyojlari ortishi kabi omillar sabab bo‘ldi. Masalan, avvallari davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar og‘zaki tarzda olib borilgan. Va har qanday hukmdorlarning xabarlari maxsus choparlari tomonidan og‘zaki usulda yetkazilgan. Buning natijasida chopar tomonidan o‘zining psixologik dalillari, ortiqcha so‘zlarning qo‘shilishi yoki ayrim so‘zlarning unutilishi kabi holatlar ko‘p uchragan va h.k. Natijada

axborot va xabarning to'liq yetkazilmasligi yoki to'g'ri qabul qilish imkoniyatlari cheklangan. Bunday axborot almashinuvi ko'p hollarda tomonlarning o'zaro bir-birlarini tushunmasliklarini keltirib chiqargan. Bundan tashqari, tashqi va ichki siyosatda og'zaki shartnoma (shartnomalar tuzilishi, hukumat farmonlarining e'lon qilinishi va h.k.)lar ma'lum vaqt o'tgach o'sha shartnomalardagi ayrim fakt va detallarni alohida aniqlab olishga imkoniyat bermagan.

O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv turlaridan biri – oromiy xati bo'lib, Ahamoniylar davrida bu yozuv keng tarqalgan.

Axundjanov E.A. tadqiqotlariga ko'ra, O'rta Osiyo hududida turli tarixiy bosqichlarda, er.avv.III asrdan boshlab uch xil yozuv turlari mavjud bo'lgan: 1) Oromiy yozuvi (Xorazm, Parfiya, so'g'd, o'rta forsiy, manixeylik, qadimgi turk tili asosidagi yozuvlar); 2) grek grafikasi asosidagi yozuvlar (grek va grek-baqtriya yozuvlari); 3) hind yozuvlari (kxaroshtxi, braxmi).

Xalqlarning assimillyatsiyasi jarayoni natijasida yuqoridagi yozuv shakllari ham o'zgarib, mukammalashib bordi.

O'rta Osiyoda davlat ish yuritish tizimi va arxiv ishi yozuvlarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Mintaqada ma'muriy boshqaruv va yozma ravishdagi hujjatshunoslikni vujudga kelishida ahamoniylar imperiyasi va ellin davlatlarining ta'siri kuchlidir. O'z navbatida, V.V.Bartoldning fikricha, Eron, Rim va ellinistik davlatlarda hujjatshunoslikning rivojlanishi Misr davlatchiligining byurokratik tuzilishi va yozma ish yuritishi ta'siri asosida mukammalashgan.

**Qadimgi Nisodagi Parfiya va qadimgi Xorazmdagi Tuproq-qal'a arxivlari.** XX asrning 90-yillariga qadar, O'rta Osiyo davlatlaridagi ish yuritish va arxiv ishi haqida manbalarning yetishmasligi tufayli juda kam ma'lumotlarga ega edik, xolos. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Parfiya va Xorazmdagina hujjatshunoslik va ish yuritish mavjud bo'lganligi aniqlandi. Biroq, zamonaviy paleografik tadqiqotlar natijasida Shimoliy Afg'onistondagi ixtiyoriy qazishlar davrida, ya'ni 1991-1995-yillarda Janubiy Baqtriyadan yuzga yaqin hujjatlar,

Baqtriya yozuvida yozilgan hujjatlar topilib, bugungi kunda Londonda (D.Xalili topgan) saqlanmoqda.

D.Xalili tomonidan topilgan kolleksiyada shartnomalar, savdosotiq shartnomalari, mulkchilik ijaralari, qullikdan ozod qiluvchi hujjatlar va Kushon imperiyasi davridagi turli xil yerchilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy institutlar tuzilmasi va faoliyati yoritilgan. 20 ga yaqin yuridik hujjatlarni tahlil qilgan N.Sims-Vilyans fikricha, bu hujjatlar er.avv. 342–milodiy 81-yillarga taalluqlidir.

Keyinchalik, G.A.Koshelenko ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Balxdan topilgan va XXI asr boshida Londonga keltirilgan hujjatlar ham mashhur kolleksioner Nasyero D. Xalili tomonidan sotib olingan. Bu hujjatlarning o'ttiztasi tyeriga va 18 tasi taxtaga siyohda yozilgan. Bu arxiv hujjatlarining vaqti er.avv. IV asrdan, ya'ni 353-324-yillarni qamrab oladi. Va faqat, ulardan bir hujjat er.avv. V asrga tegishlidir.

Isroillik tarixchilar Sh.Shekeda va D.Navelarning fikricha, bu hujjatlarning tuzilishi, tili, xati, orfografik manbalari Misrdan topilgan Ahamoniylarning oromiy yozuvidagi hujjatlari bilan juda o'xshashdir. Mantiqan ular uzviy bog'langan bo'lib, bitta arxiv hujjatlari hisoblanadi. Mazmuniga ko'ra bu hujjatlar 4 guruhga bo'lingan. Birinchi guruh o'zida davlat amaldori Axvamazda tomonidan quyi pog'onadagi amaldor Bagavantuga yozilgan xatlarni mujassamlashtirgan.

Ikkinchi guruh turli xil shartnomalardan tashkil topgan bo'lib, yomon saqlangani uchun bu xatlarning egalari yoki ularning ismlarini aniqlashning iloji bo'lmagan. Uchinchi guruh hujjatlari oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatilishi to'g'risidagi manbalar. To'rtinchi guruh hujjatlari taxtaga yozilgan "qarzar" to'g'risidagi tilxatlardan iborat.

Hujjatlarni taqvimlashda, ko'pchilik ahamoniylar devonxonasida olib borilgan Vavilon kalendaridan foydalanilgan, ayrim hollarda gina zardo'shtiylik kalendaridan foydalanilgan. Yuqoridagi hujjatlar baqtriyaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy va diniy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, hujjatlarda bir qator quyidagi

uy hayvonlari qayd etiladi: g'ozlar, tovuqlar (ya'ni parrandalar), yirik va kichik shoxli chorva mollari, otlar, eshaklar va tuyalar. Oziq-ovqatning tarqatilishiga qarab hujjatlardan jamiyatning tabaqalanish jarayonini ko'rishimiz mumkin. Masalan, xizmatkorlarga bug'doy boshog'i berilgan, yuqori mansabdorlar esa bug'doy va arpa olishgan. Diniy marosimlardagi qurbonliklarda "oq" undan foydalanilgan, aholining iste'moliga "odatiy" un berilgan. Hujjatlardagi matnlarda teoforik ism (Axuradata, Atropata, Atruvaza, Mixrapata, Tirivaxishta, Bagayaza va boshqalar)larning uchrashi mintaqada zardo'shtiylik dinining tarqalganligidan dalolat beradi.

Mutaxassislarning fikricha, Baqtriya arxiv hujjatlari nafaqat mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, shuningdek, ma'muriy davlatchilik boshqaruv apparati faoliyatini yoritishda ham muhim manbalar hisoblanadi.

Boshqa bir qadimiy arxiv saqlanmasi 1948-49-yillarda M.E.Masson boshchiligidagi arxeologik qazuv ishlarining olib borilishi natijasida topilgan. Yangi Niso shaharchasida parfiyaliklar shahri xarobalaridan eng qadimgi Parfiya hujjatlari (er.avv. II asr) yirik idishlar shaklida xo'jalik yozuvlari ko'rinishida topilgan.

Ma'lumki, parfiyaliklar tili Janubiy Turkmaniston va Xurosonda eng qadimgi davrlardan eramizning V-VI asrlarigacha aholining eng asosiy so'zlashuv va aloqa tili bo'lib kelgan. Keyinchalik, bu til Parfiyada davlat tili maqomini olib, Sosoniylar imperiyasiga qadar aloqa tili bo'lib qolgan. Sosoniylar bosqinidan so'ng, Eronning asosiy rasmiy tili o'rta- fors paxlaviy tili – davlat tili deb e'lon qilingan. Grek-makedon mustamlakachiligi va ellinistik davlatlarning vujudga kelishi munosabati bilan grek tilining roli o'sadi. Biroq, Parfiyadagi ma'muriy tashkilotlardagi ish yuritishda ko'proq parfiyan tilidan foydalanilgan. Davlat hujjatlarini tuzishda grek tili va yozuvi bilan birga oromiy devonxona tizimidan ham foydalanish saqlab qolingan.

Nisodan topilgan 2700 ga yaqin sopol taxtachalar juda qimmatli material hisoblanib, Parfiya davlatining butun xronologik davrini yoritib beradi. Masalan, Kumis (Eron)dan topilgan ostadonlar er.avv.

I asrga tegishlidir; pergamentli Avroman (Eron Kurdistoni)dan topilgan ish yuritish hujjati er.avv. I asrga (er.avv. 88-y.); Koshadendan topilgan (Janubiy Turkmaniston), shuningdek; Marvdan topilgan ostadonlar er.avv. I asrning oxiri II asrning boshlariga taalluqlidir.

Arxeologik qazuv ishlari natijasida Parfiyada bu hujjatlarning saqlanib qolishida yirik saroy va qal'alar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yuqorida topilgan hujjatlarning ko'pchilik qismi Mixradatkyertedagi shoh saroyidan topilib, shu shahar xarobalari hozirda eski Niso deb yuritiladi. Mixradatkyertedagi shoh saroylari murakkab kompleksni tashkil qilib, u yerdagi mehmonxona, madaniy va diniy, xo'jalik-maishiy binolari saroy xazinasi bilan birlashtirilgan. Shuningdek, ular arxitekturasida keng bino saqlovlari va oziq-ovqat zaxiralari ham joylashgan bo'lib, bu yerda kirim-chiqim hujjat ishlari ham olib borilgan. Yozuvlarda vino keltirilgan sana, vinoning soni va sifati, uning egasining hamda vino keltirgan shaxsning ham ismlari yozilgan. Shuningdek, vino berilganligi to'g'risidagi sopol idishlardagi yozuvlar ham topilgan.

Oromiy grafikasi asosidagi parfiya yozuvlari yodgorliklari hozirgi kunda 3 mingga yaqin o'zaro uzviylikdagi matnlardan tashkil topib, Parfiya davlatining ma'muriy, davlat va saroy boshqaruvi haqidagi tarixini o'rganishda qimmatli material bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm hududidan ham eng qadimgi arxiv hujjatlari saqlovxonasi topilgan. Ma'lumki, er.avv. IV asrning oxirida Xorazm aharoniyylar davlati tarkibiga kirgach, oromiy tili va yozuvi bu yerda ham rasmiy davlat ish yuritish tili sifatida foydalanila boshlaydi. Aharoniyylar imperiyasi qulagach er.avv. IV asrning oxiri va er.avv. III asming boshlarida oromiy xati asosida xorazm yozuvi paydo bo'ladi. Qadimgi Xorazmning eng qadimgi yirik yozuv yodgorliklaridan biri 1948-49-yillarda S.P.Tolstov boshchiligidagi arxeolog-etnografik ekspeditsiya tomonidan topilgan. Tuproqqal'a (Qoraqalpog'iston Respublikasi)dagi shoh saroyining janubiy-sharqiy qismidagi to'rtta binodan saroy arxiv hujjatlari topiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu hujjatlar binodagi arxivning 2-qavatida joylashgan.

Tuproqqal'adan hammasi bo'lib 140 ta hujjat topilgan bo'lib, ularning 122 tasi qora tush bilan teriga yozilgan va 18 tasi taxtachalarga yozilgan. Qolganlari fragmentlar shaklida, bo'lak-bo'lak terilarga yozilgan bo'lib, bizgacha qum ostida qolishi natijasida oynadek yaltirab ikkinchi marta yozilgandek saqlanib qolgan.

Oshlangan terilar yog'och yoylariga o'ralib, muhrlar bilan muhrlangan. Xuddi shunday muhrning qumda izi saqlanib, restavratsiya ishlari vaqtida qayta tiklangan.

Saroy arxivi hujjatlarining asosiy qismi xo'jalik sohasini yoritib, ulardagi matn va lavhalar qum qatlamlarida ham saqlanib qolgan.

Ularda ko'proq vino va uning yetkazib berilishi o'z ifodasini topgan. Hujjatlarda shuningdek, chorva mollarining yetkazib berilishi va topshirilishi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Tuproqqal'a arxivi hujjatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining yetkazib berilishidan tashqari, soliqqa tortilgan shaxslarning ro'yxati, nikoh hujjatlari, xorazmshohlar xazinasiga kelib tushadigan mol-mulklar ro'yxati, ma'lum davrlar bo'yicha shoh xazinasida saqlanayotgan mulklar ro'yxati ham bor.

Mazmuniga ko'ra yog'ochga yozilgan hujjatlarni uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhda ozod va uy qullari haqidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning a'zolari katta oilalarga taalluqli "uy ro'yxati"ga kiritilgan. Ahamiyatiga ko'ra bu hujjatlar armiyani ta'minlashdagi hisobotlar uchun kerak bo'lgan. Tuproqqal'adan topilgan hujjatlar orasida xorazmshohlar sulolasiga yaqin bo'lgan jangchilar ro'yxati, ya'ni shoh saroyiga yaqin muomalada bo'lgan oilalar a'zolari ro'yxati alohida qimmatga egadir. Shuningdek, xorazmshohlarga tegishli bo'lgan ko'p sonli qullarning ham ismlari keltirilgan hujjatlar ham alohida ahamiyatga ega.

Ikkinchi guruh – taxtachalarga yozilgan xo'jalik hujjatlari bo'lib, uning 4 ta uncha katta bo'lmagan bo'lagida g'ildiraklar, aravalarni berilishi, keltirilishi va boshqa predmetlar hisobotlari qayd etilgan. Uchinchi guruhga yettita tayoqcha kirib, ularda mulk egalarining ismlari yozilgan.



A.A.Freymaning paleografik tadqiqotlari va boshqa tilshunoslarning topgan manbalaridan Tuproqqal'adan topilgan hujjatlar tili so'g'd tiliga yaqin qadimgi xorazm tilida yozilgandir. Qadimgi O'rta Osiyo yozuvlarini paleografik tahlil qilgan M.M.Isxoqovning fikricha, "Tuproqqal'adagi hujjatlar, ya'ni xorazm yozuvlari er. avv. III asrdayoq "imperiya-oromiy" xatidan mukammalroq darajada bo'lgan".

Tuproqqal'adagi orfografik matnlar va boshqa qadimgi xorazm yozuvlari tarixiy yozuvlardir.

Topilgan hujjatlardan uchtasining aniq sanalari bo'lib, ular 207, 231 va 252-yillarga taalluqlidir. Biroq, hujjatlarning qaysi asrga oidligi noma'lum edi. S.P.Tolstov tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasida yuqorida xorazmliklar tomonidan ta'kidlangan yillar, eramizning 69 va 78-yillari oralig'i ekanligi taxmin qilingan. O'sha davrlarga oid yil taqvimi bo'yicha, o'sha davrlardagi asrlar – hindlardagi "Shaka asrlari" bo'yicha olib borilgan. Xorazmliklar tomonidan hind yil hisobini qo'llanilishida hech shubha yo'q, chunki o'sha davrlarda Xorazm-Kushon imperiyasi tasarrufiga kirib, o'z-o'zidan hind madaniyati ta'sirida bo'lgan. Kunlar asosan, hujjat boshida qo'yilgan ayrim hollarda bir qancha operatsiyalar ro'yxatlashuvida matnning o'rtasida ham qo'yilgan yoki matnning oxirida qo'yilgan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, yuqoridagi hujjatlar qadimgi xorazm davlatchiligi tarixini o'rganishda alohida qimmatga ega. Tuproqqal'adan topilgan yozuv va numizmatik manbalarning tahlili Kushonlar imperiyasi tarixiga doir ayrim savollarga javob topishda, ularni davriylashtirishda ma'lum bir aniqliklar kiritdi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, Xorazmshohlar saroyidagi xazina saqlovchisi yoki iqtisodchi er. avv. III asrda "framatar", boshqa boshqaruvchi yoki nazorat qiluvchi "sarkar" deb atalgan. Birinchi atama ahamoniylar davridayoq ishlatilib, u shoh xo'jaligi boshqaruvchisini anglatib va yuqori mansab hisoblanib, bu lavozimga martabali oila vakillari tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha,

bu "framandar" unvoni ostidagi amaldor bo'lib, ilk o'rta asrlarda So'g'dda ham bu lavozim mavjud bo'lgan.

**Devashtich arxivi va qadimgi So'g'd hujjatlari.** 1932-yilning bahorida Tojikiston Respublikasi Zahmatobod tumanining Xaydarobod qishlog'ida yashovchi cho'pon Jo'ra Ali Muhammad Ali tomonidan qadimgi So'g'diyona davlatining Mug' tog'lari xarobalaridan Devashtich arxivi topilgan. Jo'ra Ali bu hujjatlar orasidan yaxshi saqlangan bittasini olib, qolganlarini g'orda qoldiradi. 1932-yilning kuzida o'sha qo'lyozmani Zahmatobod tumani partkomi Po'latiga ko'rsatadi. Po'lati esa yuqoridagi qo'lyozmani Tojikiston SSR Fanlar Akademiyasi bo'limiga beradi. 1933-yilning aprelida Tojikiston FA ilmiy kotibi A.I.Vasilev yuqoridagi qo'lyozmaning fotonusxasini Leningradga olib kelib, paleograf A.Freymanga beradi. Fotonusxalar o'rganilishi natijasida, qo'lyozma so'g'd tilida yozilganligi va qandaydir bir amaldorga mo'ljallanganligi aniqlanadi.

1933-yilning avgustida SSSR FA ga Po'lati telegramma jo'natib, Mug' tog'lari xarobalaridan yana 20 ga yaqin qo'lyozma hujjatlar topilganligini bayon qiladi. Bu xabar qo'lyozma hujjatlarni o'z o'rnida tadqiq etadigan ekspeditsiyani tuzilishiga sabab bo'ladi. 1933-yilning kuzida SSSR FA tomonidan Tojikistonga A.Freyman, A.I.Vasileva va V.A.Vorobevalar jo'natiladi. Shu yilning 10-23 noyabr kunlari oralig'ida olib borilgan qazuv ishlari natijasida to'rt xonali bino topiladi. Qog'oz va teriga yozilgan hujjatlar binoning janubiy qismidagi ikkinchi va uchinchi xonalaridan topilsa, to'rtinchi xonadan-taxtachalarga yozilgan hujjatlar topiladi. Hammasi bo'lib 81 ta arxiv hujjati topilib, ulardan 23 tasi taxtachalarga so'g'd tilida yozilgan hujjatlardan, 29 tasi teriga va 22 tasi qog'ozga yozilgan hujjatlardan tashkil topgan edi.

Bundan tashqari, turli xil holatdagi 8 ta xitoy tilida yozilgan hujjatlar ham bo'lib, ulardan 5 tasining orqasida so'g'd tilida ham yozilgan matnlar mavjud edi. Bu shundan dalolat berardi-ki, xitoy yozuvlari hujjatning asosini tashkil qilmasdan, balki xat mazmunini boyitish uchungina ishlatilgan. Qolgan ikkita hujjat arab tilida

va bitta hujjat qadimgi turk tilida bo'lib, terilarga yozilgan edi. Keyinchalik, 1934-yilning kuzida Po'lati tomonidan Tojikiston FA bo'limiga yana teriga yozilgan sakkizta so'g'd tilidagi qo'lyozmalar topshirilgan.

A. Freymanning ma'lumotlariga ko'ra, o'n yilga yaqin vaqt mobaynida to'plangan qo'lyozma manbalarda mintaqaning VII asr oxiri-VIII asrning boshlariga oid voqealar aks etgan. Ularning saqlanish ahvoli turlicha bo'lib, to'rtta hujjatda muhrlar ham saqlanib qolgan edi. To'rtta hujjatlardagi muhrlar qizil tuproqdan tuya tasviridagi muhrlar edi. Teriga yozilgan hujjatlarda maxsus teridan tayyorlangan bog'ichlar ham bo'lib, bu bog'ichlardan muhr va maxsus yoriq o'tkazilgan. Muhr qog'ozga alohida ilova qilingan. Biroq, maxsus yoriq va muhr orqali o'tadigan qog'oz ip muhrning hujjatga taalluqli ekanligini anglatgan. Bunday qirqim va yoriqlar boshqa topilgan hujjatlarda ham bo'lganligi, ularda ham muhrlar bo'lganligidan dalolat beradi. Ammo, u yoki bu sabablarga ko'ra ulardagi muhrlar saqlanmagan.

Mug' tog'idan topilgan barcha yozma manbalar – Devashtich ismi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir davrdagi tarixiy voqealarni va ulardagi tarixiy shaxslar faoliyatini yoritadi. Umuman olganda, bu hujjatlar Devashtich arxivi yoki devonxonasi hujjatlari hisoblanib, Devashtich tutqunlikka olib ketilgach, qal'ada qarovsiz ahvolda qoldirilgan.

Bizga ma'lumki, So'g'dning Panjikent viloyati alohida hududlaridan bo'lib, bu yerda ham mashhur sulola hukmronlik qilgan. Arab istilochiligi davrida Panjikentning mintaqadagi roli va o'rni kuchaydi. Chunki, arablar bosqinchiligi bu hududga keyinroq amalga oshadi. Jo'ra Ali Muhammad Ali tomonidan topilgan birinchi hujjat V.A.Livshis tomonidan o'qib chiqilganda, olimda Devashtichning shaxsini aniqlash imkoniyati vujudga keldi: Panjikent hokimi (yarim mustaqil viloyat) Devashtich so'g'd shohlari sulolasidan bo'lmasada, qo'shni viloyat hokimlari bilan muzokaralar olib borib, arablarga qarshi "ittifoq" tuzgan va "Samarqand shohi va Samarqand hukm-

dori” taxti hamda unvoniga da’vogarlik qilgan. I.Yu. Krachkovskiy tomonidan arab tilida yozilgan ikkita hujjatning o’rganilishi natijasida, Mug‘ tog‘laridagi qal’a Devashtich va uning tarafdorlarining 721-722-yillardagi arab istilochilariga qarshi oxirgi istehkomi bo‘lgan. Yil hisobi har bir hukmdorning hukmronlik davrida “alohida yil hisobi” bo‘yicha olib borilgan.

So‘g‘d hujjatlarini o’rganilishi va to‘liq tarjima qilinishi natijasida tadqiqotchilar Devashtich saroyida ma’muriy boshqaruv sohasida faoliyat ko‘rsatgan mansabdor shaxslarni aniqlashdi. 1962-yilda V.A. Livshis tomonidan chop etilgan hujjatlardan ma’lum bo‘ldiki, davlat muassasalaridagi vazifalar Panjikent hokimi saroy xo‘jaligini yurituvchi alohida shaxslarga yuklatilgan.

Masalan, davlat boshqaruv tizimidagi eng oliy mansab-ixshid (shoh) hisoblanib, shuningdek, Samarqand hukmdori (xvabu, xvutab) ham deb atalgan. Uning eng ishonchli vakili framandarlar – “vazir” edi. Devashtichning barcha saroy xo‘jaligi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yig‘ib olinishi va tarqatilishi, harbiy yurishlar, xunarmandchilik buyumlarining hisob-kitobi bilan turk Ut-tegin shug‘ullangan. Shuningdek, u hukumat buyruqlarining ijrosini ham nazorat qilgan.

Framandarga Devashtich tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarining tarqatish to‘g‘risidagi buyruqlarini berilishi natijasida, shuningdek, framandar tomonidan bu buyruqlarning ijrosi xususi bo‘yicha juda ko‘plab yozma hujjatlar tayyorlangan. Bu hujjatlar birinchi yoki uchinchi shaxs tomonidan tuzilgan. Hujjatlar tilxat shaklida ham berilgan. Tilxat tuzilganda yoki buyruq va topshiriqlar, shuningdek, har qanday boshqa hujjatlarda–yil va sana qo‘yilib, mahsulot berilgan vaqt ko‘rsatilgan. Vaqt ko‘rsatkichlari hujjatning oxirida yoki boshida qo‘yilgan.

Tilxatlar ikki xil shaklda tuzilgan. Birinchisi “bir xil ma’no”dagi, yoki “teng” tilxatlar deb atalib, bu tilxatlar ma’no-mazmun jihatidan bir-biriga nafaqat yaqin bo‘lgan, shuningdek, shakl va yozuv qatorlari bo‘yicha ham o‘xshash bo‘lgan. Bu tilxatning bir nusxasi

muallifda, ikkinchi nusxasi tilxatni olgan kishida va uchinchi nusxasi esa framandarda saqlangan. Tilxatning boshqa shakli birinchi shaxs nomidan yagona nusxada tuzilgan. Bu xatni oluvchi uni eng “asosiy” hujjat sifatida va eng zaruriy huquqiy asosdagi ko‘rilgan chora-tadbirlar xususidagi hisobot sifatida saqlashi lozim edi.

Birinchi nusxa shoh nutqi asosida yozilgan va Devashtich tomonidan tasdiqlangan. Shuningdek, “tuproq muhr” bilan muhrlangan. Matn tuzilgach hujjat truba shaklida o‘ralib, ip bilan bog‘langan va bu ip ustidan loy suvalib, uning ustidan muhr qo‘yilgan. Loydagi muhr izlari bullar deb atalgan. Mug‘ hujjatlarining kolleksiyasida Devashtichga tegishli tog‘ to‘ng‘izi va so‘g‘d yozuvlari tasvirlangan bullar saqlanib, bular –“ishonchli xatlar” hisoblangan. hujjatlar tizimini tahlili Devashtich arxividagi topshiriqli hujjatlar–hukmdor buyruqlarining nusxalaridir. Devashtich davrida Panjikent saroyi davlat devonxonasi ishlarini – dapirpat boshqargan.

Mavzu matnlarining grammatikasiga “parvonak kirok” (uni I.Isxakov “hujjat tuzuvchi” deb tarjima qilgan) javob bergan. Parvanak kirok o‘z faoliyati mobaynida dapirpatga bo‘ysunib, unga hisobot berib turgan.

Devonxonada juda tartibli hujjatlar hisoboti tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular mazmuni o‘sha vaqtlardayoq yaxshi ish yuritish usuli mavjudligidan dalolat beradi. Devonxonaga bilimli va mohir xattotlar ishga olingan. Bir tomonlama yoki sahifaning old-orqasiga yozilgan hujjatlar husnixatidan va ulardagi matnning mazmun-mohiyati xattotlarning bilimi yuqori darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ilk o‘rta asrlar So‘g‘dida hujjatlar yuritish tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, hujjatlarni tuzishda mas‘ul shaxslar bo‘lgan, hujjatlar saqlovi, hisoboti va ular ijrosi ustidan nazorat o‘rnatilgan. Shunday qilib, bizning davrimizgacha saqlanib qolgan mashhur so‘g‘d arxivi Mug‘ hujjatlari nafaqat O‘rta Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tadqiq etishga yordam beradi, balki o‘sha davrdagi devonxonalardagi ish yuritishning shakl va uslublari,

mansabdor shaxslarning o‘zaro munosabatlari va saroy xo‘jaligini boshqaruv tizimini ham yoritadi.

Tuzilish joyi va xronologik davriga qarab qo‘lyozma hujjatlar to‘plamiga ko‘ra ajratilgan. Masalan, hukumat ahamiyatiga molik hujjatlar maxsus saroy xazinalarida saqlangan. M.I.Filanovich fikriga ko‘ra, xazina-saroy xo‘jaligining eng asosiy elementlaridan bo‘lib, sharqona qo‘lyozma va hujjatlar saqlash maqomini O‘rta Osiyo uni bosib olgan ahamoniylar va ellin davlatlaridan meros qilib olgan edi. Persepoldan topilgan manbalarda xazina-Gazna, xazinabon esa-Ganzabara deb atalgan. Shuningdek, xorazmchada xazinabon – “shaxigan” deb atalgan.

O‘z navbatida, diniy mazmundagi hujjatlar ibodatxonalarda saqlangan, shaxsiy xarakterdagi hujjatlar esa bu hujjat egasining shaxsiy arxivida saqlangan. Masalan, III asrdan boshlab manixeylar ibodatxona (Eron va O‘rta Osiyoda)larida alohida binolar ham bo‘lib, bu binolarda manixeylik diniy e‘tiqodlariga taalluqli muqaddas kitob va diniy qo‘lyozmalar saqlangan.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosalar qilishimiz mumkin: O‘zbekistonda arxiv ishini tashkil qilinishi jarayoni uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, eng avvalo bu jarayon qadimgi davlatlarning tashkil topishi va ulardagi yozuvning vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. Yozuvning ixtiro qilinishi bilan o‘ziga xos ish yuritish tizimi va arxiv hujjatlarini saqlash vujudga kelgan. O‘rta Osiyoda ma‘muriy boshqaruv tizimlarini shakllanishi va yozma hujjatshunoslikni vujudga kelishida ahamoniylar imperiyasi va ellin davlatlarining ta’siri katta ahamiyat kasb etgan. Eng qadimgi O‘rta Osiyo davlatlaridagi ish yuritish va hujjatlarni saqlash tizimiga oid manbalar – Misrdan topilgan oromiy xatidagi ahamoniylar hujjatlari bilan o‘xshashdir. Masalan, Parfiyada davlat hujjatlarini tuzish, grek tili va yozuvi bilan bir qatorda oromiy xatidagi kanselyariya tizimidan amaliyotda foydalanish an‘analari er.avv. IV asrning oxiriga qadar, ya’ni Xorazmni ahamoniylar davlati tarkibiga kiritilishiga qadar davom etib, rasmiy oromiy tili va

oromiy devonxona xati rasmiy ish yuritishda qo'llanilgan. O'sha vaqtlardagi manbalarda yoritilishicha, ilk o'rta asrlarda So'g'dda hujjatlarni yuritish tizimi mavjud bo'lib, mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlarni tuzish, ulardan foydalanish va saqlash yuzasidan qat'iy hisobot olib borilgan. Qayerda tuzilganligi va ahamiyatiga qarab, turli xil hujjatli xatlar to'planib borgan. Masalan, hukumat ahamiyatidagi hujjatlar maxsus saroy xazinalarida saqlansa, diniy mazmundagi hujjatlar – ibodatxonalar qoshidagi maxsus saqlovxonalarda saqlangan. Shaxsiy xarakterdagi matnlar – shaxsiy arxivlarda saqlangan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'rta Osiyoda arxivlarning vujudga kelishiga nima sabab bo'ldi?
2. Qadimgi Nisodan qanday arxiv hujjatlari topilgan?
3. Devashnich arxivi qayerdan topilgan?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Дьяконов И.М. Истории Мидии: от древнейших времен до конца IV в.д.н.э. – М. – Л., 1956.
2. Ахунджанов Э.А. История книги в Туркестане. Древность. Средние века. – Челябинск, 2009.
3. Бартольд В.В. Хранение документов в государствах мусульманского Востока. Сочинения. Работы по источниковедению. –Т. VIII. –М.: Наука, 1973.
4. История государственности Узбекистана. В 3-х томах. –Т.: Узбекистан, 2009. Т.1. (вторая половина II тысячелетия до нашей эры- III век нашей эры). Авт. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова и др.; отв.ред. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова.
5. Симс-Вильянс Н. Новые бактрийские документы // Вестник Древней истории, 1997.

6. Кошеленко Г.А. Новые письменные документы по истории центрально-азиатского региона в древности // "Samarqand shahrining umumbashariy markaziy tataqqiyot tarixida tutgan o'rni" mavzuidagi 2750 yillik yubeleyiga bag'ishlangan xalqaro simpozium materiallari. –Toshkent-Samarqand: "Fan", 2007.
7. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Парфянское царское хозяйство в Нисе I до н.э. // Вестник древней истории. – Москва, 1960. № 2.
8. Топрак-кала. Дворец. / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. XIV. Отв. ред. Ю.А.Рапопорт, Е.Е. Неразик. – М.: Наука, 1984.
9. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat hazinasi. –Т.: "O'zbekiston,"1999.
10. Фрейман А.А. Согдийские документы с горы Муг. вып.I. Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. – М.: Изд-во вост. лит-ры, 1962.



#### **Reja:**

1. IX–XIV asrlarda O'rta Osiyoda arxiv ishi tarixi.
2. O'rta asr arxivlarida ish yuritishning o'ziga xosligi.
3. Temuriylar davrida kutubxona-arxivlarining tashkil topishi.

**IX–XIV asrlarda O'rta Osiyoda arxiv ishi tarixi.** O'rta Osiyoni arab xalifaligi istilo etgach va arab grafik yozuviga o'tilgach, davlat boshqaruvidagi islohotlar bilan bir qatorda, saroy va shaxsiy arxivlar, shuningdek, idoralarda hujjatlarni yig'ish va saqlash ishlari–devon, kutubxona va madrasalarda ham yo'lga qo'yildi. Ma'lumki, arab xalifasi davlat boshqaruvida – vazir-ul-vuzaro (Bosh vazir) ga tayan-gan. Turli xil davlat ahamiyatiga molik masalalar maslahat kengashi hisoblanmish–devon ad-darda ko'rib chiqilgan. O'z navbatida, devon ad-dar uchta asosiy devonlarga bo'lingan: al-mashriq, al-mag'rib va al-xaraj. Bunday devonlar tizimini arablar Eron sasoniylaridan o'zlashtirgan bo'lib, devon atamasi – hisob-kitob va kanselyariya ma'nosini anglatgan. Masalan, Eronda soliqqa oid hujjatlar uch nuxxada tuzilgan. Ulardan bir nuxxasi shoh devonida saqlangan, ikkinchisi mas'ul amaldorga jo'natilgan, uchinchisi esa o'sha hududning qozisida saqlanishi shart edi. Shoh devoni– “muhrlar qo'yiladigan devon” ham deb atalib, bu atama arablar davrida ham qo'llanilgan.

Arab xalifaligida davlat g'aznasiga oid hujjatlar, shuningdek, diniy ahamiyatdagi va qozilik hujjatlarini saqlaydigan bino vazifasini-masjidlar bajargan. O'z o'rnida ma'lum bir boshqaruv tizimidagi devonlar vujudga kelishi bilan, ular faoliyatiga oid hujjatlar ham to'planib borgan. Masalan, devoni al-barid (pochta xizmati) devoni xalifalik vaqtida hukumat hujjatlarini choparlar orqali belgilangan manzilga yetkazish bilan shug'ullangan. Bunday faoliyat natijasida,

poytaxtdan viloyatlarga va viloyatlardan poytaxtga joʻnatilgan xatlarning nusxalari, shuningdek, soliq va soliqqa tortish qogʻozlarining kvitansiyalari devonda toʻplanib borgan.

Abbosiylar hukmronligi davrida devonlar boshqaruvi mukammal darajaga yetgan edi. Ularning faoliyatini nazorat qilib boruvchi alohida “devoni nazorat” ham tashkil qilingan edi. “Devon” atamasi hujjatlarni toʻplash maʼnosida ham qoʻllanilgan. Bu hujjatlarni toʻplash huquqiga alohida taniqli sulolalar vakillari va gʻazna hisobidan taʼminlanadigan kishilargina ega edilar, xolos. Masalan, 802-yilda Xorun ar-Rashidning uch oʻgʻillariga qoldirgan meʼrosiy hujjatlari orqali ularning meʼrosiy haq-huquqlari aniqlanib, soʻngra bu hujjatlar kumush trubachalarga solinib, muqaddas Kaabaga osib qoʻyilgan.

Hujjatlar asosan pergament va papiyslarga yozilgan, baʼzi hollardagina xitoy qogʻozlariga yozilgan.

Arablar tomonidan Oʻrta Osiyo zabt etilgach pergament va papi-rus qogʻoz oʻrniga latta qogʻoz ishlatilib, soʻgʻdiy tilida “kagziak” – qogʻoz deb atalib, Samarqand orqali Arab xalifaligining gʻarbiy viloyatlariga, keyinchalik – Yevropaga ham tarqalgan.

IX asrning oxiri XI asrlarda arab xalifaligidan soʻng, Oʻrta Osiyo-da mahalliy tohiriylar, somoniylar, xorazmshohlar va qoraxoniylar davrida rasmiy arab tili oʻrnida fors-dariy va turk tillaridan foy-dalanila boshladi. Xususan, Somoniylar davlatida davlat tili – fors-dariy tili boʻlib, unda ish yuritish olib borilgan. Doimiy ravishda musulmonchilikka qadar mavjud boʻlgan fors atamalari ham tiklana boshladi.

Hukumatning ish yuritish, hujjat va yigʻmajildlarni devonga toʻplash ishlariga nisbatan – “fixrist” atamasi qoʻllanila boshlagan. “Askudar” (hujjatlar sumkasi) atamasi ikki xil maʼno kasb etgan. Masalan, aloqa xizmatlari haqida soʻz yuritilganda (devon al-barid nazarda tutilmoqda-muallif) “askudar”-“bogʻlangan yoki oʻralgan” degan maʼnoni anglatib, u yerda pochta muhri qoʻyilishi uchun joʻnatiladigan hujjatlar tushunilgan. Shuningdek, saroyga keladigan

va saroydan chiqadigan amru farmonlar, xat-xabarlar, bu xabarlarni oladigan kishilar manzillari esa – “askudar”ning ikkinchi ma’nosini anglatgan. Devonlar saroy qoshida joylashgan bo‘lib, ko‘pincha hujjatlar ushbu devonlar ustidan nazorat qiluvchi – vazirda saqlanib, u ishdan u yoki bu sabablar bilan ketganda undan olib qo‘yilar edi.

X asr shunisi bilan xarakterliki, ish yuritish bilan shug‘ullanadigan maxsus devonlar vujudga kelishi bilan birgalikda davlat tashkilotlari tizimida kutubxona va arxiv saqlanmalari ham mavjud edi. Kutubxonalarga – mustaqil ijtimoiy-madaniy institutlar maqomi berilgan. Arxiv ishi bilan kutubxona o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik – “xazina” atamasi bilan atalib, “xazina” so‘zi – “arxiv” va “kutubxona”ni anglatgan. X asrdan boshlab tarixiy qo‘lyozmalarni, nodir kitoblarni saqlash uchun madrasalar qoshida maxsus joy va binolar ajratilgan. Vaqf kutubxonalaridan tashqari, barcha kutubxonalardan xohlagan tadqiqotchi foydalanishi mumkin edi. “Xazina”dagi hujjatlardan – hukmdor sulolasiga tegishli bo‘lgan kishilar hamda jamiyatning eng oliy tabaqa vakillari, shuningdek, fan va ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan olimlar foydalanish huquqiga ega edilar.

O‘rta asrlardagi kutubxonalar va arxivlar faoliyatini kutubxonalardagi diplomat va elchilar, sayohatchilar hamda boshqalar tomonidan yozib qoldirilgan kundalik va memuarlarda yoritilgan. Ulardagi ma’lumotlardan o‘rta asrlarda arxiv hujjatlarining saqlanishi, hisoboti va ulardan foydalanish masalalarini o‘rganishimiz mumkin. Masalan, X asrda Buxorodagi eng yirik qo‘lyozmalar kutubxonasi – Somoniylar sulolasiga tegishli bo‘lgan. Ibn Sino tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Somoniy Nux ibn Mansurni (976-997-yy.)davolaganligi uchun unga somoniylar kutubxonasida ishlashi uchun ruxsat beriladi. Ibn Sinoning yozishicha, somoniylar kutubxonasi juda ko‘p xonalardan iborat bo‘lib, har bir xonadagi sandiqlarda qo‘lyozmalar va kitoblar bir-birining ustiga taxlanib saqlangan. Har bir zalda kutubxonachi bo‘lib, u hujjatli manbalardan foydalanishda va ularning hisobotini olib borishga yordamlashgan. Unda qo‘lyozmalar va nodir kitoblarning ro‘yxati bo‘lgan. **Manbalar**

bilim sohalariga qarab tizimlashtirilgan, ulardan nusxa ko'chirilgan va ularni saqlashga katta e'tibor berilgan.

**O'rta asrlar arxivlarida ish yuritishning o'ziga xosligi.** O'rta asrlar davrida O'rta Osiyodagi kutubxonalarda ish yuritishni tashkillashtirilishi masalalarini tadqiq qilgan E.A.Axundjanovning fikricha, kutubxonalarda (registratsiya) ro'yxatlashtirish ishlari olib borilmagan, ba'zi hollarda qo'lyozmalar ma'lum muddatga uyga ham berilgan. Qo'lyozmani qaytarish uni olgan shaxsning vijdoniga va Alloh oldidagi insof-diyonatligiga bog'liq bo'lgan. Manbani yo'qotilishi, yaroqsizlantirilishi va xususiylashtirilishiga qarshi hech qanday chora ko'rilmagan. Kutubxonada ishlaydigan kishilar soni 1 tadan ikki-uchtani tashkil qilgan. Kitobdor (kutubxonachi) lavozimi bilan birgalikda O'rta Osiyodagi ayrim kutubxonalarda kitoblarni ko'chiruvchi (xattot) va farrosh lavozimlari ham bo'lgan. Katta kutubxonalaridagi kutubxonachi vazifasiga – kitoblarni berish va qabul qilishdan tashqari, qo'lyozmalarni tartibli saqlash, ularni klassifikatsiya qoidalari bo'yicha taxlash va tizimlashtirish, manbalarni o'z vaqtida muqovalash hamda qayta ta'mirlash, qo'lyozmalardan u yoki bu axborotni yozib olmoqchi bo'lgan shaxslarga siyoh va qog'ozlar berish kabi mas'uliyat ham yuklangan.

Sheroz hukmdori Alaud ad-Daula (949-983-yy.) saroyi qoshida faoliyat yuritgan kutubxonada qo'lyozmalar sandiqlarda emas, balki shkaf javonlarida saqlangan. V.V.Bartold tomonidan to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, kutubxonaning juda ko'plab xonalari bo'lib, har bir xonadagi devor bo'ylab shkaf yasalgan. Shkafning uzunligi odam bo'yi barobarida, eni uch tirsak barobarida (arab uzunligida, taxminan metr) bo'lgan. Har bir shkafning yuqoridan-pastgacha naqsh berilgan eshiklari ham bo'lgan. Qo'lyozmalar kitob javonlarida taxlangan. Har bir mutaxassislik bo'yicha alohida qutilar qilinib, ularda manbalarning nomi ham yozib qo'yilgan. Kutubxonadagi ishni tashkillashtirish uchun shaharning obro'li kishilaridan tayinlangan kutubxona boshlig'i – vakil, kitoblar saqlovchisi – xazin va nazoratchi – mushrif lavozimlari bo'lgan.

Mo'g'ullar bosqiniga qadar yirik sulolalardan xorazmshohlar saroyi (Urganch) qoshida va anushteginiylar davrida kutubxonalar faoliyat yuritgan. Xorazmshohlar saroyi kutubxonalari orasida Shixobiddin Xivaqiyning Urganch kutubxonasi o'z kitob va qo'lyozmalarining boyligi bilan mashhur edi. Bu to'g'risida Nasafiy quyidagicha ma'lumot bergan: "Urganch kutubxonasi o'z manbalarining ko'pligi bilan o'z davrigacha bo'lgan barcha kutubxonalardan ustun edi. Undagi qo'lyozmalar fondi Marv kutubxonasi fondidan kam emas edi".

O'rta Osiyodagi kutubxonalarda manbalarni topishni osonlashtiruvchi ilmiy ma'lumotnoma apparati bo'lmagan. Hujjatlarning ro'yxatlari va inventar nomerlari ishlab chiqilmagan va manbani saqlanish joyi to'g'risida ma'lumot beruvchi topografik ko'rsatkichlar yo'q edi. Kitoblarni va qo'lyozma materiallarni joylashuvi kitob yoki kitob muallifining ba'zida kitob muqovasiga yozilgan ismlariga qarab aniqlangan.

O'rta Osiyoni mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishi nafaqat mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoriga ta'sir qilmasdan, balki diniy-madaniy yuksalishiga ham qaqshatqich zarba berdi. Mo'g'ullar bosqini natijasida davlat g'aznasi va ko'plab kutubxonalar talanib, qo'lyozmalar yoqib yuborildi. Mo'g'ullarning madaniy rivojlanish darajasi O'rta Osiyoliklarikidan juda past edi. Bir qator manbalarda ta'kidlanganidek, mo'g'ullarda yozuv yo'q edi. O'rta Osiyoni bosib olganidan so'ng, ular uyg'ur alfavitini qabul qilganlar.

Mo'g'ullar uyg'ur xatidan "Chingizxon yasoqlari"ni va mahalliy xalqlarning ayrim urf-odatlarini yozishda foydalanishgan. Keyinchalik esa, mo'g'ullarning "Chingiz yasoqlari" (qonunlar) yaratilgan.

Mo'g'ul davlat boshqaruv tizimi va ish yuritish faoliyati qisman ko'chmanchi imperiyalar va qisman Xitoyning ta'sirida ishlab chiqilgan edi. Mo'g'ullarning eng muhim tarixiy voqealari "Oltin kitob" deb yuritiluvchi solnomada o'z ifodasini topgan. Bu kitob alohida-alohida voqealardan tashkil topgan bo'lib, tartibsiz holda xon saroyi qoshida saqlanar edi. Bu kitobdan faqatgina xonning yaqin qarini

doshlari foydalanishlari mumkin edi, xolos. Mo'g'ullar tomonidan muhrni anglatuvchi turk atamasi "tamg'a" qo'llanilgan, hujjatlarning ko'pchilik qismiga "al-tamg'a" muhri qo'yilgan. Alohida xon farmon (yorliqlar)larida o'sha davrdagi ro'yxatga olish va ish yuritish tizimini aniqlashimiz mumkin.

### **Temuriylar davrida kutubxona arxivlarining tashkil topishi.**

Mo'g'ullarning 150 yilga yaqin istilochilik davrida ko'p asrlik davlat boshqaruvi tajribasiga ega bo'lgan O'rta Osiyo davlat boshqaruv tizimi va ish yuritish rivojlanmadi. Faqat, Amir Temur hukmronligi davriga kelib qadimiy an'analarga boy davlat boshqaruv tizimi yana qaytadan tiklandi. Amir Temur davrida boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lgan. Dargohda vaqti-vaqti bilan maxfiy kengash chaqirilib tor doirada muhim davlat masalalari muhokama qilingan. Kengashda maxfiy ishlar va muhokamalar haqida bayonnoma tuzuvchi kotib ham qatnashgan. Saroy qoshida ommaviy kengashlar uchun bir-necha kotiblar faoliyat olib borib, ular navbati bilan dargohdagi majlislarda ishtirok etganlar. Ular kengashda muhokama qilinadigan ishlarning aniq stenogrammasini yozib borishgan va shu tarzda Amir Temur hamda temuriylar davlatining yilnomalar to'plami yig'ilib borgan.

Akademik Bo'riboy Ahmedovning fikricha, mamlakatni boshqarishda yettita vazir yordam bergan. 1. Vaziri a'zam (bosh vazir) davlatning barcha ishlari, xususan aholining turmush tarzi, kirim-chiqim ishlari, viloyat va o'lkalardan olinadigan soliq, mamlakatni tinchligini ta'minlash kabi vazifalarga mas'ul bo'lgan. 2. Sipoh vaziri harbiy ishlar bo'yicha javobgar bo'lib, qo'shin ta'minoti va uning umumiy ahvolini nazorat qilib turgan. 3. Moliya vaziri davlat yersuv va mulklarini boshqarish, yaylov va o'tloqlarni nazorat qilish, boj va zakotdan tushgan daromad hisob-kitobini olib borgan. 4. Saltanat ishlarini yurituvchi vazir davlat muassasalarining kirim-chiqimlari, xazinadan olib sarflanayotgan xarajatlarni tasarruf qilib turgan. 5. Adliya vaziri nozirlar devoni (yoki devoni adl)ga rahbarlik qilgan. 6. Mamalakatdagi barcha ishlardan xabardor bo'lib turuvchi vazir

– devoni mansabni boshqargan. 7. Tashqi ishlar vaziri Amir Temur davlatining xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatish, turli muzokaralar olib borish bilan shug‘ullangan.

Amir Temur davrida alohida pochta-aloqa devoni bo‘lmasa-da, har bir viloyat chegarasida, viloyat va shaharda, hattoki qo‘shinda maxsus xabarchilar mavjud edi. Uning zimmasiga mahalliy davlat idoralari, hukmdorlar faoliyati haqida ma‘lumotlar to‘plab, dargohga yuborish vazifasi yuklangan. U har kuni, har hafta, har oy viloyatlarga kelayotgan hamda u yerdan chiqayotgan moddiy va ma‘naviy mollar to‘g‘risida, shu jumladan, nodir asar va qo‘lyozmalar haqida, turli xil mamlakatlardan kelayotgan xorijliklar va karvonlar haqida ham dargohga hisobot berib turishi lozim bo‘lgan. Xat-xabarlar bilan shug‘ullanuvchi bu idorada markazda qabul qilingan qarorlar, rasmiy hujjatlarning shaharlarga yetkazilganligi to‘g‘risida axborot-ma‘lumotnoma hujjatlari (hisobotlar, ma‘lumotnomalar va h.k.) to‘planib, ularda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy-diplomatik munosabatlari ifodalangan.

Amir Temur davlatidagi dargoh va devonlardagi ish yuritish haqida Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo quyidagi ma‘lumotlarni yozib qoldirgan: “Har bir mansabdor shaxsni alohida kotiblari bo‘lib, ular maxsus ro‘yxatga olish daftarini tutganlar. Boshliqlarning ko‘rsatmasiga binoan turli xil hujjatlarni tayyorlashda ma‘lumotnoma yoki axborotni o‘z daftarlariga qayd etishib, unga raqam qo‘yganlar. Bu rasmiyatchilikdan so‘ng yozilgan hujjat tasdiqlanishga berilib, keyinchalik maxsus devonlarga tasdiqlatish uchun jo‘natilar edi”. Masalan, tuzilgan farmonlarning har bir loyihasi uchta yoki to‘rtta mansabdor shaxslar tomonidan ko‘rib chiqilib, ularning muhrlari qo‘yilgan, keyinchalik hujjat oliy hukmdorga taqdim etilib, yuridik kuchga kirgan. Shu sababdan davlat xizmatiga savodli, malakali va martabali sulolalar vakillarigina ishga qabul qilingan.

Shuningdek, Amir Temur saroyida tarixchilar ham xizmat qilishib, ular voqealar va xabarlar yilnomasini tuzishgan. Hujjat va qo‘lyozmalarining ko‘pchilik qismi saroy qoshidagi kutubxonada saqlangan. Amir Temur kutubxonasida istilochilik yillarida to‘plangan juda

ko'p nodir kitob va qo'lyozmalar ham saqlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, bunday kutubxona avvaliga Temurning ona shahri – Kesh (hozirgi Shahrisabz)da tashkil qilingan, keyinchalik – Samarqandga ko'chirilgan. Kutubxona maxsus binoda joylashtirilib, qo'lyozma va hujjatlar sandiqlar va shkaflarda saqlangan.

Yuqoridagi ish yuritish tartibi temuriylar davrida ham saqlanib qoldi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi hukmronligi yillarida hukumat farmonlari maxsus qarorlar tarzida ro'yxatga olingan va "Oliy farmonlar" maqomini olganlar. Buyruq va farmonlar matniga katta e'tibor berilib, ularda ikki xil ma'nolikka yo'l qo'yilmagan. Bunday hujjatlarni tuzish – munshiydan (devonxona boshlig'i) va devonxonaning boshqa kotiblaridan savodxonlik va katta mas'uliyatni talab qilgan. Hujjatli farmonlardagi muhrlar topshiriq mazmuniga ko'ra besh xil tarzda qo'yilar edi. Birinchisi amaldorlar biron-bir mansabga tayinlanganda yoki ular rag'batlantirilganda qo'yilgan; ikkinchisi – xalqaro xabar va diplomatik hujjatlarga; uchinchisi – yuridik hujjatlarga; to'rtinchisi – saroy amaldorlariga yo'llangan hujjatlarga; beshinchisi – umumiy xarakterdagi hujjatlarga qo'yilgan. Va eng zaruriy farmonli hujjatlarning oxiriga hukmdorning muhri qo'yilgan.

Biroq, Shayboniylar davrida devonlar tizimi isloh qilingan va ularning vazifalari dargohdagi alohida mansabdor shaxslarga berilgan. Masalan, farmonlarni yetkazilishi, faxriy yorliq va oliy hukmdorning rasmiy hujjatlarini mas'ul shaxslarga yetkazilishi va uning ijrosi – parvonachi (yorliq topshiruvchi shaxs)ga yuklatilgan. Aholidan shikoyat tinglash va ularga javob yo'llash – dodxoh zimmasiga yuklangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, hujjatlarni idoralarda saqlash, hukumat miqyosidagi hujjatlarni davlat xazinasi qoshida to'plash yoki kutubxonalarda, shuningdek, amaldor shaxslarning devonida saqlanishi kabi an'analar saqlab qolingan.

Umuman, qadimgi va o'rta asrlar tariximizga oid manba va materiallarni o'rganish jarayonida O'rta Osiyo davlatlarida hujjatlarni saqlash va ish yuritishni vujudga kelishi va arxivlarga ehtiyoj – yozuvning paydo bo'lishi bilan rivojlanib borgan. Jamiyat va davlat doimo



biron-bir ma'lumotga ehtiyoj sezgan. Turli xil milliy yozuv turlarini paydo bo'lishi shakli va mazmuni jihatdan turli-tuman ma'no kasb etuvchi ijtimoiy-huquqiy va xo'jalik-maishiy ko'rinishdagi tashkiliy yoki topshiriqli hujjatlarni tuzilishiga olib keldi.

Shunday qilib, qadimgi va o'rta asrlarda O'rta Osiyo davlatlaridagi ish yuritish va hujjatlarni saqlash tizimini tiklanishi tarixini ko'p sonli tadqiqotlar asosida tadqiq etish asosida quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

– O'rta Osiyo davlatlaridagi ish yuritish va arxiv hujjatlarini saqlash tarixiga doir ma'lumotlarning kamligi – ko'plab bosqinchilik yurishlari natijasida bu xalqlarning ko'p asrlik ma'naviy-madaniy qadriyatlariga katta zarar yetkazilishi oqibatidir. Ulardagi tarixiy qo'lyozma va hujjatlar o'g'irlangan, yoqib yuborilgan yoki maqsadli tarzda davlatdan tashqariga olib chiqib ketilgan.

Tarixchilarning ma'lumotlaridan, shuningdek, lingvistika, paleografiya, kutubxona va arxiv ishiga oid ayrim manbalardan O'rta Osiyo hududida yozuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda o'ziga xos hujjatshunoslik tizimini shakllanganligini guvohi bo'lamiz. Davlat ma'muriy boshqaruv tizimi shakli va undagi tashkilotlarning vazifasiga qarab, ish yuritish va hujjatlarni saqlash hukmdor qoshidagi ma'lum bir tayinlangan mansabdor shaxsga yoki ma'lum bir devonlar (vazirliklar) zimmasiga yuklangan. O'z navbatida, shu tarzda hujjatlar u yoki bu davlat tashkilotida yoki mansabdor shaxslar huzurida to'planib borgan;

– davlat ahamiyatiga molik hujjatlarni saqlash joyi bo'lib – “xazina” yoki hukmdorlarning kutubxonasi xizmat qilgan. Va ularda maxsus lavozimlar – vakil, saqlovchi – xazin va nazoratchi – mushrif mansablari joriy qilingan. Hujjatlar sandiqlarda yoki shkafalarda saqlanib, ulardan qayd etish jurnallari orqali foydalanilgan. Biroq, arxiv saqlovxonalarida hujjatlarning markazlashgan hisoboti, arxiv hujjatlarining ilmiy-ma'lumotnoma apparati tuzilmagan;

– bizning davrimizgacha saqlanib qolgan O'rta Osiyolik hukmdorlarning arxiv hujjatlari shuni ko'rsatadiki, asosan saqlash uchun

– soliqlar yig‘imi to‘g‘risidagi, ma‘lum bir shikoyatlar haqidagi, soliqlarning to‘langanligi haqida guvohlik beruvchi tilxat va kvitansiyalar xo‘jalik xarakteridagi turli xil yozishmalar qayd etilgan jurnallar, ayrim hollarda u yoki bu ma‘lumotni tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi topshirilgan. Ko‘p hollarda hujjatlar – bu qo‘lyozmalardan ko‘proq manfaatdor bo‘luvchi shaxslar qo‘lida saqlangan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. IX–XIV asrlarda O‘rta Osiyodagi arxiv ishi tarixini yoriting.
2. Temuriylar davrida ish yuritishning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud edi?
3. O‘rta asrlarda qo‘lyozma va arxiv hujjatlarini saqlash hamda ish yuritish ishlari qanday yo‘lga qo‘yilgan?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Кормилицын А.И. Рукописные коллекции и библиотеки на территории Узбекистана эпохи средневековья. – Ташкент: институт рукописей АН РУз, 1993.
2. Ахунджанов Э.А. Очерки по истории книги и книжного дела в Средней Азии –Т.: Изд-во им Ибн Сины, 1993.
3. Семенов А.А. Роль Средней Азии в распространение материальных и духовных ценностей // Материалы первой всесоюзной научной конференции востоковедов в г. Ташкенте. –Т.: Изд-во АН УзССР, 1958.
4. Кормилицын А.И. Судьбы книг. –Т.: “Фан,” 1994.
5. Бартольд В.В. Хранение документов в государствах мусульманского Востока. Сочинения. Работы по источниковедению. –Т. VIII. –М.: Наука, 1973.
6. Ахунджанов Э.А. Очерки по истории книги и книжного дела в Средней Азии –Т.: Изд-во им Ибн Сины, 1993.
7. Хабибуллаев Н. Письменности и рукописи книги народов Средней Азии (IX – начале XX вв.) – Т.: УМЭД, 2008.
8. Уложение Тимура / Под.ред. А.Азимовой. –Т.: Чулпан, 1992.

## 4-MAVZU. O'RTA OSIYO XONLIKLARIDAGI ARXIV ISHI VA HUJJATSHUNOSLIK

---

### Reja:

1. O'rta Osiyo xonliklar davrida arxiv ishi (XVIII–XIX asr)
2. Buxoro amirligi Qushbegi arxivi.
3. Xiva xonligi arxivi.
4. Qo'qon xonligi arxivi.

### **O'rta Osiyo xonliklar davrida arxiv ishi (XVIII–XIX asr).**

O'rta Osiyo xonliklari hukmronligi davridagi ma'muriy boshqaruv tizimi bilan bog'liq muammolar ko'plab vatanimiz va xorijiy tarixchilar hamda sharqshunoslar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, bu esa o'sha davrlardagi ish yuritish va hujjatshunoslik, hujjatlarni saqlashni tahlil qilishni osonlashtiradi. O'z navbatida, hujjatlar bilan ishlash va ularning saqlovini tashkillashtirishga oid ko'plab jaryonlar hozirgacha to'liq o'rganilmagan. O'rta Osiyo xonliklaridagi hukumat institutlarining boshqaruv funksiyalari, davlat hujjatlarini tizimlashtirish tahlillari xonliklardagi hujjatshunoslikni va uning o'ziga xos tomonlarini o'rganishimizga yordam beradi.

Ma'lumki, XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'ydilar va bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. 1583-yilda Abdullaxon II davrida Shayboniylar davlatining poytaxti sifatida Buxoro mustahkamlandi va siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy markazga tobe bo'lgan hududlar Buxoro xonligi deb atala boshlandi. Keyinchalik, mang'itlar sulolasi vakili Amir Shohmurod (1785-1800-yy.) davrida bu xonlik Buxoro amirligi deb atalgan. Yangi hukmdorlar hokimiyatni rasman "Amir" unvoni bilan boshqara boshladilar va bu davlat Buxoro amirligi nomi bilan tarixda qoldi. Buxoro amirligida

juda murakkab davlat boshqaruvi mavjud bo'lgan. XVI asrdan XX asrning boshlariga qadar Buxoro amirligida uchta sulola: Shayboniylar, Ashtarxoniylar va mang'itlar hukmronlik qildilar. Ulardagi ma'muriy boshqaruv tizimi Amir Temur va Temuriylar davlatidan me'ros qolgan va ko'chmanchi o'zbeklarga xos an'analarga biroz o'zgarishlar kiritilgan boshqaruv asosida qurilgan edi.

Avvalida, Temuriylar davlatida mavjud bo'lgan dargoh va devonlar tizimi Buxoro amirligida ham davom ettirildi. Shayboniixon hukmronligi davrida devonlar tizimi isloh qilinib, ularga tegishli vazifalarning ko'p qismi dargohdagi alohida lavozimli amaldorlarga berilgan. Shu jumladan, oliy hukmdorning farmonlari, faxriy yorliqlar va boshqa rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga yetkazish va ijrosini ta'minlash vazifasi – "parvonachi"ga yuklangan. Dargohga yo'llangan ariza va shikoyatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va ularga javoblar berish – "dodxoh" vazifasiga kirgan.

Amirlik ma'muriy boshqaruv tizimida davlat boshqaruvining turli xil shakl va uslublaridan foydalanilgan. Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan – Amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh – Arkda hal etilar edi. Vaqti-vaqti bilan 5 tadan 20 tagacha eng yuqori amaldorlar a'zo bo'lgan – davlat Kengashida o'ta muhim masalalar ko'rib chiqilgan. Davlat boshqaruvida Amir – davlat mahkamasi, soliq-majburiyatlarni, diniy sud idoralari va kuzatish-qidiruv kabi davlat institutlariga ko'proq tayanar edi. Biron-bir oliy hukmdor buyruq-farmonlarini bajarilishiga turli xil davlat idoralari mas'ul bo'lib, o'z navbatida ular bir-birini ustidan nazorat qilib borgan.

Davlatdagi harbiy va fuqaroviy amaldorlar quyidagicha bo'lingan edi: a) katta sipohi – oliy martabali amaldorlar; b) o'rta sipohi – o'rta martabali amaldorlar va d) amagi-sipohi (sobitlar) va h.k. Yuqorida ta'kidlangan birinchi va ikkinchi toifadagi amaldorlik lavozimlariga bir urug' a'zolari qabul qilinib, maxsus yozma yorliqlar va sarpolar bilan ta'minlangan. Uch xil turdagi yorliqlar mavjud edi: 1) amir

va uning kotibi (munshiy) muhri bilan va amir muhri yorliqning bosh sahifasiga, munshiy muhri esa yorliqning oxiriga ilova qilingan; 2) amir va inoqi-xurd muhri bilan muhrlanish tartibi yuqorida ta'kidlangan ta'moyillar asosida amalga oshirilgan; 3) faqat amir muhri bilan imzolangan. Har bir yorliqni berilishiga munshiy foydasiga 3,5 tilla, inoqqa – 5 tilla va parvonachiga – 7 tilladan badallik to'lovi joriy qilingan edi.

Hokimiyat tizimida amaldorlar katta mavqega ega edilar. Amaldorlar ichida otaliq – shahzoda va xonzodalarning tarbiyachisi mansabi eng asosiy lavozimlardan biri hisoblangan. XVII asr hujjatlarida otaliq – birinchi vazir sifatida tilga olinib, u mamlakatdagi sug'orish ishlarini boshqargan. Otaliqdan so'ng, ikkinchi mansabdor – devonbegi (devonbegi-kalon) bo'lgan. Sharqshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra, u bir vaqtda devonxonah mahkamasi boshlig'i va moliyaviy ishlar bo'yicha vazir lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. Devonbegi mamlakatdagi xiroj yig'imlarini nazorat qilgan. Viloyat va tumanlardan ma'lum bir xiroj summasi o'rniga natural shaklida to'lanadigan bug'doy uchun maxsus chek yoki berat rasmiylashtirilib, devonbegi va Amir muhri bilan tasdiqlangan. O'z navbatida devonbegi hisob-kitoblar daftarini yuritishga ham mas'ul edi. Ushbu daftardagi kirim-chiqim hisobotlari amirlikda sir tutilgan va maxfiy saqlangan. Devonbegi amirlik hokimiyat tizimidagi to'rtinchi pog'onada turuvchi – “ahli qalam”ning boshlig'i ham hisoblangan. Ushbu pog'onadagi ikkinchi o'rindagi amaldor – mushrif-nazoratchi deb atalgan. Uni “ikkinchi kotib” (kotibi soniy) ham deb atashib, u amir topshirig'iga ko'ra mudri omborga boshchilik qilib, u yoki bu shaxslarga arizasiga ko'ra – xalat va qurol-yarog'lar berish to'g'risida ruxsatnoma yozib bergan. Pog'onadagi uchinchi mansabni – daftardor egallagan. U devon tomonidan tayinlangan tanxo va suyurg'ol egalarini lavozimga tayinlash yoki ozod qilish kabi masalalarni nazorat qilgan. To'rtinchi pog'onani tanob yig'implari devoni tashkil qilib, amir buyrug'iga ko'ra ular yerdan olinadigan xiroj yig'implari, shuningdek, daromad va xarajatlarga mas'ul edilar.

Xizmat darajasining beshinchi pog'onasida – munshiy turgan. U Amirning shaxsiy kotibi bo'lib, yorliqlar tuzish, hukmdor hukmi va xohishidan kelib chiqib uning xizmat ro'yxatini yuritish, u yoki bu shaxslarning biron-bir mansabga tayinlanishi to'g'risida yorliqlar yozish hamda xizmatiga qarab ularga taqdimnomalar yozish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Bu lavozimga xattotlik san'atini yaxshi biladigan va o'z zamonasining bilimdon kishilari tayinlangan. Ma'lumki, hatto ba'zi hollarda unga hukmdorga bag'ishlab she'rlar bitish va shoh shajarasini tuzish kabi ishlar ham topshirilgan. Buxoro xonlarini o'zlari munshiylik ishini sifatini nazorat qilganlar. Masalan, ashtarxoniy Abdulazizxon (1645-1680) davlatdan tashqariga yuboriladigan xat va yorliqlarni tuzgan munshiylik ishidan qoniqmasdan, uning ishiga tuzatishlar kiritgan, ba'zi hollarda uning o'zi xat va yorliqlarni yozgan.

Bundan tashqari, saroyda quyi darajadagi lavozimlar: kichik mushrif, paygernavis, maxramlar va yasovullar mansablari ham bo'lib, ular ham hujjatlarni ro'yxatlashtirish bilan shug'ullanganlar. Masalan, paygirnavis–paygirlarni rasmiylashtirish bilan shug'ullangan. A.Semyonovning fikricha, “paygir” atamasi Buxoroda uzun qog'ozlar o'rami (tumor)ni anglatib, unda bir necha qog'ozlar bir-biriga yopishtirilgan va truba shaklida o'ralgan. Ayrim hollarda paygilar mustahkam bo'lishi uchun teriga ham yopishtirilgan. Ko'pincha bunday paygilar – vaqf yorliqlari uchun ham tuzilar edi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan vaqf hujjatlari va shajaranomalar ikki nusxada tuzilgan. Ikkinchi nusxa davlat arxiviga saqlash uchun topshirilgan. Birinchi nusxadagi hujjatning asl nusxasi yo'qotilganda, ikkinchi nusxa asosida hujjat tiklangan.

Mahramlar saroy huzuridagi amaldorlarning turli xil lavozimlarga tayinlanishi bo'yicha hujjatlashtirish ishlarini olib borganlar.

Fuqarolarni qushbegiga, qozi-kalon, viloyat hokimlariga yoki boshqa mansabdor amaldorlarga yozgan turli xil arizalarini yetkazish bilan – yasovullar shug'ullanishgan.

Xonlikda yashayotgan arablar ishi bilan maxsus mahkama – devon-i arabxona mashg‘ul bo‘lgan. Devon boshlig‘i arablar o‘rtasidagi muammolarni rasmiylashtirish va ularni xonlikdagi boshqa tumanlarga ko‘chib o‘tishi, doimiy armiyaga chaqirilishi, soliqlar to‘lovi kabi masalalarni hal qilgan.

Saroy huzurida va devonlar faoliyatida maxsus ish yurituvchi xattotlar bo‘lib, ularni muharrir deb ataganlar. Muharrirlar quyidagi uch turga bo‘lingan: 1) davlat devoni xattoti; 2) amlok yerlar tuzilishi bo‘yicha xattot; 3) doimiy voqealarni rasmiylashtiruvchi muharrirlar.

Buxoro amirligida markaziy hokimiyat va joylardagi mahalliy amaldorlar o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. har bir ma‘muriy amaldor (amir, hokim, amlokdor, oqsoqol) huzurida choparlar guruhi bo‘lib, jo‘natiladigan xabarning hududiy kengligiga va yetkazilayotgan xabarning qancha ko‘p viloyatlarga tarqatilishini hisobga olib, shuningdek, masofaning uzoq-yaqinligiga qarab – choparlar soni oshib borgan. Agar biron-bir mahalliy joylardan hukmdor nomiga hisobot yoki ma‘ruza kelganda, shuningdek, biron-bir xat bilan elchi tashrif buyurganda, u holda ular keltirgan hujjatlar eng avvalo – kichik inoq qo‘liga tushgan. O‘rta Osiyoda hozirgi tushuncha bilan aytganda, hech qachon hujjatlarni konvert ichiga solmaganlar. Yozma murojaatlar trubaga o‘ralib, buxorocha – lifofa (arabcha o‘rama) deb atalgan. Bu uchburchak qog‘oz bo‘lib, konvert vazifasini o‘tagan. hujjatlarni biron-bir manzilga jo‘natishayotganda uni lifofaga o‘rashib, uchburchak qog‘ozni oxiridan tepaga qarab buklashgan va gummiarabik bilan yelimplangan hamda buklangan lifofani eng tepa o‘tkir burchagiga xat jo‘natilayotgan shaxsning ismi va uning manzili yozilgan.

**Buxoro amirligi Qushbegi arxivi.** O‘zR MDA ilmiy xodimi K. V. Muhsinovaning ma‘lumotlariga ko‘ra (1949-yilda Buxoro amiri Qushbegi arxivi hujjatlari bo‘yicha ilmiy-texnik faoliyat olib borgan), amirlikdagi har bir xatning ustiga muallifning ismi bilan birgalikda sana va muhr ham qo‘yilgan. Biroq, muhr amaldor shaxsning o‘z

lavozimiga kelgan birinchi yilida buyurtma qilib yasatilganligi uchun bir necha yillardan so'ng ham u o'sha muhridan foydalanganligi sababli hujjatda ko'rsatilgan sana doimo xat mazmuni va haqiqiy sanasiga to'g'ri kelavermagan. O'z navbatida xabarni tayyorlaganda uni muallifi imzo qo'yimagan, bu o'sha davrdagi urf-odatlariga ko'ra, xudoning ismi va amirdan so'ng imzo qo'yish hurmatsizlik hisoblangan. Oliy diniy mansabdor shaxslar: qozilar, raislar va ayrim hollarda obro'li viloyatlar hokimlari bundan mustasno bo'lib, ularga hujjatlarga o'z ismlarini ko'rsatishga ruxsat berilgan.

Mang'itlar sulolasi davrida viloyat hokimlari va qozilar o'tgan ishlar hisobotini amirga jo'natib turishgan. Xabarlar har juma kuni bomdod namozidan so'ng amirga yetkazilgan. Oliy hukmdor beklarning hisobotlarini ko'rib chiqib, ularni hal etish choralari to'g'risida mas'ul shaxslarga buyruq bergan.

Xat-xabarni zudlik bilan yetkazish zarur bo'lganda viloyat hukmdorlari bu xabarlarni doimiy choparlar orqali emas, balki tezkor maxsus choparlar ("shatir-pari") orqali jo'natishgan. Barcha yetkazilgan xabarlar uchun uning egasi markaziy hokimiyatdan xizmat maktubi yoki topshiriqlar olgan. Agar biror-bir topshiriq berilmasa, hukumat boshlig'i xabarni ma'qullaydigan javob – "Muboraknoma" jo'natgan. Axborotni yetkazish hokimiyat tizimining quyi tabaqasidan yuqori tabaqasiga yetkazish orqali amalga oshirilgan. Davlatdagi ikkinchi shaxs hisoblanmish – "quli-i qushbegi" (Bosh vazir) orqali amirning o'ziga xabar yetkazilgan. Qushbegi mahkamasiga xabar kelib tushgach, maktubning yuqori o'ng burchagiga qora tush bilan xabar muallifining ismi yozib qo'yilgan.

Ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702-1711-yy.) hukmronligi davridan boshlab, "quli-i qushbegi" roli hokimiyat tizimida o'sib borgan. Mang'itlar hukmronligi davriga kelib, XIX asrning boshidan boshlab, to mang'itlar sulolasining qulashiga qadar, ya'ni 1920-yilgacha quli-i qushbegi lavozimi – "qushbegi-i bolo" deb o'zgartirilib – "premer-ministr" lavozimini anglatgan. Rossiya istilosiga qadar mang'itlar sulolasi davrida qushbegi eng oliy mansab hisoblangan. Aslida bu



mansab egasi Bosh vazir vazifasini bajargan. U amirlikda o'z vazifasi va majburiyati bo'yicha amirdan so'ng birinchi mansabdor shaxs hisoblangan. Amirlikdagi barcha hokimiyat tizimi uning qo'lida bo'lib, u davlatning kirim-chiqimlari ustidan oliy nazoratni o'rnatgan, shuningdek, poytaxt tinchligi uchun javobgar bo'lgan. qushbegi zimmasiga turli xildagi ko'plab davlat ishlarining yuklanishi va boshqaruv haq-huquqlarini berilishi, Buxoro amirligida alohida idoralar va vazirliklar bo'yicha davlat apparati funksiyalarini taqsimlanmaganligidan dalolat beradi. Biroq, markaziy hokimiyat turli xil ma'muriy-xo'jalik masalalari bilan shug'ullanadigan amaldorlar armiyasiga ega edi.

Samarqand o'lkashunosi va sharqshunos V.L.Vyatkin o'zining V.V.Bartoldga XIX asrning oxirida yozgan xatida amirlikda saqlanayotgan davlat hujjatlari haqida quyidagi xabarni bergan edi: "Men tomonimdan to'plangan ma'lumotlardan amirning kutubxonasi borligi aniqlandi, biroq kutubxona to'la tashlandiq va tartibsiz ahvolda edi. Bir samarqandlik kishi bilan mahalliy kiyimda Arkka tashrif buyurganimda, saroydagi amaldorlar diplomatik tarzda shubha uyg'otmaslik uchun kutubxona mavjudligini, ammo kutubxonadan faqat Amirning ruxsati bilan foydalanish yoki qo'lyozmalarni ko'rsatish mumkinligini ta'kidlashdi. Keyinchalik, Amir saroyida remont ishlarini olib borgan bir tatar kishi, saroyda kitob, xabarnomalar va qog'ozlar bilan tartibsiz to'ldirilgan uchta katta xonalarni ko'rganligini – menga aytdi. Bir kishi unga Arkdan keladigan kitoblar va eski qo'lyozmalarni muqovalayotganligini ham ta'kidladi. Keyinchalik, Buxoroda bir-necha marotaba eshitdimki, Amir rus fuqarolariga o'z kutubxonasi va davlat arxivini ko'rsatishni xohlamaydi. U ehtiyotkorlik yuzasidan kutubxonada ruslar uchun o'ng'aysiz biror-bir hujjat chiqib qolishidan shubhalanadi yoki bu hujjatlarni ko'rsatishdan ko'ra, maxfiylikda saqlashni afzal ko'radi".

Amirga yaqin bo'lgan mansabdor shaxslarning mahkamalarida ularga tegishli faoliyatni yorituvchi hujjatlar to'plangan. Shu jumladan, hozirgi kungacha saqlanib qolgan va O'zbekiston Respub-

likasi Markaziy davlat arxividagi "Buxoro amiri Qushbegi arxivi" sarlavhasi bilan I-126-jamg'armada saqlanayotgan hujjatlardan, turli mazmundagi axborot-ma'lumotnoma materiallar (mamlakatdagi siyosiy ahvol haqidagi ma'ruza va xabarlar, harbiy qismlar ro'yxati va bo'linmalari, soliq yig'implari to'g'risidagi hisobotlar)dan, xizmat maktublari, vaqf hujjatlaridan Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy hayotni o'rganishimiz mumkin.

1931-yilda Buxoro Arki yerto'lasidan "Qushbegi arxivi" topilgan. Buxoro muzeyi xodimlari tomonidan arxiv hujjatlarining ayrim qismlari turli xil joylardan yig'ib, to'plangan. Masalan, Buxoro ichki ishlar boshqarmasidan va h.k. Avvalida muzey xodimlari arxiv hujjatlarini tozalash va qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishgan. Masalan, muzey xodimi M.Xakimov arxiv hujjatlarini ajratayotganda ularni quyidagi hujjatlar guruhiga taqsimlagan:

1. Moliyaviy masalalarga oid hujjatlar.
2. Buxoro amiri va Rossiya hukumati o'rtasidagi yozishmalar.
3. Xorijiy davlatlar bilan diplomatik munosabatlarga oid hujjatlar.
4. Xazinadan Amir xarajatlariga taalluqli xarajat hujjatlari.
5. Buxoro amirligidagi yer-suv munosabatlariga oid hujjatlar.
6. Turli xil yozishmalar: rivoyatlar, tariqa va h.k.

M.Xakimov tomonidan amalga oshirilgan ishlardan so'ng, arxiv hujjatlariga opis (ro'yxat) tuzishga kirishildi. 1932-yilda Buxoro muzeyi ma'muriyati hujjatlarni klassifikatsiya qilishda yordam so'rab O'zbekiston Markaziy arxiv ishi boshqarmasiga murojaat qiladi. Qiyinchiliklarni hisobga olib, shuningdek, maxsus mutaxassislar – fors tilini biluvchilar, sharqshunoslarni jalb etish va ajratish ishlarini amalga oshirmasdan arxiv hujjatlarini Toshkentga olib kelish murakkabligini hisobga olib, 1932-yil 22 avgustda O'zbekiston Markaziy Arxiv ishi boshqarmasi muzey ma'muriyati bilan maxsus bitim tuzdilar va unga o'z arxiv hujjatlarini tartibga keltirish uchun 4000 rubl ajratishdi. Imzolangan shartnomaning 6-punkti bo'yicha muzey bir yil ichida o'z ishini yakunlashini va 1933-yilning 1 noyabrigacha arxiv hujjatlarini respublika arxiv boshqarmasiga

topshirishi shart edi.

“Qushbegi arxivi” 1933-yilda Toshkentga – Markaziy Davlat arxiviga olib kelingan. 1964 va 1968-yillarda shu hujjatlarning qisqa ilmiy tavsifi kitob qilingan. Topilgan hujjatlar tartibsiz ahvolda uyum-uyum tarzda saqlanib, ularning bir qismi o‘g‘irlab ketilgan.

Hujjatlarni saralash, ularni terminologik guruhlash va ro‘yxatlashtirish ishlari muzeyning ilmiy xodimlari – Buxoro devonxonasi ishi bilimdonlari qori Axmad Muhammedov va Ibrohim Xalilovlar rahbarligida olib borildi.

Hujjatlarni tizimlashtirishda ular xronologik tamoyillardan voz kechdilar, masalan, amir devonxonasidan chiqqan hujjatlardan tashqari, ko‘plab hujjatlarda sana kunlari yo‘q edi. Shuningdek, hujjatlarni yig‘majildlarga tikmaslikka qaror qilindi, chunki hujjatlar nostandart formatli qog‘ozlarda yozilgan edi. Bundan tashqari, ayrim hujjatlar uzunligi bir-necha metrli o‘ramlarga bog‘langan edi.

Arxiv hujjatlarini tartibga keltirish ishlari 1934-yilning 14 mayida yakunlandi. 77764 ta hujjat hisobga olinib, ular 54 ta mavzudagi hujjatlarga bo‘linib, 268 ta bog‘lam qilib o‘raldi. Har bir hujjatlar bog‘lanmasiga konvert yopishtirilib, ularning har biriga maxsus raqamli yorliqlar qo‘yildi va hujjatlarning soni hamda mazmuni belgilangan formada ko‘rsatildi.

1938-yilda hujjatlarning bir qismi muzeydan O‘zbekiston Markaziy davlat tarix arxiviga berildi. Hujjatlarning qolgan qismi 1959-yilning 10 dekabrda arxivga topshirildi. Arxiv saqloviga hujjatlar topshirilishi bilanoq ularni texnik qayta ishlash va ilmiy ro‘yxatlashtirish ishlari olib borildi. O‘zSSR Markaziy davlat tarix arxivida bu hujjatlardan foydalanishda quyidagi muammolarga duch kelindi:

– birinchidan, yuqorida ta’kidlanganidek, muzeyda bitta saqlov birligi uchun alohida bir hujjat emas, balki o‘ramlarga bog‘langan ko‘plab hujjatlar olingan edi;

– ikkinchidan, hujjatlarning bir bog‘lam qilib o‘ralganligi mavzuli savollar bilan bog‘liq axborotlarni izlashni qiyinlashtirar edi.

Masalan, tadqiqotchini rus-buxoro munosabatlari qiziqтира, u barcha bog‘langan hujjatlarni ko‘rib chiqishi kerak bo‘lgan.

Sharqshunoslar tomonidan o‘tkazilgan ko‘plab ilmiy muhokamalardan so‘ng, 1955-yilning may oyida O‘zbekiston Bosh arxivi qoshidagi ilmiy kengash majlisida har bir hujjatga annotasiya tuzish va keyinchalik, birmavzugataalluqli hujjatlarni guruhlab, yig‘majildlarni shakllantirishga qaror qilindi. 1967-yilning yozida O‘zbekiston Markaziy davlat arxivi xodimlari K.Ubaydullayev va A.Babayanslar tomonidan “Buxoro amiri Qushbegi arxivi” katalog fondini tuzish ishlari yakunlandi va bu ish tarix fanlari doktori M.Abduraimov tomonidan yuqori baholandi. Ikki yildan so‘ng fondlarning aniq ro‘yxati (opis) tuzildi. 1988-yilning aprelida arxiv fondi – eng nodir fond deb, tan olindi. Bugungi kunda fondda Buxoro amirligining XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari tarixini yorituvchi 9,5 mingga yaqin yig‘majild to‘plangan.

**Xiva xonligi arxivi.** Ma‘lumki, XIX asr ikkinchi yarmi O‘rta Osiyo xalqlari taqdirida keskin va fojeali burilish yasagan davri bo‘ldi. 1873-yilda Rossiya imperiyasining Xiva xonligi ustidan protektorati o‘rnatilib, xonlik va xonning faoliyati ustidan nazorat qiluvchi imperiya ma‘muriyati Kengashi (Devon) joriy qilindi. Kengash a‘zolari 7 kishidan tashkil topib, ulardan to‘rt kishi Rossiya ma‘muriyati vakillari, uch tasi esa – Xiva xonligi (xonning o‘zi, devonbegi va mehtar)dan iborat edi. Devonning raisi xon hisoblangan. U tomonidan qabul qilinadigan muhim qarorlar Turkiston general-gubernatori tomonidan albatta tasdiqlanishi shart edi. Xiva xonligini ikkita mustaqil ma‘muriy birliklarga bo‘linishi natijasida– devon tizimi bekor qilindi.

1886-yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra Amudaryo bo‘limi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilib, viloyat harbiy gubernatori boshqarmasiga bo‘ysunadigan bo‘ldi. U fuqaroviy boshqaruv bo‘yicha kengaytirilgan uyezd boshlig‘i huquq va majburiyatlaridan foydalanib, mahalliy ma‘muriyat va xalq sudiga amaldorlarni tayinlashi hamda o‘z vazifasidan ozod qili-

shu mumkin edi. Bo'lim boshlig'i huzurida uning yordamchisi va mahkama faoliyat ko'rsatgan.

Ma'lumki, rus-xiva shartnomasi (1873-y.) xonlikdagi ma'muriy-davlat tuzilishini o'z holicha saqlab qoldi. O'ziga qoldirilgan hudud-da Xiva xoni xuddi Buxoro amiri singari xonlikning ichida cheklanmagan hokimiyatni saqlab qolgan edi. Xonlik saroyida xuddi Buxoro amirligidagi vazifalarni bajaruvchi bir guruh amaldorlar lavozimlari mavjud edi. U yoki bu amaldorning hokimiyat tizimidagi mavqei va darajasi uning xonga yaqinligi bilan belgilangan. Shaxsan xonning o'zining farmoni bilan saroydagi turli davlat lavozimlari taqsimlanib, ko'p hollarda bu lavozimlar avlodan-avlodga meros bo'lib qolar edi.

XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligida qushbegi lavozimidagi shaxs xonning topshirig'iga ko'ra xonlikning janubiy qismidagi aholisini boshqarar edi. Undan so'ng – mehtar lavozimi bo'lib, mehtariga xonlikning shimoliy qismidagi o'troq aholi bo'ysungan. Chin inoq lavozimi ilgarilari xondan keyingi o'rinda turuvchi lavozim hisoblansa-da, huddi Buxorodagi chin otaliq mansabi bu davrga kelib o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. Ularning har birining huzurida ularga tobe amaldorlar va mahkama bo'lib, u yerda davlat ahamiyatiga molik muhim hujjatlar to'plangan. Shuningdek, xon huzurida ham huddi Buxorodagidek – devonbegi, parvonachi, shotir, kitob-bardor lavozimlari bo'lib, ular faoliyati o'z-o'zidan ish yuritish va hujjatlarni saqlash bilan uzviy bog'liq edi.

O'zR MDAda saqlanayotgan Xiva xonlari arxiv hujjatlarida xonlikdagi arxiv ishi va ish yuritish tartiblari yoritilgan. Xiva xonligi arxivi hujjatlarini butlash tarixiga ruslar katta e'tibor qaratishgan. 1864-1865-yillarda Rossiya harbiylarining Toshkentga qilgan yurishidan farqli o'laroq, Xiva xonligini zabt etishda harbiy qo'shinlar bilan birgalikda harbiy-topografik va madaniy-tarixiy mu'lumotlar to'plovchi olimlar guruhi ham safarbar etilgan. Bu holat bosib olingan hududlarga nisbatan Rossiya imperiyasi hukumatining va ilmiy jamiyat vakillarining o'ziga xos qiziqishini ortib borishi bilan bog'liqdir.

Masalan, rus geografik jamiyati tomonidan o'lkani tadqiq etish yuzasidan "Xiva xonligi geografik, etnografik va madaniy-tarixiy munosabatlarini o'rganish bo'yicha" loyiha ishlab chiqildi.

Loyihaning alohida bo'limlari tarixiy geografiya va yozma manbalarni to'plashga yo'naltirilgan edi. Unda qanday sharoitlarda va kimlardan (bozorlar va kitob rastalaridan, mansabdor shaxslardan) xonlikdagi sharq qo'lyozmalarini fan manfaatlariga o'zlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar ham qo'shilgan. O'z o'rnida loyihada rasmiy hujjatlarni to'plashga katta e'tibor berish alohida ta'kidlangan. Loyihaning IV bo'limida quyidagilar ta'kidlangan: "hujjatlar nafaqat rasmiy shaxslarga tegishli binolardan, balki o'zlari yoki ota-onalari yuqori mansabda ishlamagan oddiy fuqarolarning uylaridan ham topilishi mumkin. Ularning uylarida faxriy yorliqlarni, shartnoma yoki ularning nusxalarini uchratish mumkin. Oqsoqollar tomonidan soliqlar yig'imi hisoboti olib borilgan... Shunga o'xshash barcha qog'ozlar ilmiy qiziqish kasb etadi".

Ushbu loyihani amalga oshirishda Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanning buyrug'iga binoan Xiva yurishida faxriy maslahatchi va sharqshunos – A.L.Kun ham ishtirok etgan.

1873-yilning 5 oktyabrida A.Kun Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga xat yo'llab, ishi yuzasidan quyidagilar to'planganini ma'lum qildi: 1) Xonlik to'g'risidagi etnografik-statistik materiallar; 2) xon saroyidan sharq qo'lyozmalari, tangalar va hujjatli materiallarni konfiskatsiya qilinganligi; 3) kumushdan yasalgan ayollar taqinchoqlarining bir qismi – sotib olish yo'li bilan, bir qismi – mulkning kontributsiyasidan to'planganligini; turkman va turkman ayoliga tegishli ikkita manekenlarga mo'ljallangan kostyumlar; 4) Xiva xonlari taxtini musodara qilinganligi; 5) tangalarni zarb qilish uchun Xiva xonlari tomonidan qo'llanilgan muhrlar; 6) ko'xna Urganchdan keltirilgan Xiva xonlari muhrlari va sharq qo'lyozmalarining bir qismi, shuningdek xonning taxti – Osiyo muzeyiga jo'natilgan bo'lsa, kitoblar, hujjatlar, kumush buyumlar, kiyimlar, qadimgi tangalar va muhrlar Imperatorning oilaviy kutubxonasiga topshirilgan.

A.Kunning ma'lumotlariga ko'ra, Xiva xoni saroyi egallanganligining ikkinchi kunida turli xil mazmundagi 300 ga yaqin qo'lyozmalar konfiskatsiya qilingan. Ulardan 129 tasi–140 jildli tarixiy to'plamlar, yigirmaga yaqin sharq shoirlarining 30 jildli asarlari, 40 ta huquqiy-diniy 50 jildli to'plamlar, shuningdek, Qur'onning 18 nusxasi va 50 ta o'quv qo'llanmalardan iborat edi.

A.Kunning fikricha, bu qo'lyozmalar orasida xon saroyi yilnomachisi vazifasida ishlagan Yunus Mirobning "Xiva xonlari tarixi" asari qimmatli manbalardan biri hisoblangan. Asarda qo'ng'irotlar sulolasining asoschisi Eltuzarxon davridan to Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar hukmronlik qilgan xonlar tarixi yoritilgan. Davlatda mavjud bo'lgan urf-odatlar bo'yicha bu asar rasmiy yilnomachilar tomonidan avloddan-avlodga merosiy asar qilib qoldirilgan.

Xiva yurishi vaqtida turli xil mazmundagi quyidagi arxiv hujjatlari to'plangan: 1) moliyaviy ishlarga (xonlikdagi kirim va chiqimlar-muallif) oid hujjatlar; 2) mulk va vaqf yerlari to'g'risidagi hujjatlar; 3) xizmat xatlari (turli xil diplomatik yozishmalar va iltimosnomalar) va h.k. Birinchi guruhda soliq yig'implari haqidagi qaydnoma jurnallar (salg'uta) to'plangan. Ikkinchisi – devonbegi Matmurodning xonlik xarajatlari to'g'risidagi hisobotlaridan tashkil topgan. Uchinchisiga, Buxoro, Qazali, Konstantinopol va boshqa shaharlarda yashovchi Xiva savdogarlarining xonga yozgan iltimosnomalari; yer to'g'risidagi bahsnizolarni hal qilib berish to'g'risidagi so'rovnomalar, yer-joy olish to'g'risidagi arznomalar kirgan. Diplomatik yozishmalar orasida quyidagi hujjatlar aniqlandi: Ost-Indiya general-gubernatori Nors Brunning xati; turk sultonining xat va farmonlari; rus elchisi va generali Danilevskiy va Xiva xoni o'rtasida imzolangan shartnoma; Turkiston general-gubernatori bilan olib borilgan turli xil maktublar va h.k.

A.Kunyuqorida to'plangan arxiv materiallarini tahlil qilib, ulardagi ma'lumotlarni to'liq bo'lmaganligi omillarini ham ko'rsatib o'tdi. Birinchisi – Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakatlari va yuzaga kelgan siyosiy voqealar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – O'rta Osiyo xonliklarida yozma manbalarni saqlovini yo'lga

qo'yilmaganligi hamda davlat arxivlari yoki shunga o'xshash arxiv saqlovxonalarining yo'qligida edi.

Biroq, A.Kun tomonidan to'plangan sharq qo'lyozmalarini, shuningdek, ular orasidagi Xiva xonlari kitoblarining o'z manziliga yetkazish taqdiri fojiali bo'lgan. N.P.Ostroumovning kundalik xotiralarida ta'kidlanishicha, 1891-yilning 5 sentabrida u Xiva xonining bosh kotibi Polvon Mirza boshi bilan uchrashganda, Polvon Mirza boshi unga quyidagilarni ma'lum qilgan: "Kun Xivadan 1500 ta turli xil qo'lyozmalarni olib ketgan, biroq bu qo'lyozmalarni qayiqda olib ketishi mobaynida ularning ko'pchilik qismi suvdan nam bo'lib qoladi. Nam bo'lib qolgan hujjatlarni quritish uchun 150 ta mulla madrasadan chaqirilgan. Yordamga chaqirilgan mullalar tomonidan ayrim qo'lyozmalar yashirib qolingan va bu qo'lyozmalarni keyinchalik u Buxoroda ko'rgan".

Umuman, Xiva xonlari arxivi asosan qushbegi mahkamasi, devonbegi va mehtar hujjatlaridan tashkil topgan edi. 1948-yilning iyulida Xorazm viloyat davlat arxiv fondida to'plangan "Xiva xoni devonxonasi"ning 1874-1917-yillardagi voqealarni aks ettiruvchi 98 saqlov birligidagi hujjatli materiallari O'zR MDAGA qabul qilindi. Bu hujjatlar Amudaryo bo'limi boshlig'i va Xiva xoni mahkamasi o'rtasida soliq yig'implari, jinoiy va fuqaroviy ishlar to'g'risidagi hamda boshqa hujjatlardan iborat edi. Bir yildan so'ng fondga Qoraqalpog'istondan keltirilgan qozilik va vaqf hujjatlari, mahalliy xalqning xonga murojaatlari, devonxonaning soliq tushumlari haqida ma'lumot beruvchi daftarlari, alohida yer egalari qaramog'idagi yerlar va sug'orish kanallarida tozalashga qatnashgan ishchilar haqidagi statistik ma'lumotlar ham topshirildi.

1960-yilda respublika arxiv boshqarmasi xodimi S. Davletshina va Xorazm viloyati davlat arxivi xodimlari tashabbusi bilan mahalliy aholidan Xiva xonlari arxiv hujjatlarini to'plash bo'yicha ekspeditsiya tuzildi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 1961-yilning iyunida Xiva aholisidan 111 ta hujjat sotib olindi va 120 ta hujjatlar bepul qabul qilindi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston aholisidan 15 ta hujjat bepul va 35 ta hujjat sotib olindi.



1962 yilda O‘zR MDA fondi M.E.Saltikov-Shedrin nomidagi davlat ommaviy kutubxonasi (sobiq Imperator ommaviy kutubxonasi, hozirda esa – Rossiya Milliy kutubxonasi)dan berilgan 10158 ta varaqdan iborat hujjatlar bilan to‘ldirildi. Keyingi yillarda yuqoridagi arxiv hujjatlari qaytadan ta‘mirlanib, ularning opis ro‘yxatlari va yig‘majildlari tuzildi. 1988-yilning 20 aprelida fond-nodir hujjatlar fondi deb tan olindi. Bugungi kunda fondda 1269 saqlov birligidagi hujjatlar saqlanmoqda.

**Tadqiq etayotgan davrimiz bo‘yicha – Qo‘qon xonligi** ma‘muriy boshqaruv tizimida amaldorlar asosan ikki kategoriyaga bo‘lingan: “umaro” – “dunyoviy” ishlarga mas‘ul mansabdor va “ulamo” – diniy amaldorlar. Avvalida, xonlik boshqaruv iyerarxiyasi Buxoro amirligidagi ma‘muriy boshqaruv andozasida qurilgan edi. Keyinchalik, xonlikdagi ma‘muriy-davlat institutlarining vujudga kelishi natijasida boshqaruv tizimida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu jumladan, qushbegi mansabi – xonlikning Bosh vaziri lavozimi – Mingboshiga beriladi. Mingboshi xonlikdagi oliy mansabdor bo‘lib, u xonlikdagi butun ichki ishlarni boshqargan va bir vaqtning o‘zida tashqi siyosatda xonning asosiy maslahatchisi ham hisoblangan.

Xonlikdagi ish yuritish devonbegiga yuklatilib, u xonning devonxonasiga mas‘ul edi. XIX asrning 50-60 yillariga kelib, bu lavozim mirzaboshi ixtiyoriga o‘tadi. Devonbegiga mirzadan quyi lavozimlarda turuvchi barcha amaldorlar apparati bo‘ysungan. Devonbegi nafaqat boshqaruv, oliq-soliq, moliya ishlari, balki harbiy masalalar, chunonchi, harbiy yurishlarga bosh bo‘lish, askarlarga nafaqa va mukofot tayinlash, dushman bilan muzokara olib borish, sulh tuzish, xazinaga vaqf yeridan tushadigan soliqlar hisobi, mahalliy xalqdan xonga taqdim etiladigan turli xil sovg‘alar kabilarga ham daxldor bo‘lgan. A.L.Troiskyaning ma‘lumotlariga ko‘ra, daftardagi hisobot pattadan ko‘chirilgan. Patta xon devonxonasidan qishloq ma‘muriyati va aholisiga yerdan olinadigan soliqlar haqidagi ma‘lumotnoma sifatida jo‘natilgan. Bu pattalar soliq yig‘uvchilarga jo‘natilgan va ular tomonidan saqlanib, ba‘zan ma‘lumotlar tasdiqlovchi hujjat sifatida daftarga yopishtirib qo‘yilgan.

Yer uchastkalari to'g'risidagi yozishmalar o'zgacha ahamiyat kasb etgan. Ular har uch yilda xon tomonidan maxsus tayinlanadigan "komissiya" tomonidan tuzilgan, ularning boshida muftiy va a'lamlar turgan. Soliq ro'yxatini komissiya bilan yuruvchi kotib tuzib, bu ma'lumotlarning haqiqiylikini muftiy va a'lamlar tasdiqlashib, ma'lumotlarning oxiriga o'z muhrlarini qo'yishgan. Ma'lumotda yer egalari nomi va ularning ismlari va ulardagi uchastkalarining hajmi ko'rsatilgan. Daftarlari o'rama shaklidagi uzun varaqlardan iborat bo'lgan. Bu varaqlar bir-biriga yelimlanib ulangan. Masalan, bitta daftar 20 ta va undan ortiq bo'laklardan iborat varaqlardan tashkil topgan.

Xon devonxonasida bundan tashqari, turli xil xabarlar, topshiriqlar va farmonlar, xatlar ham to'planib, ular har bir masalaga oid alohida guruhlariga ajratilib, ustma-ust qo'yilib, ustun shaklida taxlab qo'yilgan. O'rta Osiyo xonliklaridagi kabi Xiva xonligida ham xonning nomiga jo'natiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishda matnga hujjat egasining ismi ko'rsatilgan. XIX asrning 60 yillarida hujjatlar ikki xil qog'oz naviga: rus va mahalliy Qo'qon qog'ozlariga yozilgan. Xon va beklar topshiriqlari, maosh yorliqlari va g'aznachilarga beriladigan ko'rsatmalar uchun rus qog'ozidan, qolgan hollarda mahalliy qog'ozdan foydalanishgan.

Xiva xonligi devonxonasi hujjatlarini birinchilardan bo'lib o'rgangan Yettisuv viloyati o'quv yurtlari boshlig'i N.Pantusov quyidagilarni qayd etadi: "ruslar tomonidan Qo'qon shahri zabt etilganda, xon saroyidan qipchoqlar tomonidan o'g'irlangan va talangan saroydan arxiv hujjatlarining qoldiqlari topilgan. Bu arxiv hujjatlari "bog'lam" shaklida bo'lib, ularda xonlikning turli hududlariga oid soliq yig'imi, tanob o'lchamlari, zakot va boshqa yig'imlarning yig'ib olinishi haqidagi ma'lumotlar ifodalangan. Arxivdagi daftarlari soni mingga yaqin nusxada bo'lgan, ularning eskilari 10 yil oldin tuzilgan edi. Barcha daftarlari qipchoqlarning saroydagi talon-tarojligi natijasida bir-biriga aralashtirib yuborilgan. Ayrim daftarlarning boshlanish qismi, ayrimlarini yakuniy qismi yo'q edi. So'nggi yillarga taalluqli hujjatlar xon saroyining amaldor-

lari tomonidan ongli tarzda o'g'irlangan yoki yo'qotilgan. Arxiv hujjatlarida o'lkani tashkillashtirilishi, aholining statistikasi, armiyasi, turli xil soliq yig'implari va yer uchastkalari haqida muhim ma'lumotlar yoritilgan va h.k.". Uning yozishicha, harbiy yurishlar natijasida quyidagi muammos-mohiyatga ega hujjatlar to'plangan: 1) xonlikdagi yerlarning o'lchami va hisobi to'g'risidagi; 2) soliq yig'implaridan ozod qilingan mansabdor shaxslar to'g'risidagi; 3) soliq to'lamaydigan imtiyozdagi diniy qatlam vakillari soni; 4) qo'shimcha olinadigan tanob va xiroj, soliqlar haqida; 5) xonlik armiyasi hisobi to'g'risida; 6) armiyaga ketadigan xarajatlar haqida; 7) mahsulot tarzida olinadigan xiroj yig'implari to'g'risida; 8) ekinlardan olinadigan xiroj yig'implari (paxta, bug'doy, tamaki va boshqalar) haqida; 9) xon saroyida va uning qarindoshlarinikida amalga oshirilgan qurilish xarajatlari to'g'risida; 10) qurol-yarog' yasashga ketgan xarajatlar haqidagi; 11) chorva mollaridan olinadigan zakot hisobi; 12) paxtadan olinadigan xiroj kamomadi to'g'risidagi; 13) tanob solig'i yig'implari to'g'risidagi; 14) u yoki bu yerlarga egalik huquqini beruvchi hujjatlar; 15) harbiy dezertirlar soni haqidagi; 16) xon saroyiga kelib tushgan sovg'alar hisoboti; 17) vaqf mulklari haqidagi; 18) Qo'qon tumanlaridagi aholidan yig'iladigan nikohona va boshqa soliq yig'implari to'g'risidagi ma'lumotlar va h.k. Oxirgi hujjatlar aholining statistikasi va nikoh masalalariga doir materiallarni o'zida mujassamlashtirgan edi.

Xuddi Xiva xonlari hujjatlari kabi, Qo'qon xoni devonxonasi hujjatlari ham o'lkani Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi davrida konfiskatsiya qilindi. Arxiv hujjatlarini to'plash va Rossiyaga olib ketish ishlarida A.Kun ham ishtirok etgan. Unga ilmiy kollektor va sharq qo'lyozmalari bilimdoni sifatida K.P.Kaufman tomonidan Qo'qon xonligi istilosi davrida faoliyat ko'rsatgan bosh qo'mondonlikning shtab kvartirasida ishtirok etishga ruxsat berilgan.

Sharq qo'lyozmalarini va hujjatlarni to'plash ishlari xonlik bosib olinganidan so'ng ham davom etdi. Masalan, 1876-yilning 5 fevralida K.P. Kaufman Peterburgdan turib, o'sha vaqtlarda Turkiston o'lka-

sini boshlig'i va general-gubernatori vazifasini vaqtinchalik bajarib turuvchi general-leytenant G. Kolpakovskiy (1819-1896-y.) nomiga telegramma jo'natib, unda zudlik bilan Qo'qon, Marg'ilon, Andijondagi sharq qo'lyozmalarini, ya'ni daftarlarni bir joyga to'plashni topshiradi. O'z navbatida G.Kalpakovskiy bu topshiriqni Farg'ona viloyati harbiy gubernatori M.D.Skobelevga topshiradi. Natijada huquqshunoslik, qonunchilik, meditsina, geografiya va boshqa sohalarga oid qimmatli ma'lumotlar to'planib, avvalida Toshkentdagi ommaviy kutubxonaga topshiriladi. Keyinchalik, 1876-yilning noyabrda K.P.Kaufmannning topshirig'i bo'yicha sharqshunos A. Kun tomonidan Qo'qon xonlari arxiv hujjatlari va sharq qo'lyozmalari – Peterburgdagi Imperator ommaviy kutubxonasiga topshiriladi.

Peterburgga jo'natilgan Qo'qon xonlari arxivi xuddi Xiva xonlari arxivi kabi 80 yil mobaynida tadqiqotchilarga noma'lumligicha qolgan. Kutubxonada bu hujjatlar qoplarda, pochta qutilarida yoki o'ralgan holda ya'ni qanday holda keltirilgan bo'lsa, o'sha holatda saqlangan. 1939-yilda Sankt-Peterburgda tadqiqot olib borayotgan sharqshunos olim P.P.Ivanov tojik tilida yozilgan juda ko'plab hujjatlarni aniqlaydi. Keyinchalik bu arxiv hujjatlari Qo'qon va Xiva xonlari arxivlari ekanligi ta'kidlandi. Keyinchalik, bu ma'lumotlarni yuqoridagi kutubxona fondlarida tadqiqot olib borgan M.Yu.Yuldashev ham Qo'qon va Xiva xonlari arxiv hujjatlari ekanligini tasdiqlaydi.

1952-yilda bu arxiv hujjatlari ustida to'laqonli ilmiy-texnik ishlar amalga oshirildi. Bu hujjatlarning asosiy qismi Xudoyorxonning (1866-76-yy.) uchinchi hukmronlik qilish davrini yorituvchi hujjatlar edi. Barcha hujjatlar bir-biri bilan aralastirib yuborilgan, faqat ayrim yaxshi bog'langan va muhrlanib obdon o'ralgan hujjatlargina bundan mustasno edi. Hujjatlarning ko'pchilik qismi yirtilgan va buklangan holatda igna o'tkazib tikilgan. Bu xonlikdagi arxiv hujjatlarini saqlash usullaridan hisoblangan. Arxiv hujjatlari ikki yil davomida tozalanib, qayta ta'mirlangach arxiv hujjatlari t.f.d. A.L.Troiskaya rahbarligida ro'yxatga olinib, tizimlashtiriladi. 1962-

yilning 3 avgustida Qo‘qon xonlari arxividagi 3800 saqlov birligi-dagi 5026 varaqdan iborat va 151 bog‘lam qilib o‘ralgan hujjatlar Sankt-Peterburg kutubxonasidan O‘zR MDAGA topshirildi. Bugungi kunda O‘zR MDA fondlarida saqlanayotgan Qo‘qon xonlari arxivi nodir fondlar qatoriga kiritilgan.

O‘rta Osiyo diplomatiyasi rivojlanish tarixini o‘rgangan tadqiqotchi B. Kazakovning fikricha, har bir hujjat axborotni joylashuvi qoidasi bo‘yicha, e‘tibor bilan aniq normalar asosida tuzilganligi qayd etiladi.

O‘rta Osiyo xonliklarida ish yuritish va hujjatlar saqlanishi tahlilidan kelib chiqib, xonliklardagi o‘zaro tarqoqlikka zaiflashgan hamda markazlashmagan hokimiyat tizimiga qaramasdan, xonliklar markaziy hokimiyat bilan viloyat va tumanlar o‘rtasida o‘zaro aloqa xizmati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hujjatshunoslikning quyidagi ikki shakli mavjud bo‘lgan:

– ichki markaziy boshqaruv tizimida faqat mansabdor shaxslar qatnashishi mumkin bo‘lgan;

– hukmdorlar va mahalliy aholi o‘rtasida turli xil ko‘rinishda axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Boshqaruv institutlari rahbarlari olib boradigan aloqalar ikki tomonlama ko‘rinishda edi: to‘g‘ridan to‘g‘ri, bunda axborot almashuvi tashabbusi hokimiyatning yuqori pog‘onadagi oliy tabaqalaridan quyi tabaqaga yo‘naltirilgan va aksincha bu holat takrorlanar edi. Boshqaruvning yuqori idoralari tomonidan o‘ziga tobe idoralarga buyruq va ko‘rsatmalar jo‘natilib, quyi pog‘onadagi amaldorlar bu farmon va ko‘rsatmalarning bajarilish to‘g‘risida yuqoriga hisobot berib turgan. Uchta xonlikdagi ish yuritishni tashkillashtirilishi bir-biriga o‘xshash edi. O‘z o‘rnida o‘rta asrlardagi sharq hukmdorlari saroyida qo‘llanilgan hujjatshunoslik va ish yuritish usullaridan ham ma‘lum darajada foydalanilgan. O‘z o‘rnida, xonliklarda ham alohida bir amaldor davlatdagi bir necha mansablar funksiyasini bajar-gan. Masalan, qushbegi, devonbegi, parvonachi lavozimidagi shaxs-lar ham fuqaroviy, shuningdek, harbiy ishga taalluqli vazifalarni ham ado etishgan.

Hujjatlarni to'plash va saqlashning o'ziga xos xususiyatlari O'rta Osiyo xonliklaridagi poytaxt shaharlarida, xonga yaqin boshqaruv tizimida (qushbegi, devonbegi, yasovul boshi yoki qozilarning mahkamalarida-muallif) va mahalliy hokimlar mahkamalari qoshida amalga oshirilgan. hujjatlarni saqlash joyi sifatida – gohida davlat g'aznasi, gohida hukumat yoki shaxsiy kutubxonalar xizmat qilgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Buxoro amiri Qushbegi arxivida qanday mazmundagi hujjatlar mavjud?
2. Xiva xoni arxivi qachon va qayerga olib ketilgan?
3. Qo'qon xoni arxivi taqdiri haqida so'zlab bering?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошкандий. Ансаб ас-салотин ва таварих-ал-хаванин. С.Юлдашева таржимаси. –Т., 2007.
2. Соловьева О.А. Лики власти Благородной Бухары. – Санкт-Петербург, 2002.
3. Вамбери Армений. Путешествие по Средней Азии / Перевод З. Д.Голубевой. –М.: Восточная литература РАН, 2003.
4. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. –СПб., 1843.
5. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. –М-Л., 1948. -№ V.
6. Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане (1874-1889 гг.) – СПб., 1889.
7. Абдураимов М.А. Кошбеги, а не кушбеги. К истории установления власти кошбеги в Бухарском ханстве.// Общественные науки в Узбекистане. –Т., 1974. -№ 11.

8. ЎзР МДА, Р-400-жамгарма, 1-рўйхат, 442-йиғмажилд, 6-варақ.
9. О'z R MDA, R-400-jamg'arma, 1-ro'yxat, 515a-yig'majild, 5-6 varaqlar.
10. О'z R MDA, R-400-jamg'arma, 1-ro'yxat, 515a-yig'majild, 11-12 varaqlar.
11. О'z R MDA, R-2514-jamg'arma, 1-ro'yxat, 15-yig'majild, 1-10 varaqlar.
12. Lunin B.V. Srednyaya Aziya v dorevolutsionnom i sovetskom vostokovedenii. –Т.: Nauka, 1965.
13. О'zR MDA, I-1-jamg'arma, 20-ro'yxat, 6785-yig'majild, 2-2 varaqning orqasi; Kun A. Opisanie pechatey xivinskix xanov. // Turkestanskije vedomosti, 1873 y. №40; nauchno'e raboto' vo vremya Xivinskogo poxoda. // Turkestanskije vedomosti, 1873 y. №50.
14. О'zR MDA, I-1-jamg'arma, 20-ro'yxat, 6785-yig'majild, 7-varaq.
15. Махмудов Ш.Ю. Система административного управления в Кокандском ханстве (1709-1876 гг.). Автореф. дисс... канд.ист.наук. – Т.: Инст. истории АН РУз, 2007.
16. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.

## 5-MAVZU. ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA TURKISTONDA ARXIV ISHI

---

### Reja:

1. Mustamlakachilik davrida Turkiston arxivlari tizimi.
2. Rossiya imperiyasining Turkistonda idoraviy arxiv hujjatlarini saqlash borasida amalga oshirgan siyosati.
3. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxivi.

### **Mustamlakachilik davrida Turkiston arxivlari tizimi.**

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida vatanimiz arxiv tarixi chuqurildizlarga ega ekanligi ayon bo'ldi. Ma'lumki, arxiv tashkilotlarining vujudga kelishida yozuvning paydo bo'lishi va jamiyatning axborot saqlanishiga bo'lgan ehtiyoji muhim omillardan bo'lib, jamiyat va davlat axborotdan o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-maorif sohasidagi vazifalarni hal etishda foydalanar edi. Hujjat yuritish va saqlash tahlili shuni ko'rsatdiki, O'rta Osiyo xonliklarida arxiv vazifasini hukmdorlarning xazinasi yoki kutubxonalari bajarib, ularda quyidagi turli xil hujjatlar to'plangan: yozishmalar, farmonlar, faxriy yorliqlar, guvohnomalar, nikoh ahdnomalari, sud qarorlari va h.k. O'z-o'zidan bu hujjatlarning saqlanishiga u yoki bu idoradagi mas'ul shaxslar javobgar bo'lishgan.

O'rta Osiyoda maxsus alohida arxivlarni va arxiv tashkilotlarini tashkil qilish g'oyasi faqat XIX asr oxirlarida shakllana boshladi. Bu Rossiya imperiyasining o'z mustamlakalarida amalga oshirayotgan ma'muriy islohotlari bilan bog'liq edi.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatgach, Toshkent shahri – Turkiston general – gubernatorligining ma'muriy va siyosiy markazi sifatida tanlandi. Yuqoridagi omillar bilan bog'liq holda Toshkentda bir qator davlat va harbiy muassasalar tuzilib, ularda o'lka tarixini o'rganishga oid muhim ish-



– yuritish hujjatlari to‘planib bordi. Shu boisdan hujjatlarni idoraviy arxivlarda saqlashni tashkillashtirishga ehtiyoj sezildi.

Turkiston o‘lkasi tarixini o‘rganish va strategik maqsadlar imperiya hukumatini idoralarda hujjatlarni saqlovi holatiga e‘tibor berishga majbur qilar edi. Bu holat haqida 1873-yilning 30 noyabrda Turkiston general-gubernatori vazifasini vaqtincha bajarib turuvchi general-leytenant G.Kolpakovskiy Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga quyidagilarni ma‘lum qiladi: “Toshkent shahrida joylashgan Turkiston o‘lkasi markaziy boshqarmasi ish yuritish hujjatlari o‘lka tarixi va statistikasi bo‘yicha muhim manbalar hisoblanib, o‘lkani tadqiq etishda qimmatli ma‘lumotlar beradi. Biroq, bu hujjatlar o‘ziga tegishli har bir idorada saqlanib, o‘lkani tadqiq etishda tadqiqotchilarning diqqat markazidan chetda qolib ketmoqda. Yuqoridagi hujjatlar to‘g‘risida ko‘pchilik tadqiqotchilar hattoki axborotga ham ega emas. Qachonki, bu hujjatlar bir joyga markazlashtirilsa hamda ular ustidan nazorat ishlari yo‘lga qo‘yilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu hujjatli materiallar guruhlariga tizimlashtirilib, u yoki bu muammoga qaratilgan taqdirdagina hujjatlardan unumli foydalanish mumkin. Ish yuritishni shu holatga keltirish maqsadida o‘lkaning Bosh boshlig‘i tomonidan Toshkentda o‘lka Bosh boshqarmasi qoshida Markaziy arxiv tashkil qilish va unda barcha yuqori boshqaruv idoralarning hujjatlarini to‘plash to‘g‘risida qaror qilindi”.

O‘sha vaqtda metropoliyaning poytaxtdagi va viloyatlarda faoliyat olib borayotgan juda ko‘p sonli professorlari, ilmiy va ommaviy jamiyatlar xodimlari, Turkiston tarixiga qiziquvchi tarixshunoslar hukumat va jamiyatning diqqat e‘tiborini arxivlarga qaratishga chorlashdi. Bu holatga hamma jamoatchilikni diqqatini tortishda, arxivlarni tashkil qilish masalalarida – Moskva arxeologlar jamiyati va ular tomonidan tashkil qilingan arxeologik syezdlar alohida ahamiyat kasb etdi. Masalan, mashhur olim – arxivshunos N.V. Kalachovning tashabbusi bilan 1869-yildagi arxeologlarning I syezdi majlisining kun tartibiga arxiv hujjatlari bilan bog‘liq masalalar,

arxivlarni xususiy, umumjamoatchilik yoki hukumat arxivlariga bo'lish, hujjatlarni saralash, qabul qilish va yo'qotish qoidalari, hujjatlar klassifikatsiyasi, ular saqlovini ta'minlash, ro'yxat shakli va tadqiqot uchun saralash kabi muammolar kiritildi. O'z o'rnida N.V.Kalachov joriy va tashkil etilishi kerak bo'lgan arxivlarga bu yo'nalishda arxiv ishini qanday tashkillashtirish to'g'risidagi loyihalarini taqdim etdi. Arxiv ishini markazlashtirish g'oyasidan kelib chiqqan holda Bosh arxiv komissiyasi tuzilib, u Rossiya imperiyasi Markaziy arxiv boshqarmasi sifatida barcha tarixiy arxivlar faoliyatini markazlashtirish yuzasidan ish olib bordi. Biroq, o'z navbatida ko'plab hujjatlar poytaxtdagi ya'ni vazirliklar qoshidagi idoraviy hujjatlar tarixiy arxivlarda saqlab qolindi. Shuningdek, 12 ta yirik guberniya shaharlarida o'lka arxiv komissiyasi boshchiligida arxivlar tashkil qilish rejalashtirildi.

**Rossiya imperiyasining Turkistonda idoraviy arxivlarni tashkil etish borasida amalga oshirgan siyosati.** 1873-yilda Adliya vazirligi arxivshunos N.V.Kalachov raisligida turli xil idoralar va-killaridan arxivlarni qurish va tashkil etish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi. Komissiya quyidagi ikkita loyihani ishlab chiqdi: 1) Markaziy Arxiv Boshqarmasi idorasi sifatida Bosh Arxiv komissiyasining nizomi to'g'risida; 2) Arxeologiya institutini yuridik va gumanitar sohadagi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslardan arxivshunoslar tayyorlaydigan Oliy o'quv yurtiga aylantirish to'g'risidagi kabi loyihalar taqdim etildi.

Birinchi loyiha amalga oshmasdan, mahalliy joylarda ya'ni guberniyalarda maxsus arxiv komissiyalari tuzilib, bu komissiya hujjatlarni to'plash, ularni saralash va saqlash hamda alohida guruhlarga ajratish, shuningdek, yo'qotish bo'yicha instruksiyalar ishlab chiqdi. Masalan, 1884-yilning 13 aprelida Rossiya olimlari tomonidan "Arxiv komissiyasini tashkil qilish to'g'risida" nizom qabul qilindi. Nizomga ko'ra, tarixiy ahamiyatga molik va ish yuritishda yakunlangan yig'ma jildlar va hujjatlarni to'plash, saqlash bo'yicha guberniyalarda mahalliy tarixiy arxivlar tashkil qilindi. Yuqoridagi ish-

lar va hujjatlarni to'plash, saqlash hamda tartibga keltirish vazifasi guberniyalarda tashkil qilingan arxiv komissiyalari zimmasiga yuklandi. Komissiya tarkibi Sankt-Peterburgdagi Arxeologiya instituti direktori bilan mahalliy gubernatorning roziligi asosida guberniya boshqaruvi xizmatidagi yoki xizmatda bo'lmagan va o'z bilimi mahorati bilan arxiv ishida yordam bera oladigan xodimlardan tuzilgan. Gubernator to'g'ridan to'g'ri komissiya ta'sischisi hisoblanar edi. Komissiyaning birinchi majlisida uning a'zolari orasidan – rais saylangan.

Arxiv komissiyasi olimlariga tashkilotlar tomonidan yo'qotishga ajratilgan yig'majildlarni saralash, hujjatlarni tarixiy arxivlarga qabul qilish bilan birga ularni tartibga keltirish ishlari hamda arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil qilish, ularni ro'yxatini va yo'lko'rsatkichlarini tuzish kabi vazifalar belgilab berilgan. Bir vaqtning o'zida komissiya arxeologik tadqiqotlar bilan shug'ullanish huquqiga ham ega edi. Arxiv komissiyasi faoliyati to'g'risidagi har yilgi hisobot Arxeologiya instituti direktoriga berilib, u tomondan Impyeratorlik fanlar Akademiyasi uchun yakuniy hisobotga qo'shilgan.

Umuman olganda, arxiv komissiyasining asosiy vazifasiga hujjatlarni to'plash va arxiv ishini tartibga keltirish, hujjatli materiallarni o'g'irlanishini va yo'qolishini oldini olish, arxiv tashkilotlari hujjatlarini ro'yxatini tuzishdan oldin bu hujjatlarni kerak va keraksizlarga ajratish, tarixiy, ilmiy, amaliy ahamiyati borlarini doimiy saqlash, bunday qimmatga ega bo'lmaganlarini yo'q qilish kirgan. Biroq, ularning faoliyati huquqiy jihatdan cheklanib, ularda o'z oldilariga qo'yilgan vazifani to'laqonli amalga oshirish imkoniyati cheklangan edi. Masalan, ularga idoraviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar bilan ishlashga ruxsat berilmagan va faqatgina arxiv komissiyasi arxivlardagi yo'qotilgan, ajratilgan hujjatlari orasidan o'zlariga kerakli hujjatlarni saralab, ajratib olishlari mumkin edi, xolos. O'sha vaqtlarda huddi shunday arxiv tashkiloti Turkistonda hali -hanuz tashkil etilmagan edi. Yuqoridagi omillarga bog'liq holda

Turkiston o'lkasidagi arxiv tashkilotlari 1884-yilning 6 mayida tashkil qilingan Orenburg arxiv komissiyasi rahbarligida o'z faoliyatlarini olib borishgan. Bu komissiya Rossiya Imperiyasi Ichki ishlar vazirligiga bo'ysunar edi. 1887-yilning sentyabrida Orenburg general-gubernatori Maslakovich Orenburg ilmiy okrugi jamiyatiga, diniy seminariya yepiskopi va rektoriga ularni qo'l ostidagi xodimlarni – arxiv komissiyasi faoliyatini tashkil qilishda ishtirok etishlarini iltimos qildi. Ushbu iltimosga Orenburg shahridagi turli xil 25 ta tashkilot vakillari ijobiy javob berishdi. 1887-yilning 9 dekabrda komissiyaning birinchi majlisi bo'lib o'tdi. 1904-yilda Turkistondan komissiya tarkibiga V.A.Vyatkin kiritildi.

Arxivlarni markazlashtirish Rossiya ziyolilari o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Masalan, Kiyevda bo'lib o'tgan 1899-yildagi arxeologlarning XI seyzdida mashhur tarixchi olim, professor D.Ya.Samokvasov tomonidan tuzilgan arxiv islohotlari loyihasi muhokama qilindi. Olim tomonidan islohotni – Bosh arxiv boshqarmasi tuzishdan boshlash taklif qilinib, barcha tashkilotlardagi arxiv ishi bilan bog'liq masalalar uning roziligi asosida amalga oshirilishi shart edi. Markaziy arxiv ishi boshqarmasini zarurligi nafaqat arxivlarni tashkiliy jihatdan qayta tashkil qilish ehtiyojidan, balki vazirliklarda faoliyat ko'rsatayotgan arxivlarda hujjatlarni saqlash va yo'qotish tartib-qoidalarining turlicha bo'lganligi bilan ham bog'liq edi. Shunday qilib, D.Ya.Samokvasov loyihasi N.V.Kalachov g'oyalaridan farq qilib, tarqoq idoraviy arxivlar o'rniga keng tarmoqli davlat arxivlarini tuzishni taqozo etar edi. Biroq, u tomondan arxiv ishini markazlashtirishga urinish va boshqa loyihalarni metropoliyaning yuqori hukumat vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. 1899-yilning 1 aprelida Moskva imperatorlik arxeologiya jamiyati barcha arxivlarga, arxeografik va ilmiy komissiyalarga professor D.Ya.Samokvasovning arxiv ishini isloh qilish loyihasi ma'ruzasi bo'yicha, shuningdek, joylarda arxiv ishini tashkil qilishga oid bir qator masalalarga o'z taqrizlarini berish yuzasidan murojaat qildi. Turkistonda arxiv tashkilotining yo'qligi

munosabati bilan yuqoridagi masalalarni o'zida mujassamlashtirgan xat Toshkentdagi Turkiston havaskor arxeologlari to'garagiga yo'llandi. Bu to'garakning vise-raisi mashhur o'lkashunos va sharqshunos N.P.Ostroumovning ta'kidlashicha, javob berish uchun juda qisqa vaqt qolganligi sababli yuqoridagi xatga javob yo'llanmagan. Bu omillar shundan dalolat beradiki, nafaqat amaldorlar, balki o'lkani o'rganayotgan shaxslar arxiv ishiga bog'liq masalalarga doimo ham jiddiy e'tibor qaratishavermagan.

Arxiv hujjatlarini saqloviga tashkilot rahbarining shaxsiy buyruqlari asosida katta zarar yetkazilib, tarixiy materiallar yo'q qilib yuborilgan. Bu fikrimizni, 1914-yildagi guberniyalardagi arxiv komissiyalari vakillarining I – seydzida Orenburg arxiv komissiyasi vakili A.V.Popov tomonidan "Harbiy idoralar arxivlari to'g'risida" gi ma'ruzasi tasdiqlandi. Uning fikricha, 12 yil mobaynida harbiy tashkilotlar tomonidan yuz minglab yig'majild ajratilgan ularning ko'pchilik qismi O'rta Osiyoni mustamlaka qilinish masalalariga, Xiva va Buxorodagi harbiy ekspeditsiyalarga taalluqli bo'lgan hujjatlar yo'qotib yuborilgan.

1916-yilning yozida Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zosi M.L.Yudin arxiv hujjatlari ishi bo'yicha maxsus komissiyani tashkil qilish yo'llarini akademik V.V.Bartold bilan muhokama qiladi. Turkiston o'lkasi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ilmiy aloqalarni tiklash maqsadida tashrif buyurgan V.V.Bartold tomonidan M.L.Yudinning Turkistonda arxiv komissiyasini tuzish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

1917-yilning 2 martida yuqorida ta'kidlangan masala asosiy muammolardan biri sifatida – majlis kun tartibida muhokama qilindi. M.L.Yudinning "Turkiston havaskor arxeologlari to'garagini arxiv komissiyasiga aylantirish to'g'risida" gi ma'ruzasida Turkiston o'lkasidagi qadimiy yodgorliklarini o'rganishni o'z maqsadlari qilib olgan arxeologlar to'garagi tomonidan arxiv hujjatlarini to'plash va saqlashga e'tibor berilmaganligi ta'kidlandi. Bunday holat, ma'ruza muallifining fikricha, o'n yillardan so'ng tarixiy hujjatlarni umuman

yo'qolib ketishiga va o'lka tarixini yoritish tadqiqotlarida katta muammolarga sabab bo'ladi. M.L.Yudin o'lkadagi arxiv ishi ahvolini bayon qila turib, yong'inlardan, yog'ingarchilik va suv toshqinlaridan, binolardagi zax va namlikdan – №1 komendantlik forti yig'majildlari, Raim va Orol qal'asi yig'majildlari, Sirdaryo liniyasi qo'mondonlik boshqarmasi hujjatlari, shuningdek, Orol flotiliyasi yig'majildlari yo'q qilib yuborilganligini ta'kidlaydi. O'lkadagi arxivlar ahvoriga tanqidiy baho berib, M.L.Yudin o'lkadagi havaskor arxeologlari to'garagini – o'lka yoki viloyat arxiv komissiyasi deb, qayta tashkil qilish taklifini kiritadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Turkistonda arxiv ishini yaxshilash masalasini va "arxiv komissiyasi bilan bog'liq muammolar"ni a'zolari biroz orqaga surishni ma'qul deb, topadilar. Bu voqealar shundan guvohlik beradiki, nafaqat o'lka amaldorlari, shuningdek, Turkiston ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullangan ziyolilar qatlami Turkiston tarixi bo'yicha faol tadqiqotlar olib borishga qaramasdan arxiv ishiga o'z e'tiborlarini qaratishmagan.

**Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxivi.** O'zo'zidan Turkiston o'lkasi ma'muriyati tomonidan o'lkada maxsus arxivni tashkil qilish ishlari olib borilmagan, deyish noto'g'ri bo'ladi. Rossiya imperiyasining o'lkadagi hukmronligi o'rnatilishi zahotiyuq Turkiston ma'muriyatining arxivini tuzish rejalashtirilgan. 1867-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom" ga muvofiq harbiy va xalq boshqaruvida oid barcha hujjatlar ikkita amaldordan iborat – Turkiston general gubernatori mahkamasiga topshirilishi shart edi. Harbiy gubernatorlar tomonidan boshqariladigan viloyat boshqaruvida hujjatlar uchun alohida – devonxona bo'lishi inobatga olinmagan. Arxivlarni tuzish ehtiyojidan kelib chiqqan holda 1873-yilning oktabrida general gubernator K.P.Kaufman Turkiston general gubernatorlik devonxonasi boshlig'iga o'lkadagi arxiv ishini o'rganib, "Toshkent shahrida Markaziy arxivni tashkil qilish loyihasi"ni ishlab chiqish to'g'risida topshiriq beradi. Ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra, Toshkentdagi o'lka

Bosh Boshqarma huzurida Markaziy arxivni tashkil qilib, Toshkent ommaviy kutubxonasini ham arxivga qo'shish rejalashtirilgan. Markaziy arxiv strukturasi to'rtta bo'limdan iborat bo'lishi kerak edi.

Birinchi bo'lim Turkiston general-gubernatori devonxonasi yig'majildlarini saqlash uchun mo'ljallangan edi. Ikkinchi bo'limda viloyatlar boshqarmasi, shahar boshqarmalari, uyezd sudlari va Toshkent yarmarka qo'mitasi hujjatlarini to'plash nazarda tutilgan. Uchinchi bo'limda Turkiston harbiy okrugi shtabi, harbiy okrug kengashi, topografik va boshqa harbiy okrug bo'limlari hujjatli materiallarini to'plash rejalashtirilgan.

To'rtinchi bo'limda Sirdaryo viloyati shtabi, komendantlik boshqarmasi, o'qchi brigada boshqaruvi, gospitallar va boshqa hujjatlar to'planishi shart edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu loyiha bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, mazmun mohiyatiga ko'ra, faqat alohida imperiya idoralarining materiallarini to'plashga qaratilgan edi, xolos.

Loyiha ishlab chiqish bilan bir vaqtda arxiv va kutubxona qurilishi xarajatlariga 15 ming rubl miqdoridagi smeta ham tuzilgan. Shunga qaramasdan, 1873-yilda bino loyihasini tayyorlash ishlari yakunlanmaganligi sababli qurilish ishlari boshlanmagan. Shu bois o'lka ma'muriyati tomonidan barcha harbiy gubernatorlarga va uyezd sudyalariga maxsus xat jo'natiladi. Unda har yili tashkilotlardan saqlash uchun qabul qilinadigan hujjatlar yig'majildi haqida ma'lumotberishlarihaqidaso'raladi. Chunkihujjatliyig'majildlarning hisobidan kelib chiqib, bino maydoni va xonalar sonini aniqlab olish mumkin edi. Bu ma'lumot asosida qurilish yo'l komissiyasi Markaziy arxivning aniq loyihasi va uning qurilishiga ketadigan xarajatlar smetasini tuzishi lozim edi.

Yuqorida so'ralgan hisobotlarni berishga tegishli idoralar turlicha yondashdilar. Birinchilardan bo'lib Turkiston harbiy okrugi shtabi hisobot berdi. 1873-yilning 12 dekabridagi hisobotda shtab boshlig'i ularning uchinchi bo'limiga 3 ta xona ajratishlarini so'rab, murojaat qiladi.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.N.Golovachyov hisoboti 1876-yilning apreliga kelibgina beriladi. Unda gubernator hujjatlarining o‘ta muhim hujjatlar emasligini ta’kidlab, quyidagilarni ma’lum qiladi: “Menga tegishli viloyat va uyezd boshliqlarining hozirdagi tashkilotlar arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarning bir qismi u yoki bu mazmunda bo‘lsa, qolgan yarim qismi qog‘ozlardan iborat bo‘lib, hech qanday qiziqish uyg‘otmaydi va faqat ma’lumotnoma xususiyatiga ega, xolos. Arxivlarda saqlanayotgan oxirgi yillardagi yig‘majildlar hattoki ma’lumotnoma xususiyatini yo‘qotib, ma’lum vaqt o‘tgach ma’lumotnomalar ham o‘z kuchini yuqotib, nafaqat o‘lkani tadqiq etayotgan tadqiqotchilar, balki devonxona uchun ham keraksiz hujjatga aylanib, yo‘qotishga ajratilishi mumkin. Viloyat mahkamalariga tegishli hujjatlar to‘g‘risida ham yuqoridagilarni ta’kidlab, ularda saqlanayotgan hujjatlarning yarim qismini o‘lka boshlig‘ining ko‘rsatmasiga binoan – Markaziy arxivga topshirilishi mumkin. Qolgan barcha hujjatlar boshqarmalar arxivida saqlanib, 5-6 yildan so‘ng yo‘qotilishi mumkin edi”. General-leytenant N.N.Golovachyov tomonidan o‘z qo‘l ostidagi idoralar boshqarmalarining ma’lumotlariga tayanilib, Markaziy arxivga saqlash uchun topshiriladigan yig‘ma jildlarning soni to‘g‘risida quyidagicha ma’lumot beriladi:

1. Sirdaryo viloyat boshqarmasi bo‘yicha–8000 yig‘majild.
2. Toshkent shahar boshqarmasi, sudyalalar va Qurama uyezdi bo‘yicha–7600 yig‘majild.
3. Uyezd boshqarmasi boshliqlari va sudyalari bo‘yicha:
  - A. Quramadan – 400 yig‘majild;
  - B. Avliyo-otadan – 1000 yig‘majild;
  - C. Chimkentdan – 2000 yig‘majild;
  - D. Turkistondan – 200 yig‘majild;
  - E. Perovskiyan – 3000 yig‘majild;
  - F. Xo‘janddan – 1500 yig‘majild;
4. Toshkent yarmarka qo‘mitasidan – 500 yig‘majild;
5. Shahar va jandarma boshqarmasidan – 4000 yig‘majild.



Sirdaryo viloyati ma'muriy boshqarmasidan jami 31200 yig'majildni saqlash uchun topshirish rejalashtirilgan. Kelgusida har yili arxivga 5000 tadan yig'majild topshirish mo'ljallangan.

Ushbu yuqoridagi hisobotlardan kelib chiqib, viloyat gubernatori xarbiy arxiv idoralarining ikkinchi bo'limi uchun bo'lajak arxivdan uchta uncha ham katta bo'lmagan xonalar ajratilishini so'raydi. Shuningdek, viloyat gubernatori joylarda ekspert tekshiruv kommissiyalarini tuzib, u yerda to'plangan hujjatlarning ro'yxatini ko'rib chiqish, xujjatlarni tartiblash, ajratish va yo'qotish bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish taklifini kiritadi. Tadqiqotchilari S. Gorsheninani ta'kidlashicha, Toshkentda Markaziy arxivni tashkil qilishidan kutubxonani tuzishdan farqli ravishda boshqa maqsadlar ko'zlangan edi. Kutubxona – Turkiston ma'muriyati uchun o'lkani boshqaruvida asqotib, bu maqsadlar – o'lkada madaniyatni targ'ib qilish niqobi ostida olib borilar edi. Arxiv tuzilgan taqdirda hujjatli materiallar bir joyga to'planib, bu ma'lumotlar asosida tadqiqotchilar Turkiston o'lkasi o'tmishini mustamlakachilik nuqtai nazaridan "tarixiy va statistik" tomondan tahlil qilishi mumkin edi. Afsuski, yuqorida keltirilgan takliflarning aqalli bittasi yoki Toshkentda Markaziy arxivni tashkil qilish loyihasi amalga oshirilmadi. O'lkada arxiv hujjatlari bo'yicha ish yuritish va hujjatlar saqlashi yo'lga qo'yilgan yagona idora – 1867-yilda tuzilgan Turkiston general-gubernatorining kanselyariyasi edi. U ijroiya organi hisoblanib, shtat va inspektorlik, yer hamda soliq majburiyatlari, yo'l qurilishi va tog'-kon ishlari masalalari, Rossiyaning Xiva va Buxoro ustidan protektorati, qo'shni Sharq mamlakatlari bilan aloqa qilishga doir masalalarni hal qilish bilan shug'ullanardi. Ushbu munosabat bilan Kanselyariya quyi idoralariga ko'plab ko'rsatmalar va so'rovlar yuborib, ularga javoban ko'plab hisobot va ma'lumotlar olardi, barcha vakillik hamda ma'lum idoraga qarashli muassasa hamda oliy hukumat organlari bilan aloqalarni amalga oshirar edi. Uning bo'linmalarida gullab-yashnagan byurokratik qog'ozbozlik asosida katta ko'lamda ish yuritilgan. N.A. Abduraximovani ta'kidlashicha,

o'lkani boshqarish borasidagi turli me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va joriy qilishda Turkiston general-gubernatori Kanselyariyasining roli ayniqsa katta edi. Kanselyariya maxsus tuzilgan hukumat komissiyalari bilan hamkorlikda Rossiya vazirliklari va Davlat kengashi e'tiboriga havola qilinuvchi Turkistondagi barcha qonunlarning loyihalarini ishlab chiqishda qatnashar edi. Kanselyariya faoliyatida "vazifasini bajarish huquqi berilgan lavozimlarga tayinlash; qo'l ostidagi joylar va shaxslarni nazorat qilish; ishlarni hal qilish va qonunlarning bajarilishi yuzasidan choralar ko'rish; yuqori boshliqlarga taqdim qilish" bilan shug'ullangan farmoyish bo'linmasi muhim o'rin tutardi. U kadrlar masalalari bilan faol shug'ullangan.

Umuman olganda, o'lka boshlig'iga harbiy, siyosiy va ma'muriy sohalarda cheksiz vakolatlar berilgan edi. Xufiya maslahatchi F.Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi ham buni alohida qayd etib, quyidagilarni ta'kidlagan: "Kanselyariya o'ziga xos bo'lmagan va qonunga xilof hal qiluvchi bosh mahkama cho'qqisini egallagan" edi. Markazda uning faoliyati faqat Rossiya harbiy vaziri tomonidan nazorat qilingan. Yuqorida ta'kidlanganlarga qaramasdan, kanselyariyada hujjatlarni saqlash va tartibga keltirish ishlari bilan hech kim shug'ullanmagan. Va faqat 1870-yilda idoraviy arxivni tashkillashtirish va boshqarish jurnalist lavozimi (u ham arxivarius va ekzekutor hisoblangan) joriy qilinadi. O'sha yilda 1867-1869 yillarga taalluqli hujjatlarning bir qismini saqlash uchun arxivga topshirish masalasi ko'rilgan. Biroq, hujjatli yig'majildlarni saqlash uchun maxsus arxiv binosining yo'qligi sababli hujjatlarni topshirish amalga oshmaydi. Barcha hujjatli yig'majildlar yetti yil mobaynida bosmaxona binosida ilmiy-texnik tomondan ishlanmasdan, tartibsiz holda saqlangan va ulardan ilmiy tadqiqotda foydalanishning iloji yo'q edi. 1877-yilda yangi bino qurilishi munosabati bilan arxiv kanselyariyasi uchun ikkita xona ajratiladi. 1882-yilda bu arxiv kanselyariyasiga birinchi yig'majildlar qabul qilinadi. Hujjatlarni arxivga topshirish uchun kanselyariya ishchilari orasidan maxsus komissiya tuzilib, bo'limlardan arxivga 1867-1882-yillarga taalluqli 9968 ta yig'majild

qabul qilinadi. Hujjatlarni Kanselyariya ekzekutori, birinchi arxivariyus Nikolayev qabul qilib, keyinchalik u bu lavozimda bir necha yillar davomida ishlagan.

Biroq, 1903-yilning noyabrida Turkiston general-gubernatori devonxonasi 4-bo'limi yig'majildlari ro'yxati(opisi)ni tekshirish jarayonida 4 ta bo'limga tegishli arxiv yig'majildlarining ko'pchilik qismi har bir bo'limlar bo'yicha tizimlashtirilmaganligi, shuningdek, yillar bo'yicha ham ajratilmaganligi ma'lum bo'ldi. Ma'lum bir axborotni topish uchun barcha aralash yig'majildlarni tartibga keltirish maqsadida jurnalist Alekseyev boshchiligida kollej asesori Guxin, Mixaylov, guberniya kotibi Balabonov, kollej registrlari Vedeneyev va Kostaskiylardan iborat maxsus komissiya tuziladi. Komissiya yig'majildlarni ro'yxatlar(opislar) bo'yicha tekshirib, har bir bo'limlarga tegishli hujjatlarni ajratib ularni xronologik davrlar bo'yicha tizimlashtirishi kerak edi. 1904-yilning 14 yanvarida maxsus komissiya yuqoridagi masalalarni ko'rib chiqib, 189 ta yig'majild yo'qolganligini ma'lum qildi. Komissiya a'zolarining fikricha, bunday holat arxivga topshirilayotgan yig'majildlar u yoki bu bo'limdagi ish yurituvchining yordamchilari o'zlariga qanday qulay bo'lsashunday yig'majildlarni topshirganliklari tufayli yuz bergan. Bundan tashqari, har yili bo'limlardan arxiv hujjatlarini topshirilishida alohida-alohida qog'ozlarga arxiv hujjatlarini ro'yxati (opisi) tuzilishi natijasida yig'majildlarning soni va sifatini nazorat qilishning iloji bo'lmagan va bu holat hujjatli materiallarni topishni o'z-o'zidan qiyinlashtirgan. Oxirgi yig'majildlarni raqamlarini ro'yxatlanishi arxiv ro'yxat (opis)lari bilan bir-biriga mos kelmagan. Avvalgi yillarda arxiv yig'majildlarini qo'shimcha topshirilishi natijasida bo'limlarda qolgan yig'majildlarga ham ro'yxat(opis) tuzilgan. Natijada, bir yilning o'zida bir xil raqamlar ostida turli xil bo'g'imlarning turli davrlarga oid yig'majildlari arxivga doimiy saqlash uchun topshirilgan. Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida komissiya quyidagi takliflarni ishlab chiqdi:

1. Ikki nusxada yig'majildlar ro'yxati(opisi) kitobini tuzib, ulardan biri arxivga berilishi, ikkinchisi esa bo'limlarda saqlanishi kerak edi. Yangi yig'majildlarni arxivga topshirish vaqtida eng avvalo ularning ro'yxatini bo'limning ro'yxat(opis') kitobiga, so'ngra arxivdagi kitobga kiritish.

2. Har yilda berilgan ro'yxatga, qachon va qaysi yilda tuzilishidan qat'iy nazar qo'shimcha ro'yxatlarni kiritishni bekor qilish.

3. Barcha ish yurituvchining yordamchilariga yig'majildlarni raqamlarini arxiv ro'yxati bilan mos holda tuzishni uqtirish.

Arxivariusga yuqoridagi talablarga javob bermaydigan yig'majildlarni qabul qilmaslik va h.k. shuningdek, yomon saqlovdagi hujjatlarga qo'shimcha ta'mirlash-restavratsiya ishlarini bajarish ta'kidlangan. Ikki haftadan so'ng yuqorida ta'kidlangan takliflar komissiyaning qarori bilan kanselyariya boshqaruvchisi Fyodorov tomonidan amaliyotda tatbiq qilina boshladi.

Biroq, arxiv hujjatlarini saqlash ishlari hali ham yomon ahvolda edi. Masalan, 1916-yilning yozida Turkiston safarida bo'lgan akademik V.V.Bartold o'zining hisobotida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Toshkentdagi arxivlardan men tomonimdan Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi va Turkiston harbiy okrugi shtabi arxivlari ko'rib chiqildi; ikkinchi arxiv alohida binoda joylashgan edi. Yig'majildlar tartibli ravishda, ammo juda tor binolarda, ba'zida yog'ochdan qurilgan va yong'indan holi bo'lmagan xonalarda saqlanadi".

Arxiv materiallarining guvohlik berishicha, 1870-yildan viloyat va uyezd boshqarmalari qoshida maxsus arxiv idoralari tashkil qilingan. Biroq, Turkistonda ko'plab ma'muriy va boshqa turdagi yirik tashkilotlarning arxivlari nochor ahvolda qolavergan. 1907-yilda Sirdaryo viloyati boshqarmasining arxiv binosi yaroqsiz deb topilib, uni boshqa joyga ko'chirish kerakligi ta'kidlangan. Graf K.K.Palening ta'kidlashicha: "Ko'pchilik uyezdlarda yong'in xavfsizligi talablariga va arxiv ish yuritishining umumiy qoidalariga javob beradigan arxiv binolari yo'q bo'lib, ularda saqlanayotgan hujjatlarning

ahvoli ham qoniqarsiz bo‘lgan”. Pishpek (hozirgi Bishkek – muallif) uyezdi boshqarmasi taftish qilinganda undagi arxiv hujjatlari qorong‘u va yarmi yog‘och - yarmi metallardan yasalgan omborxonada yaroqsiz holda saqlanayotganligini guvohi bo‘lingan.

Andijon uyezdi boshqarmasining arxiv hujjatlari esa, juda past va usti loy bilan yopilgan zax omborda saqlangan. Natijada, 1902-yilning dekabrda omborxonaning tomi qulab tushadi va undagi Andijon uyezdi boshqarmasining barcha arxiv hujjatlari loy bilan aralashib, yaroqsiz ahvolga keladi hamda yoqib yuboriladi. O‘sha davrlardagi davriy matbuotda yuqoridagi ahvol Avliyo-ota uyezdi boshqarmasida ham yuz berganligi xabar qilinadi. Arxiv uchun ajratilgan bino yuqorida ta’kidlangan talablarga saqlanish jihatidan ham yoki shaklan ham javob bermagan.

Taftish o‘tkazilishi natijasida, uyezd boshliqlari kanselyariyasidagi ish yuritishda yakunlangan yig‘majildlarga ro‘yxat (opis) lar tuzilmasdan, ko‘p hollarda bu hujjatli materiallar yo‘qotib yuborilganligi aniqlangan. Ayrim mahkamalardagi yig‘majildlarning yaroqsizligidan, ulardan u yoki bu sohadagi uyezd boshqaruviga tegishli ahvolni baholashning iloji ham bo‘lmagan. Hisobotda barcha uyezdlardagi mahkamalarda hujjatlarning yo‘qotib yuborilganligi holatlariga ko‘p bor duch kelganligi ta’kidlangan. Hisobotning “Mustamlaka boshqarmasi kanselyariyasi qismi”da taftish komissiyasi tomonidan Samarqand, Farg‘ona va boshqa viloyatlardagi bo‘limlar boshqarmasi kotiblari–kanselyariya ish yuritish qoidalari haqida hattoki, tasavvurga ega emasligi ta’kidlanadi. Mahkamalarda hujjatlarning kirish va chiqish hisobi olib borilmagan, mavjud “Kanselyariya kitobi”dan bo‘limning alohida biron-bir ishlab chiqarish sohasi bo‘yicha ma’lumot to‘plashning iloji bo‘lmagan.

Qozilik va bekklik sudlari, oqsoqollar idorasi hisoblanmish – mahalliy idoralar faoliyati natijasida to‘plangan hujjatli materiallar ishchi hukumatining, shuningdek, mahalliy tashkilotlarda ham arxiv hujjatlarini ro‘yxatga olish yoki qayta ishlash ishlari amalga oshirilmagan. Hujjatlarni ahvoli ish yuritishdagi mas‘ul shaxsning

malakasi va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, xolos. Arxivlar uchun alohida maxsus binolar ajratilmagan. Hujjatlar tartibsiz holda shkaf-larda yoki yog'och sandiqlarda saqlangan.

1896-yil 25 noyabrda Rossiya imperiyasi hukumat Senatida guberniyalardagi arxiv ishini o'rganish, arxiv hujjatlarini ajratish va yo'qotish bo'yicha maxsus komissiya tashkil qilishga qaror qilinadi. Qabul qilingan qarorga ko'ra gubernatorning tavsiyasiga binoan quyidagi shaxslar lozim edi: guberniya boshqarmasi maslahatchisi lavozimidagi guberniya ma'muriyatining vakili, hujjatlari ajratiladigan yoki yo'qotiladigan tashkilot rahbari (yoki uning o'rinbosari). Bundan tashqari, komissiya tarkibiga bittadan sud idorasi va xalq ta'limi tashkiloti vakillari, shuningdek, o'sha shaharlardagi ilmiy jamiyat va arxiv komissiyalari vakillari kiritilgan. Yuqorida ta'kidlangan ikkita tashkilot vakillari harbiy gubernatorning, ilmiy jamiyat va okrug sudi raisining tavsiyalariga binoan komissiya tarkibiga kiritilgan. Turkiston general-gubernatori va viloyat boshqaruv tizimining bir-biriga mos kelmasligi holatlari hisobga olinib, quyidagicha taklif qilinadi: viloyatlarda maslahatchi lavozimlari bo'lmaganligi sababli, uning o'rniga uyezd boshlig'ining o'rinbosarini kiritish, uyezdlarda okrug sudi raisining roziligi asosida, prokuror o'rniga xalq sudyasini kiritish va uyezd komissiyalariga viloyat boshqaruvi maslahatchisi o'rniga uyezd boshqarmasi ish yurituvchisini kiritish va h.k. Ish yuritishda tugallangan yig'majildlarni tartibga kiritish va yo'qotish ishlari bo'yicha 1909 yilning 19 iyunida Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vazirligi, "Ichki ishlar vazirligi, uning qaramog'idagi tashkilotlar, guberniya boshqarmalarining yakunlangan yig'majildlarini saralash, ajratish va yo'qotish qoidalari to'g'risida" Qaror qabul qiladi. Bu qarorga ko'ra, guberniya arxivlaridagi arxivariuslar yoki tashkilot arxivlaridagi mas'ul shaxslar saqlanish muddati tugagan har bir hujjatga qisqa mazmunda alohida qog'ozga ro'yxat (opis) tuzishi shart edi. Tashkilotlar va idoralar tomonidan tuzilgan ro'yxat (opis) lar ko'rib chiqish uchun guberniya hukumatiga yuborilishi lozim bo'lgan. O'z navbatida guberniya hukumati bu ro'yxatlarni guberniya

arxiv komissiyasiga topshirgan va arxiv komissiyasi yo'qotilishi mumkin bo'lgan hujjatlar bo'yicha o'z xulosasini berishi shart edi. Agar yig'majildga bir xil mazmundagi hujjatlar to'plangan bo'lsa, har bir yig'majild uchun tuzilgan ro'yxat (opis) o'rniga qisqa mazmundagi yig'majildning xulosasi jo'natilgan. Arxiv komissiyasi mavjud bo'lmagan joylardagi yig'majildlar ro'yxatini qo'shni joylardagi arxiv komissiyalariga yuborgan. Turkiston general-gubernatori idoralarining yo'qotilgan yig'majidlari ro'yxat(opis)lari Orenburg arxiv komissiyasiga jo'natilishi shart bo'lgan.

Hujjatlar ro'yxat(opis) tuzilgandan boshlab olti oy mobaynida komissiyaga topshirilmasa, unda komissiya – topshirilmagan hujjatlarni keraksiz deb topib, ularni yo'qotishga rozilik bildirgan. Hududlarda arxiv komissiyasi faoliyat olib borayotgan guberniya boshqarmalari bir yil mobaynida arxiv komissiyasining xulosalarini kuzatishi shart edi. Ayrim hollarda komissiya hujjatlarni asl nusxalari bilan tanishishni lozim deb topsa, ularga faqat – gubernator roziligi bilan hujjatli yig'majidlarni ko'rishga ruxsat berilgan. Arxiv komissiyasi a'zolarining turli joylarda arxiv hujjatlarini tekshiruvi bilan bog'liq safar xarajatlari davlat g'aznachiligi tomonidan mablag' bilan ta'minlangan. Agarda hujjatlarni ajratish va yo'qotish bo'yicha guberniya boshqarmasi va arxiv komissiyasi o'rtasida o'zaro kelishmovchilik vujudga kelgan taqdirda, bu muammo Ichki ishlar vazirligi tomonidan hal etilar edi. Shuningdek, u yoki bu hujjat va yig'majidlarni boshqa fan sohalari uchun ahamiyatli deb topsa yoki kutubxonaga topshirishni tavsiya qiladigan bo'lsa, bunga ham rozilik va ruxsat – Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilgan. O'z o'rnida yuqorida ta'kidlangan muhim hujjatlarga arxiv ro'yxatlari tuzilishi yoki hujjatlarning saqlanish muddatlari uzaytirilganligi ko'rsatilishi lozim edi.

Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlari Xalq sudlari raislari Rossiya Adliya vazirligiga 1894-yilning 26 avgustida murojaatnoma jo'natishib, xalq sudyalarida sudda masalasi ko'rib chiqilgan yuridik hujjat to'planib qolishi natijasida ularni saqlash bilan bog'liq

muammolar vujudga kelayotganligini ta'kidlashgan. Mahalliy aholi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi yig'majildlarni saqlovini ta'minlash maqsadida viloyat sudlari qoshida maxsus arxivlar tashkil qilishni va 600-700 rubl miqdorida arxivariuslar uchun maosh tayinlanishini, shuningdek, har yilda ularning kanselyariya xarajatlarini uchun 300-350 rubl miqdorida mablag' ajratishlarini – Adliya vazirligidan so'rashgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bir necha o'n yillar mobaynida o'lkadagi ilmiy jamiyatlar K.P. Kaufman tomonidan taklif qilingan arxiv loyihasi masalasini ko'tarib chiqishgan. Biroq, har safar o'lka ma'muriyati yetarlicha mablag' yo'qligini bahona qilib, bu masalani orqaga suravergan. Amalda esa o'sha vaqtdagi mansabdor shaxslar arxiv ishini muhimligini anglab yetmagan. XX asr boshlarida mahalliy gazetalardan birida arxiv ishini tashkil qilish masalasi bo'yicha noma'lum muallifning maqolasi e'lon qilinib, unda quyidagilar ta'kidlangan: "Yillar o'tadi, Turkistondagi tirik eski yodgorliklar nuraydi va bu o'lka tarixini tadqiq qiluvchiga turli xil arxivlarda saqlanayotgan rasmiy hujjatlarga qoladi, xolos... Ularni bir joyga to'plab, bir tizimga turkumlashtirilsa, ular nafaqat kelajak avlodlar uchun, shuningdek, hozirda o'lkada yashayotganlar uchun ham qiziqarli bo'ladi. Ming afsuski, biz bu hujjatlar to'g'risida ma'lumotga ega emasmiz, ya'ni, dangasa va qiziquvchan emasmiz". Turkiston o'lkasi tarixiga befarq bo'lmagan kishilardan arxiv komissiyasi tuzilib, komissiya a'zolari tomonidan o'lka tarixini yorituvchi hujjatli materiallar bir joyga to'plansa maqsadga muvofiq bo'lar edi".

Umuman olganda, Turkiston o'lkasi mustamlakachilik davri arxiv tizimlari uchun idoraviy tarqoqlik va arxiv hujjatlari saqlovini ta'minlashda maxsus binolarning yo'qligi, shuningdek, malakali kadrlarni yetishmasligi xarakterlidir. Shu bilan bir qatorda arxiv hujjatlariga ilmiy-texnik metodikani ishlab chiqilmaganligi arxiv ishini qiyinlashtirgan. Bunga qaramasdan, Toshkentda fan va amaliyotga qiziqarli bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy muammolarga ta'alluqli bo'lgan tarixiy hujjatlar va manbalar uchun maxsus Markaziy



arxiv zarurligi davlat hukumati vakillari va ilmiy jamiyatlar tomonidan ijobiy hal qilinmagan.

1918-yilning aprelida RSFSR tarkibida Turkiston ASSRning tashkil qilinishi munosabati bilan yangi sovet davlat tashkilotlari arxivlari shakllana boshladi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoda davlat arxivlari va maxsus idoraviy arxivlar XIX asrning oxirlarida shakllana boshlaydi. Bu omillar Rossiya imperiyasi tomonidan o'lkani mustamlakaga aylantirish natijasida amalga oshirgan o'lkadagi ma'muriy islohotlar bilan bog'liqdir. Strategik maqsadlar va Turkiston o'lkasi tarixiga qiziqishni ortib borishi imperiya ma'muriyatini o'lkadagi idoralarda hujjatlar saqlovini ta'minlashiga e'tibor qaratishga majbur etgan. Biroq, imperiya hukumati tomonidan arxiv materiallarini to'plash va saqlash to'g'risida bir qator qarorlarning qabul qilinishiga qaramasdan, o'lkada alohida hujjatli manbalar saqlovini ta'minlaydigan – Arxiv tashkilotini tuzish bo'yicha maqsadli va davomli ishlar amalga oshirilmagan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonda arxiv ishi sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Graf K.K. Palen komissiyasi arxiv ishlaridagi qanday kamchiliklarni oshkor qilgan edi?
3. Rossiya mustamlakachiligi davriga oid arxiv hujjatlari qanday ahamiyatga ega?

1. Хими́на Н.И Отчественное архивное строительство: идея централизации на рубеже XIX–XX веков/ Отечественные архивы. – Москва, 1998 –№ 4.
2. Оронюк.Б.К. Истории архивов в до революционном Туркестане. // Научно- методический бюллетень Архивного управления МВД УзССР – Ташкент, 1959. – №4.
3. Иофе.В.Г Архивы в Туркестанском крае (вторая половина XIX начало XX) // Отечественные архивы– Москва, 2009. – №6.
4. В.В.Бартольд Положение науки в Туркестанском крае/ сочинения. Т. 9. Работы по истории востоковедения. – М: Наука, 1977.
5. O‘zR MDA, I-71-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 24-yig‘majild, 3-varaq.
6. Пален К.К Отчет по ревизии Туркестанского края. Вып. 3. Краевое управление. – СПб, 1910.
7. O‘zR MDA, I-17-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 348-yig‘majild, 1-2-varaqlar.
8. Горшенина С. Крупнейшие проекты колониальных архивов России: утопичность тотальной Туркестанской генерал – губернатора Константина Петровича фон Кауфмана. Ab Imperio, -№3. – СПб., 1890.
9. Гирс Ф.К. Отчет по ревизии Туркестанского края . – СПб, 1888.
10. Оронюк Б.О К истории архивов в до революционном Туркестане. Научно–методический бюллетень Архивного управления МВД УзССР–Ташкент,1959. – №4.
11. Архивы Ташкента в царской колониальных период . // Вестник НУУз . –Ташкент, 2009. Специальный выпуск.
12. Бартольд В.В.Отчёт о командировки в Туркестанский край летом 1916г. Сочинения. Т.8. Работы по источниковедению. – М: Наука, 1973.

### Reja:

1. RSFSRning 1918-yil 1 iyunda qabul qilgan “Arxiv ishini qayta tiklash va markazlashtirish to‘g‘risida”gi Dekreti.
2. Arxiv ishi markaziy boshqarmasi (Suardel) faoliyati.
3. Yagona davlat arxiv fondi. Arxiv ishi markaziy boshqarmasi va uning asosiy bo‘linmalari.

**RSFSRning 1918-yil 1 iyunda qabul qilgan “Arxiv ishini qayta tiklash va markazlashtirish to‘g‘risida”gi Dekreti.** Sovetlarning hokimiyat tepasiga kelishiga sababchi bo‘lgan 1917-yilning birinchi kunlaridayoq xalqimizning ijtimoiy hayotida totalitar boshqaruv mexanizmi, buyruq berish metodi o‘rnatilgan edi. Bunday nazorat xalqimizning diniy hayotida, shuningdek, tarix fani va vatanimiz arxivshunosligi ustidan ham o‘rnatilgan edi. Natijada, tarix fani va arxivshunoslik - siyosiy fanlar bo‘lib qoldi. Ilmiy tadqiqotlar va arxivshunoslik sovetlar-hukmron sinfining g‘oyaviy tanqidlariga uchrab, ilmiy-izlanish imkoniyatlari ham cheklab qo‘yildi va ta‘kidlandiki, xalqimizning haqiqiy tarixi, oktabr inqilobi g‘alabasidan so‘ng boshlandi, inqilobgacha mavjud bo‘lgan adabiyotlar, san‘at, tarixiy tadqiqotlar hukmron g‘oyalar bilan sug‘orilgan, ulardagi asriy milliy qadriyatlar va urf-odatlar davlat taraqqiyoti uchun zid deb ta‘kidlandi va ularni yo‘qotishga harakat qilindi.

Shu tarzda g‘oyaviy ustqurmalar, L.A. Mavrulovning baholashicha, sho‘rolar madaniy qurilishining “Sovet O‘zbekistoni”da olib borilishi xalq axloqiy qadriyatlarini qadrsizlanishiga, adabiyotlar, san‘at, ijtimoiy fanlar, avvaldan mavjud bo‘lgan ijtimoiy fanlar, tarixiy-diniy jarayonlarning to‘xtab qolishiga va tarixiy xotiralarning unitilishiga olib keldi.

O‘z-o‘zidan sovet madaniy siyosatining og‘riqli kasalliklari o‘lkadagi arxiv ishiga ham ta‘sir qildi. Shuni aytish lozimki, o‘sha

davrda tashkiliy rejalashtirishda maqtoqli ishlar amalga oshirildi. 1917-yildan so'ng vujudga kelgan totalitar tuzum, markaziy boshqaruv va g'oyalari asosida qurilgan bo'lib, subyektiv jihatdan davlat arxiv tashkilotlarini rivojlantirish tizimiga muhtoj edi. Sho'rolar hokimiyati rahbarlari ko'p marotaba ta'kidlaganlaridek, kommunistik g'oyalarning bajarilish vazifalarining muvaffaqiyatli olib borilishi ko'p jihatdan qanchalik manbalar ko'p to'planishiga, tadqiqotchilar qaysi manbalardan ko'proq foydalanishiga ham bog'liq edi. Dunyo ommasiga sho'rolar tizimini ijobiy tomondan ko'rsatish zarur edi.

Bularning bari hujjatli materiallarni maxsus boshqaruv markaziga konsentratsiya qilib, ulardan hukumat vakillari faoliyatida va davlatchilik siyosiy senzurasida effektiv instrument sifatida foydalanish talab qilinar edi. Shuning uchun yangi sho'rolar hukumati arxiv idoralari tizimini tiklanishiga katta diqqat va e'tibor qaratishdi.

1918-yilning aprelida RSFSR hukumati tashabbusi bilan markaziy arxiv idoralari boshqarmasini tuzish, arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish xususida qaror qabul qiladi, o'shanda hukumat topshirig'iga ko'ra "Arxiv tashkilotlari boshqaruvini tashkil etish" uchun maxsus komissiya tuziladi. 1918-yilning 27-28 mayida Moskvada M.X. Pokrovskiy raisligida majlis bo'lib, Markaziy arxiv boshqarmasini tuzishni rejalashtirish xususida kelishib olindi. Unda Markaziy arxiv ishi boshqaruvi rejasi ma'ruzasi eshitildi.

Rossiya hukumati tomonidan tashkil qilingan arxiv ishi tizimi Qizil Armiya arxiv ishini ham qisman o'zida mujassamlashtirgan edi. Sho'rolar Respublikasi harbiy kuchlari bosh qo'mondonligi Qizil Armiya va fuqarolar urushi tarixi bo'yicha materiallar yig'ish to'g'risida topshiriqlar berdi. 1918-yil oktabr inqilobidan so'nggi dalillar va voqealar 20-30-yillar matbuotida doimiy chop etib turildi. Shu maqsadda frontdagi shtablarda shu jumladan, Turkiston frontida harbiy ishlar arxiv bo'linmalari tuzilib, har bir armiya o'z ma'lumot (harbiy ishlari haqidagi) larini to'plashi harbiy tarixiy xarakterdagi va ularni Moskvaga jo'natishlari shart edi.

1918-yilning mayida Markaziy Osiyoda yagona hisoblanmish, davlat arxiv jamg'armasidan so'ng, o'sha yilning noyabrda arxiv ishlari boshqaruvi Bosh boshqarmasi kollegiyasi tuziladi. Uning tarkibiga V. Ryazanov (rais), B.N. Storojev (rais o'rinbosari), A. Polyanskiy, S.B. Veselovskiy va boshqalar kiradi. Kollegiya shu zahotiy oq davlat arxiv idoralarini tashkil qilish, arxiv ishlari infratuzilmasini yaxshilashga kirishib ketadi. RSFSR arxiv idoralari markaziy tuzilmasining ajralmas qismi sifatida Turkiston arxiv saqlanmasini joriy qilishga katta e'tibor berildi. Tarixiy nuqtai nazardan baho beradigan bo'lsak, Sovet arxivshunoslik siyosati tashkil etilishi bilan oq, Turkiston o'lkasida sho'rolar arxivshunosligi ta'siri sezila boshladi. Shu bilan birga bu kamchilikni ijobiy tomonlarini ko'rsatishimiz ham kerak. Chunki, 1917-yilning birinchi kunlaridayoq o'lkada yirik arxiv saqlanmasi yo'q edi. Arxiv ishini yaxshilashga qaratilgan arxiv ishlari tizimi ham yo'q edi.

Turkistonda davlat arxiv tashkilotlari idoralari barpo qilinib, O'zbekiston tarixi bo'yicha hujjatlar, manbalar to'plandi, sho'rolar hukumati ushbu arxiv hujjatlaridan o'lkada o'z davlatchilik g'oyalarini mustahkamlashda ham keng foydalanishdi.

Arxiv tadqiqot ma'lumotlaridan ma'lumki, arxiv ishlarini tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha o'lka hukumatiga topshiriq 1918-yilning iyun oyida kelib tushdi. Bu ishni Turkiston Respublikasi budjet moliya komisiyasi raisi (MIK huzuridagi) V.N. Kucherbayev boshqardi va 1919 yilning oktabrida Turkiston ASSR Sovetining XIII syezdida arxiv ishlarini tashkil qilish, boshqaruvi, topshiriq va vazifalari to'g'risida ma'ruza qildi. Prezidium taklifiga ko'ra (syezd prezidiumi) ma'ruza MIK ga ko'rib chiqish uchun topshirildi.

1919-yilning 30 oktabrida Turkiston Respublikasi MIK Prezidiumi respublika Markaziy arxiv boshqarmasi (Suardel)ni tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi.

1919-yil 15 noyabrda Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi qaroriga binoan Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzildi va V.N. Kucherbayev boshqarma boshlig'i etib tayinlandi.

**Arxiv ishi markaziy boshqarmasi (Suardel) faoliyati.** 1920-yilning boshida Arxiv ishlari markaziy boshqarmasi (Suardel) o'z faoliyatini boshladi. Arxiv ishi markaziy boshqarmasining tashkil etilishi bilan barcha hukumat arxiv idoralari faoliyati cheklanib, ularda saqlanayotgan yig'ma jild va hujjatlar yagona Turkiston Respublikasi arxiv jamg'armasi Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirildi.

Nazarda tutish kerakki, Respublika Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF)ga davlat va hukumat idoralarining 1917-yilning 25 oktabrgacha bo'lgan barcha yig'ma jildlari, idoraviy yozishmalari topshirildi.

Sovetlar hukumati o'rnatilgandan so'nggi hukumat matyeriallari tegishli idoralarda belgilangan ma'lum vaqtgacha saqlangan. Belgilangan muddat tugagach, idoralardagi arxiv hujjatlari davlat arxiv jamg'armasiga topshirilgan. Turkiston Respublikasi MIK tomonidan hujjatli materiallarni yo'qotish to'g'risida ham tartib-qoidalar ishlab chiqildi. Qarorlarda ta'kidlandiki, "hukumat idoralari - Bosh arxiv ishlari boshqarmasi ruxsatisiz biror bir yig'ma jild, qo'lyozma yoki alohida hujjatlarni yo'qotishlari mumkin emas edi. Bu tartiblarga bo'ysunmay uni buzganlar jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo'ldilar". Hujjatli manbalar, joriy ishlab chiqarish davomida yig'ila borganlari ham yagona davlat arxiv jamg'armasini qismlari hisoblanishi va arxiv idoralariga arxiv hujjatlarini saqlanishi ustidan nazorat qilish huquqi topshirildi.

Turkiston Respublikasi Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzilgach, uni RSFSR Bosh arxivi tomonidan yuborilgan D.I. Nechkin boshqara boshladi (U - 1919-yilning dekabrda Toshkentga keladi).

Bosh arxiv ishlari boshqarmasi ma'muriy jihatdan Turkiston Respublikasi xalq kengashiga bo'ysunib, uning bir qismini tashkil etar edi. Boshqaruvga xalq kengashi bo'limi maqomi berildi va uning boshlig'i komissariat a'zosi hisoblanib, hukumat kengashlarida to'g'ridan-to'g'ri ma'ruza qilish huquqiga ega edi. Keyinroq, aynan 1922-yilda arxiv idoralari markazi butunlay MIK ixtiyoriga o'tgach, Turkiston ASSR

MIK huzuriga bo'ysunadigan bo'ldi. Bundan tashqari, davlat arxiv jamg'armasi hujjatlari va manbalari respublika idora va tashkilotlariga davlatchilik xalq xo'jaligi qurilishi masalalarida yordam berishga jalb etiladi. Shu munosabat bilan Turkiston MIK Suardel (Arxiv ishi markaziy boshqarmasi)ga hujjatlardan ilmiy maqsadlarda foydalanish va ular to'g'risida ma'lumotnomalar berishni tartibga keltirishni topshirdi.

Arxiv ishi qurilishi sohasida birinchi qadamlarga to'xtaladigan bo'lsak, idoralarning yig'majild va manbalari (korxonalar, tashkilotlarning ham) davlat mulki deb e'lon qilindi. Sho'rolar davlatchiligi siyosati arxivshunoslikda ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu sohadagi ishlarni nazorat qilish va tartibga keltirish uchun Moskvadan ikkinchi harbiy bo'linma boshlig'i - D.D. Zuyev va ma'muriy-diplomatik bo'lim boshlig'i S.P. Leypinlar yuborildi.

Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzilishi bilan oq joylarda mahalliy arxivlar faoliyatini tuzish va yo'lga qo'yishga kirishib ketdi. 1920-yilning may oyida Arxiv ishi Markaziy Boshqarmasi boshqaruvchisi D.I. Nechkin, ilmiy xodim P.I. Sosnovskiy, inspektor F. Suslovlar respublika bo'ylab xizmat safarida bo'lishdi. Ular arxiv jamg'armalari holatini o'rganishib, mahalliy hukumat organlariga arxiv ishlarini tashkil qilishda yordam berishdi.

1920-yilning martidan 1921-yilning martigacha bo'lgan davrda Farg'ona viloyatida davlat arxivi (boshqaruvchisi - S. Genkuzen), Samarqandda (boshqaruvchisi - P.A. Korolyov), Yettisuvda (P.M. Mixeyev), Kaspiy orti viloyatida (boshqaruvchi - S.M. Belkevich) - Turkiston ASSR arxiv bo'limlari tashkil etildi. Shu diqqatimizni tortadiki, Samarqand arxivi ilmiy xodimi sifatida mashhur arxeolog B.A. Vyatkin tayinlangan.

Mahalliy arxiv tashkilotlari Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS) ning 1921-yil 25 yanvardagi "Viloyat arxiv jamg'armalari to'g'risida"gi qarori asosan qonuniy jihatdan rasmiylashtirdi. Bu qarorga ko'ra viloyat hududidagi barcha idoralarning ish yuritish hujjatlari viloyat davlat arxivi jamg'armasining tarkibiy qismi hisoblanadi, deb ko'rsatilgan.

Bunga ko'ra barcha arxiv hujjatlari va materiallar – Turkiston o'lkasi hududida joylashgan, har bir viloyat uchun arxiv jamg'armasini tashkil qilib, Arxiv ishi markaziy boshqarmasi qaramog'idagi yagona davlat arxiv jamg'armalarini tashkil qilish nazarda tutilgan. Viloyat arxiv jamg'armasi boshqarmasi va rahbariyati, Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Viloyat arxiv jamg'armalari o'z-o'zidan davlat arxiv jamg'armasi strukturaviy bo'limlarini tashkil etar edi. "Viloyat arxiv jamg'armalari"ni tashkil etish, hujjat va qo'lyozmalarini saqlash, viloyat ijroiyo qo'mitalariga yuklatildi. "Turkiston Respublikasi viloyat arxiv jamg'armalari" markazlashtirilguniga qadar, qisman ko'rsatmalarga ko'ra viloyat ijroiya komitetlari (oblispolkom) arxiv ishi va arxiv hujjatlarini saqlashga mas'ul edilar.

Qarorlardan ma'lumki, viloyat arxiv tashkilotlari xodimlari bitta yoki ikkita katta ilmiy xodimlardan va ikkita kichik arxivariusdan, bir kotib, bitta yoki ikkita kichik xizmatchi, ikkita katta xizmatchilardan iborat bo'lishi kerak edi.

Turkiston Respublikasi davlat arxiv jamg'armasida qo'lyozma manbalardan tashqari matbuot materiallari va suratli hujjatlar bor edi. Davlat arxivi jamg'armasiga faqat 1917-yildan oldingi tashkilotlar arxiv hujjatlarigina emas, balki sovet tashkilotlari arxiv hujjatlari ham qabul qilingan. Tashkilotlarda hujjatlar 5 yil saqlanishi va keyingina davlat arxiviga topshirilishi belgilangan. Bu qoida 1921-yil 30 sentabrdan kuchga kirgan.

Joylarda viloyat arxiv bo'limlari tashkil qilindi. Masalan, 1920-yil martida – Farg'onada, 1920-yil iyunda – Samarqandda, o'sha yil noyabrda – Yettisuvda, 1921-yil martda – Kaspiyorti viloyatida ana shunday arxiv bo'limlari tashkil qilindi. Turkiston XKS ning 1921-yil 25 yanvardagi qaroriga binoan arxivlarda qo'lyozma hujjatlarigina emas, balki nashr qilingan materiallar va suratli hujjatlar ham yig'ila boshlandi (varaqaalar, xitobnomalar, tarixiy kitoblar va risolalar). Hukumatning 1921-yil 23 iyundagi buyrug'i bilan hujjatlarni yo'q qilish taqiqlandi.



Arxiv tashkilotlari hujjatlarni qabul qilish bilan birga ularni tartibga keltirish ishlari hamda arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil qilish, ularni bayon qilish bilan shug'ullandilar. 1920-1921-yillari 500 dan ortiq jamg'armalar hisobga olindi. 1921-yil oxirigacha davlat arxiv jamg'armalariga 157 ta harbiy va fuqaro tashkilotlari 305 mingdan ortiq yig'ma jildlarni topshirdilar. 1922-yili 83 ta tashkilot tomonidan 200 mingga yaqin yig'ma jild topshirildi. Arxiv hujjatlari ro'yxatini tuzishdan oldin bu hujjatlar kerak va keraksizlarga ajratilib, ilmiy-amaliy ahamiyati borlarini doimiy saqlash, bunday qimmatga ega bo'lmaganlarini yo'q qilish belgilandi, ya'ni arxiv materiallarining o'ziga xos ekspertizasi o'tkazildi. Bu masala bo'yicha Turkiston XKSning 1923-yil 25 yanvardagi "Arxiv hujjatlarini saqlash va yo'q qilish to'g'risida" gi qarorida yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar berildi.

Ushbu qarorda arxiv hujjatlarining yo'q qilishni quyidagi tartibi o'rnatilgan edi: arxiv hujjatlari tarkibidan yo'q qilinadigan hujjatlar ni ajratish uchun Ajratish komissiyalari tuzilib, ularga Arxiv boshqarmasi va arxivi tekshirilayotgan idora vakillari kiritilishi belgilangan. Bu komissiya qarorini Arxiv ishi markaziy boshqarmasi huzuridagi Tekshirish komissiyasi ko'rib chiqib, o'z xulosasini Boshqarma boshlig'i tasdig'iga havola qilardi. Shunday qilib, tashkilotlar hujjatlarini yo'q qilish huquqi arxiv idorasiga – Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirildi. Davlat tashkilotlari uning ruxsatisiz arxiv hujjatlarini yo'q qilish huquqiga ega emas edi. Arxiv xodimlari hujjatlarni yo'q qilishga juda ehtiyotkorlik bilan yondashardi.

Yagona davlat arxiv fondi. Arxiv ishi markaziy boshqarmasi va uning asosiy bo'linmalari. 1919-1920 yillarda YaDAF tarkibidagi arxiv hujjatlari ekspertiza qilinib, doimiy saqlash uchun ajratilgan hujjatlar tartibga solindi va ro'yxatlashtirildi. 1920-1922-yillarda YaDAF tomonidan 150 mingga yaqin hujjatlar ro'yxatga olingan. 1924-yilga kelib butun saqlanayotgan arxiv materiallarining uchdan bir qismi tartibga solingan edi.

Shunisi ahamiyatliki, arxiv komissiyasi tarkibida O'rta Osiyo tarixi bo'yicha mutaxassis V.V. Bartold ham bor edi. Arxiv

materiallarini idoraviy arxivlarda saqlashda Arxiv ishi markaziy boshqarmasi taklifiga ko'ra, respublika Xalq kengashi ko'rsatma va qarorlar ishlab chiqdi. 1921-yil 23 iyundagi Turkiston MIK buyrug'iga ko'ra "Arxiv hujjatlarini noqonuniy bozorda sotish va ularni jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida" ta'kidlandi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Arxiv ishi markaziy boshqarmasi arxiv hujjatlarini yo'q qilishda juda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. 1920-yilning oktabridagi prof. S.P. Pokrovskiy boshchiligidagi ajratish komissiyasi (S.P. Pokrovskiy – ilmiy-tadqiqot bo'limi boshlig'i, komissiya raisi), S. Abramov (ma'muriy-diplomatik bo'lim boshlig'i), N.P. Ternovskiy (bosh inspektor), A.A. Semenov (O'rta Osiyo tarixi bo'yicha mutaxassis) ish olib bordi.

Shunday qilib, arxiv hujjatlarini yo'qotish huquqi faqatgina Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga berilgan edi. Uning ruxsatisiz hech bir tashkilot va idora arxiv hujjatlarini yo'qotish huquqiga ega emas edi. 1917-1921-yillar hujjat va manbalariga to'xtaladigan bo'lsak, 1917-yilning birinchi kunlaridayoq va sho'rolar hokimiyatining birinchi yillari hujjatlarini – Arxiv ishi markaziy boshqarmasi umuman yo'qotishga buyruq va qarorlar qabul qilmadi. Biroq, keyinroq Bosh arxiv buni yoqlamadi. Va keyinchalik, sobiq sho'rolar idoralari hujjatlarini ajratish boshlandi. Bu komissiya asosan Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxiv hujjatlarini ajratishni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan edi. 1920-1921-yillar oralig'ida Arxiv ishi markaziy boshqarmasi ikkita yig'ilish o'tkazdi. Ma'ruzada komissiya o'z ishi haqida hisobot berib, bosh arxiv instruksiyasiga javob bermaydigan yig'majild va qo'lyozmalar yo'q qilinganini ta'kidladi.

1920-1922-yillarda Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan arxeografik ishlarda namunali faoliyat olib borildi. Shunday qilib, tarixiy-inqilobiy seksiyaning 2536 yig'majildi; ma'naviyat seksiyasini – 8243; harbiy seksiyani – 20.935; ma'muriy-diplomatik bo'limni – 22.000 ga yaqin hujjatlari ajratildi. Yuridik seksiyaning 90 mingga yaqin yig'majildi tartibga keltirildi.

Arxiv hujjatlarini qabul qilish va tartibga keltirish borasida keyingi yillarda ham faoliyat olib borildi. 1923-yilning mayidan 1924-yilning mayiga qadar Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tomonidan 12905 yig'majild qabul qilindi. Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tomonidan 499 jamg'armaning 123494 saqlov birligidan 114 jamg'armaning 107952 ta yig'ma jildi ro'yxatlashtirildi va tartib raqamlari tuzildi. Saqlovdagi arxiv materiallarining uchdan bir qismi tartibga keltirildi.

1922-1924-yillar mobaynida arxiv jamg'armasini ro'yxatlashtirilishi, tashkilotlarda mavjud arxivlarni nazorati va hisobotlari tuzildi. 1919-yil 15 noyabrda Turkiston Respublikasi maorif xalq komissarligi qaroriga binoan Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzildi va V.N. Kucherbayev boshqarma boshlig'i etib tayinlandi. Tez orada RSFSR Arxiv ishi bosh boshqarmasi (Bosh arxiv) dan Toshkentga vakil qilib D.I. Nechkin yuborildi. Turkkommissiya uni Turkiston Respublikasi Arxiv ishi markaziy boshqarmasi boshlig'i qilib tayinladi. D.I. Nechkin MIKning arxiv to'g'risidagi qaroriga o'zgartirishlar kiritdi. Muhim o'zgartirish shu bo'ldiki, Turkiston Arxiv ishi markaziy boshqarmasi boshlig'i RSFSR Bosh arxivi roziligi bilan Turkiston Maorif xalq komissarligi qaroriga asosan tayinlanadi deb ko'rsatildi. Bu bilan Turkiston Respublikasi huquqi, shubhasiz, cheklandi.

Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tarkibi quyidagicha edi:

- Boshqaruvchi huzuridagi kengash;
- boshqaruv ishlari;
- ilmiy-statistik bo'lim;
- inspeksiya;
- tahririyat kengashi;
- davlat arxiv jamg'armasi bo'limi (DAF);
- viloyat arxiv jamg'armalari boshqaruvi.

Arxiv ishi markaziy boshqarmasi kengashi kollegiyali idora edi. Uning tarkibi – boshqarma boshlig'i, uning yordamchisi, bo'lim boshliqlari, ilmiy statistik bo'lim boshlig'i, bosh inspektor va ilmiy-tadqiqot tashkiloti xodimlaridan iborat edi.

Boshqaruv ishlari ma'muriy, moliya va xo'jalik xarakterdagi masalalarni hal qilar edi.

Boshqaruv boshlig'i shuningdek, devonxona boshlig'i ham hisoblanib, barcha arxiv sohasidagi yozishmalar bo'yicha ish va faoliyatni nazorat qilar edi.

Ilmiy statistika bo'limi arxivlar, arxiv jamg'armalari haqida, ularni ajratish, arxiv sohasidagi yozma va boshqa turdagi materiallarni yig'ish bilan shug'ullangan, shuningdek, Arxiv ishi markaziy boshqarmasining bir yillik faoliyati haqida ilmiy hisobot tuzib tayyorlangan. Ilmiy statistik bo'lim qoshida ma'lumotxonona kutubxonasi ishlab turgan. Bu bo'limni A.A.Chernovskiyy boshqargan.

Arxiv ishi markaziy boshqarmasining yana bir muhim vazifasini inspeksiya bajargan. Inspeksiya davlat tashkilotlari ish yuritishini va arxivlari ishini nazorat qilgan. Shuningdek, arxiv jamg'armalari, ulardagi va idoraviy arxivlardagi hujjatlarning saqlanishini nazorat qilgan, joylardagi arxiv ishchilariga instruksiya berib, seksiyalarni hujjatli materiallar bilan mujassamlashuvini tashkillashtirib, arxiv hujjatlarini tashish va chiqarish ishlari bilan ham mas'ullik qilishgan.

Inspektorlar guruhini bosh inspektor N.N. Ternovskiyy boshqargan, u bosh arxivdan maxsus Toshkentga yuborilgan edi. Tahririyat kengashi Turkiston tarixi bo'yicha va unga qo'shni bo'lgan davlatlar tarixi bo'yicha qo'lyozmalarni o'rganish, ilmiy jihatdan fanda tadqiq etish bilan shug'ullanishgan.

1921-yildayoq respublika YaDAF sakkizta seksiyaga bo'lingan edi, bular:

- 1) ma'muriy-diplomatik;
- 2) yuridik;
- 3) harbiy;
- 4) maorif;
- 5) iqtisodiyot;
- 6) tarixiy-inqilobiy;
- 7) sho'ro matbuot tahririyati;
- 8) sharq seksiyalaridan iborat bo'lgan.

Barcha mazkur seksiyalar 4 ta bo‘limga birlashtirilgan edi.

Birinchi bo‘lim – ma‘muriy-diplomatik seksiya;

Ikkinchi bo‘lim – harbiy seksiya;

Uchinchi bo‘lim – maorif va iqtisodiyot seksiyalari;

To‘rtinchi bo‘lim – tarixiy-inqilobiy, sho‘ro va sharq matbuot seksiyalaridan iborat bo‘lgan.

Ma‘muriy-diplomatik seksiyaga – Turkiston general gubernatorligi; viloyat boshqaruvi; Turkiston general-gubernatorligi diplomatik amaldorlari; Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi, umumjamoa mahalliy boshqaruvi, meditsina va veterinariya tashkilotlari arxiv jamg‘armalari kirar edi.

Yuridik seksiyalarga – viloyat arxiv jamg‘armalari, okrug sudlari va prokuraturalari; uyezd-xalqaro xalq sudi va notariuslar arxiv hujjatlari mavjud edi.

Harbiy seksiya – harbiy ish va ichki qismlarni o‘zida mujassamlashtirgan; boshqaruv, harbiy o‘quv, idora boshqaruvi, qizil armiya-ning hujjatlaridan iborat edi.

Iqtisodiyot seksiyasi – Turkiston moliya va nazorat palatasi; davlat va xususiy bank bo‘limlari; moliya; savdo, ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari yerchilik boshqaruvi, davlat mulklari va unga tegishli idoralar; suv xo‘jaligi idoralari; yo‘l xizmatlar; pochta va telegraf arxiv jamg‘armasi hujjatlaridan iborat edi.

Tarixiy inqilobiy seksiyada – Turkiston tumanlarini qo‘riqlash bo‘limlari; jandarm boshqaruvi; harbiy va fuqaroviy sudlar jamg‘armalari; siyosiy sud jarayonlariga tegishli; muvaqqat hukumat idoralari; inqilobiy tashkilotlar arxiv jamg‘armalari saqlanar edi.

Sho‘rolar matbuot nashriyoti seksiyasida – barcha matbuot materiallari, litografik yoki boshqa ko‘paytirilgan qarorlar, buyruqlar, plakatlar, shiorlar, kitoblar, chaqiriqlar, broshyuralar, jurnallar, shuningdek, syezdlardagi suratli grafik tasvirlar, mitinglar, yig‘ilish va inqilobiy rahbarlarning suratlari jamlangan edi.

Sharq seksiyasida – xalq sudlari jamg‘armalari, qozi va beklar, vaqf va boshqa musulmon-ruhoniy, fuqaroviy tashkilotlar arxiv hujjatlari mavjud edi.

Turkiston ASSR davlat arxiv jamg‘armasi seksiyasi – inqilobga cha sho‘rolar tashkilotlarining arxivlariga mo‘ljallangan edi. Ushbu idoralarda hujjatli materiallarni saqlash muddati 5 yil qilib belgilangan edi.

Shu munosabat bilan Arxiv ishi markaziy boshqarmasining 1921-yilning 30 sentabrdagi qarorida ta’kidlandiki, barcha oktabr inqilobidan keyingi va tugallangan yig‘majildlar hukumat idoralari-ning hujjatlari – o‘sha idoralarning o‘zida 5 yildan ortiq bo‘lmagan vaqtda saqlanishi mumkin edi. Aniqrog‘i, davlat arxiv fondiga saqlash muddati o‘tib ketmasdan topshirishlari lozim edi.

Harbiy seksiyaga sovet davri hujjatlarini topshirilishi boshqacharoq tarzda amalga oshirilgan. 1920-yilning 31 yanvardagi Turkiston front Inqilobiy kengashi qaroriga binoan bu seksiyaga harbiy qismlar, shtablar arxiv jamg‘armalari, sobiq boshqarma va sobiq harbiy idora boshqaruvi ya’ni eski armiya hujjatlari topshirilgan. Harbiy qismlar va Qizil Armiya shtabi arxivlari birinchi navbatda Turkiston front shtabiga va undan keyin esa harbiy seksiyaga – ya’ni idora va Arxiv ishi markaziy boshqarmasi kelishuviga muvofiq topshirilar edi, albatta.

1921-yil 20 maydagi Turkiston front qo‘mondonligi buyrug‘iga ko‘ra barcha arxiv jamg‘armalari, shtab tomonidan to‘plangan, shuningdek, viloyat arxiv bo‘limlari tomonidan ham barcha shtatlardagi asbob va inventari bilan birgalikda Arxiv ishi markaziy boshqarmasining harbiy seksiyasiga topshirilgan edi. Arxiv ishi markaziy boshqarmasining – harbiy seksiyasi – barcha harbiy arxivlarni, shuningdek, eskilarini ham Qizil Armiya, Turkiston Respublikasi hududidagi harbiy arxivlarini birlashtirar edi. Shunga binoan harbiy seksiya Turkiston ASSR Davlat arxiv jamg‘armasining bir qismini tashkil qilib va Arxiv ishi Markaziy Boshqarmasining ham shu bilan birgalikda – Turkiston front shtabi orqali – Inqilobiy kengashga bo‘ysunar edi.

Boshqarma boshlig'ini tayinlash Arxiv ishi markaziy boshqarmasi va Inqilobiy kengash roziligiga asosan tayinlanishi lozim edi. Bu holat seksiyaga shtablar, boshqarma, harbiy o'quv yurtlari va qismlari ustidan nazorat qilishni qiyinlashtirar, shuningdek, Turkiston respublika davlat arxiv jamg'armalari hujjatlarini komplekslashtirishni murakkablashtirar edi. 1920-yillarda arxiv jamg'armalari jamlanmasi bo'yicha olib borilgan ishlar, tashkilotlardagi arxiv sohasidagi faoliyatlar, ulardagi arxivlarni tekshirilishi natijasida TASSR markazidagi arxiv jamg'armalarini va joylardagi arxiv jamg'armalarini hisoboti olindi. 1920-yilning martida Arxiv ishi markaziy boshqarmasi Turkiston o'lkasidagi o'quv yurti boshqarmalarining 5279 yig'majildini, aprelda Samarqand, Qo'qon, Perovsk va Turkistondan 40 ga yaqin aloqa qoplarida pochta-telegraf xizmati idoralari arxiv hujjatlarini qabul qildi. O'sha yilning may oyida adliya komissariati – Toshkent sud palatasi va okrug sudining 41 arava arxiv hujjatlarini topshirdi, oktabrda ichki ishlar Komissariatidan Farg'ona viloyati Boshqaruvi arxiv jamg'armasi qabul qilib olindi.

1920-1921-yillarda 500 arxiv jamg'armasi hisobga olindi. 1921-yilning oxirida Arxiv ishi markaziy boshqarmasi dalolatnoma saqlanmasi 159 ta harbiy va fuqaroviy idoralardan 305 mingdan ortiq yig'majild qabul qildi, ulardan 55 ming yig'majild harbiy seksiyaga topshirildi. 1922-yilda Arxiv ishi Markaziy boshqarmasiga 83 ta fuqaroviy tashkilotdan 200 mingga yaqin yig'majild kelib tushdi, shu jumladan 43 ta sho'rolarga tegishli va bundan tashqari, 27716 yig'majild harbiy seksiyaga qabul qilindi. Ushbu dalillar 1920-yillarning boshidan arxiv ishi va materiallari sohasidagi faoliyatni konsentratsiyalashuvi va o'sib borganligidan dalolat beradi.

Birinchi navbatda ta'kidlamog'imiz lozimki, hokimiyat strukturasiidagi arxiv jamg'armalari tartibga keltirildi. Shunday qilib, 1920-yilda Turkiston inqilobiy harakatini yoritgan arxivlarga nisbatan qidiruv ishlari olib borildi. Turkiston arxiv bo'limi jamg'armasi, harbiy ish sudlari, Turkiston general-gubernatorligi maxfiy qismlari va boshqalarga nisbatan arxiv hujjatlariga qiziqish juda katta

edi. Joylarda to'planib, chang bosib yotgan yig'majild va hujjatlar arxiv saqlanmalariga topshirilib, arxivlarda tartibga keltirildi hamda ularga opis ro'yxatlari tuzildi.

Buxoroda sovet hukumati o'rnatilgach, bojxona arxivlarini yo'qolib ketishdan saqlab qolish uchun 1920-yilning sentabrda inspektor K.M. Fyodorov boshchiligida ekspeditsiya jo'natildi. Uning tarkibiga katta arxivarius A.V. Alekseyeva, arxivarius M.Qosimova, bosh arxiv boshlig'i D.I. Nechkin rahbarligidagi kishilar a'zo edilar. Ekspeditsiya tomonidan yirtilgan va buzilgan, olovdan kuygan Buxoro amirining arxiv hujjatlari to'plandi. Shuningdek, ekspeditsiya tomonidan Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining arxivini Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga jo'natish tashkillashtirildi.

Bir vaqtning o'zida arxiv materiallari tartibga keltirilishi bilan ulardan ilmiy, siyosiy-tashviqot va ma'lumotnoma maqsadida foydalanish boshlandi. Idora va tashkilotlar Arxiv ishi markaziy boshqarmasidagi hujjatlar borasida ogohlantirilar, bu hujjatlar ularga amaliy vazifalarini hal qilishda yordam berishi mumkin edi. Tematik va biografik savollar soni yildan-yilga oshib bordi. Shunday qilib, 1920-yil Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga 60 ta savol tushgan bo'lsa, 1921-yilda 459 ta, 1922-yil 580 ta, 1923-yilning mayidan – 1924-yilning mayigacha 444 ta masala bo'yicha murojaat qilindi.

Arxiv ishi Markaziy boshqarmasi, shuningdek hujjatli materiallar ko'rgazmasini tashkil qildi. Birinchi ko'rgazma 1922-yilning martida Sho'rolar uyida o'lka partiyalari konferensiyasi ishi kunlarida tashkil qilindi. Ko'rgazmada 82 ta hujjat namoyish qilindi – Turkiston inqilobiy harakati tarixiga oid bo'lgan, albatta. Keyingi ko'rgazma Istpartkom tomonidan 1924-yilning mayida Turkiston Kompartiyasi VIII syezdi munosabati bilan tashkil qilingan edi. Ko'rgazma O'rta Osiyodagi inqilobiy harakat tarixi, fuqarolar urushiga bag'ishlanib, unda 529 ta rasm va 654 ta yozma hujjatlar namoyish qilindi. Ko'rgazmani ko'rish uchun 4546 kishi tashrif buyurishgan edi.



Arxiv ishi markaziy boshqarmasi – Turkistondagi inqilobiy harakati muzeyi xonalarini tashkil qilishda ishtirok etdi. Tarixiy-inqilobiy seksiya tomonidan o‘zi uchun 500 ga yaqin surat va yozma hujjatlar tanlab olindi.

Arxiv materiallaridan partiya – davlat rahbarlari tomonidan ham tadqiqot maqsadida foydalanilgan. Masalan, 1924-yilda Turor Risqulov Moskvadan turib – Arxiv ishi markaziy boshqarmasi rahbariyatidan yovmut turkmanlarining 1916-yilgi qo‘zg‘oloni haqidagi yig‘majildni, Arxiv ishi markaziy boshqarmasining harbiy seksiyasidan Kaspiyorti viloyatidagi 1916-yilgi qo‘zg‘olon, shuningdek, Xivadagi Chimboy tumani qo‘zg‘oloni to‘g‘risidagi yig‘majidlarni unga jo‘natishni so‘ragan. Oxir-oqibatda Turor Risqulov “O‘rta Osiyo xalqlarining 1916-yilgi qo‘zg‘oloni” haqidagi kitobini chop etdi.

Hujjatli materiallardan o‘quv zali orqali ham tadqiqotda foydalanilar edi. Masalan, 1922-1924-yillarda 13717 ta yig‘ma jild foydalanishga berilgan edi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Turkiston ASSRda arxiv ishi qanday tashkil qilingan?
2. 1919-1924-yillardagi arxiv ishida qanday o‘zgarishlar ro‘y byerdi?
3. XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonda qaysi viloyatlar arxiv byurolari tashkil etildi?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Основные декреты и постановления советского правительства по архивному делу 1918-1922 гг. – М., 1985.
2. Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). –Т.: 1970.

3. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. – М., 1959.
4. Бескровный Л.Г., Гольденберг Л.А Систематизация картографических материалов (на примере ЦГВИА). // «Советские архивы», 1971. – № 2.
5. Ботвинников А. Д., Ройтман И. А. Обучение чтению чертежей в процессе профессиональной подготовки учащихся. – М., 1962.
6. Бурова Е. М., Л.П. Афанасьева, Е.Ф. Алексеева. Архивоведение. – М., 2002.
7. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф.дисс...канд.ист. наук. – Ташкент, 1995.
8. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. – М., 1957.
9. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие. – М., 1946.
10. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.

## 7-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHINING TASHKIL QILINISHI

---

### Reja:

1. Turkistonda arxiv ishi.
2. 1930-yillarda O‘zSSRda arxiv ishi.

**Turkistonda arxiv ishi.** O‘zbekistonda 1920-yillarda arxiv ishini tashkil qilinishida – Istpart (tarixiy partiya)ning rolini ya’ni inqilobiy harakat va kommunistik partiya tarixi materiallarini yig‘ish va o‘rganish komissiyasining faoliyatini alohida ta’kidlashimiz lozim.

Turkistonda Istpartni tuzishda D. Manjariy, S.D. Muraveyskiy, P.T. Turaqulov va boshqalar tashabbus ko‘rsatdilar. 1921-yilning kuzidan bu komissiya Turkiston mahalliy arxivlaridagi hujjatlarni hisobotini olish bo‘yicha ish (inqilob va fuqarolar urushi tarixiga oid, albatta) ga kirishdi. Entuziastlar – inqilob harakatini ishtirokchilari xotiralari, sho‘rolar hokimiyatini o‘rnatilishi, birinchi tarixiy-partiyalarning tarixini nashr qilishga tayyorgarlikni boshlab yuborishdi. Guruh taklifiga asosan 1921-yilda Turkistonda inqilobiy harakatni o‘rganish komissiyasi tuzildi, 1922-yilning kuzida Turkiston byu-roning Istpartiya ro‘yxatidan o‘tdi.

Turkiston byuro Istpartiya tayinlashi bilanoq hujjat va manbalar to‘plashga kirishib ketdi. Bunga Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tomonidan tarixiy inqilobiy seksiyasining arxiv ishini markazlashtirishi ham sabab bo‘ldi. Istpart – amaliy jihatdan partiya va inqilob tarixi bo‘yicha hujjatlarni to‘plash va saqlashga harakat qilgan birinchi idora hisoblanar edi. Istpartga Turkiston o‘lka kompartiyasi arxivlari, Toshkentdagi dashnoqlar partiyasi; Yettisuv qo‘riqlash bo‘limi; jandarm bo‘limlari; O‘rta Osiyo temir yo‘li, Toshkent prokurori, sud palatalari; 1917-yildagi mahalliy partiya tashkilotlari va syezd bayonnomalari, keyinchalik – varaqalar, suratlar, adabiyotlar

va boshqa arxiv hujjatlari topshirildi. 1924-yildan partiya qo‘mitalari arxivlari ham topshirila boshladi.

Bu xatti-harakatlar natijasida katta miqyosdagi qo‘lyozma jamg‘armasi to‘planib, unda 1919-yil yanvardagi Osipovchilar qo‘zg‘oloni, 1905-1907-yillar inqilobi voqealari va boshqalar haqida ma‘lumotlar yoritilgan edi.

Turkiston Isparti tomonidan arxivlarni tartibga keltirishda ulkan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda 1920-yillar arxiv ishi to‘g‘risida fikr yuritganda, muzey va qadimiy yodgorlikni, san‘at va tabiatni asrash bo‘yicha Turkiston qo‘mitasi (Turkistonkomstaris, keyinchalik Sredazkomstaris, Uzkomstaris) faoliyatini alohida ta‘kidlamog‘imiz lozimdir.

Sho‘rolar hukmronligining sinfiylashtirish siyosati arxiv materiallarini to‘plashga qattiq zarba beradi. Buning oqibatida ko‘plab nodir manbalar “ishchilar inqilobi” qiziqishlariga to‘g‘ri kelmaydi, deb topiladi. Vaziyatni quyi arxiv ishchilarining uquvsizligi, ayniqsa idoraviy tashkilotlarning tarixiy hujjatlarini u yoki bu sohaga oid qimmatligini – aniqlanmaganligi yanada chigallashtirib yuboradi. Oxir-oqibatda obyektiv ilmiy tadqiqotlarning faoliyati o‘z-o‘zidan cheklanadi. Arxiv hujjatlarini saqlash uchun maxsus binolarning yo‘qligi va malakali arxivshunoslarning yetishmasligi shu davrlardagi arxiv ishining – muammoli jabhalari edi.

1924-1925-yillarda O‘rta Osiyo Respublikalari (Turkiston ASSR, Buxoro, Xorazm Xalq Respublikalari) da milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazildi. Natijada, sobiq SSSR tarkibida O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O‘z SSR tarkibida) hamda RSFSR tarkibida Qozog‘iston ASSR va Qirg‘iziston avtonom viloyati tashkil qilindi. Buning natijasida O‘zbekiston SSR ning davlat arxiv tashkilotlari vujudga keldi. Arxiv hujjatlari yangi tuzilgan respublikalar o‘rtasida quyidagi tartibda bo‘lindi. Ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan arxiv jamg‘armalari O‘rta Osiyo Markaziy davlat arxivida - Toshkentda saqlanadigan bo‘ldi. Har bir respublikaga oid arxiv jamg‘armalari shu respublikaga beriladigan bo‘ldi. O‘rta

Osiyo Prezidiumining 1924-yil 13 dekabridagi ajratish komissiyasi-ning qaroriga ko‘ra joylardagi va umumittifoq arxiv jamg‘armalari esa – o‘sha joydagi arxiv boshqarmalariga berilishi ta‘kidlandi.

Bunga asosan, Turkmaniston SSR, Qirg‘iziston, Tojikiston va Qoraqirg‘iz ASSR arxiv jamg‘armalari sobiq arxiv Arxiv ishi markazi-ziy boshqarmasi arxiv saqlanmalarida saqlanayotgan edi, endi esa shu respublikalarga beriladigan bo‘ldi.

1924-yil 28 dekabrda maxsus qaror bilan O‘zbekiston SSR MIK huzurida O‘zbekiston SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. O‘zbekiston hududida tashkil bo‘lgan barcha arxivlar, masalan, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlar arxiv idoralari vujudga kelgan arxiv jamg‘armalari O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirildi.

1925-yilning 25 fevralida arxiv idoralariga RSFSR Markaziy arxivining №: 91610 “siyosiy qiduruvdagi shaxslarning kartochkasini tuzish haqida yashirin buyrug‘i” berilgan edi. Bunga ko‘ra maxfiy agenturaning ismli, tizimli, alifboli va shtatli xodimlarning faoliyatiga doir katalog va fondlari tuzildi. Arxiv jamg‘armalari O‘zbekiston SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirildi. Shuningdek, O‘rta Osiyo ahamiyatiga ega bo‘lgan arxiv jamg‘armalari ham O‘rta Osiyo Markaziy arxivi tuzilmaganligi uchun O‘zbekiston arxiv boshqarmasiga topshirildi, chunki ushbu O‘rta Osiyo arxiv jamg‘armalari–Toshkentda vujudga kelgan edi. Shunday qilib, O‘zbekiston SSR arxivida faqat respublika tarixiga oid hujjatlargina emas, balki butun O‘rta Osiyo tarixiga doir materiallar saqlana boshlandi.

O‘zbekiston SSR MIK va XKS ning 1925-yil 25 iyul qarori bilan “O‘zbekiston SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Bu nizomga ko‘ra respublika Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF) tashkil qilindi. Bu jamg‘armaga hukumat, savdo-sanoat, kooperativ, kasaba uyushmalari tashkilotlari arxivlari, shuningdek, diniy va shaxsiy arxivlar kiritiladi, deb ko‘rsatildi.

1929-yil may oyida O‘z SSR MIK Prezidiumi O‘z SSR Arxiv ishi

Markaziy boshqarmasi ma'ruzasini eshitdi. Qabul qilingan qarorda shu uqtirildiki, markaziy boshqarma tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar uning oldiga ilmiy tashkilot sifatida qo'yilgan talablarga javob bermaydi. Qarorda markaziy boshqarma o'z faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlariga, hujjatlarni e'lon qilishga, hujjatlar to'plamlari tayyorlashga alohida e'tibor berishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

**1930-yillarda O'zSSRda arxiv ishi.** 1930-yilning 9 apreridayoq O'zbekiston SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi "O'zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi qoshida Arxivshunoslik institutini ochish va unga RSFSR markaziy Arxiv boshqarmasi huzuridagi arxivshunoslik kabineti maqomini berish to'g'risida" qaror qabul qildi. 1931-yilning oktabrida Arxeografik komissiyaga ixtisoslashtirilgan Arxeografiya (Leningrad) instituti bo'limi tashkil etildi.

1931-yil 20 mayda O'zbekiston SSR MIK O'zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi va uning mahalliy idoralari to'g'risidagi nizom haqida qaror qabul qildi.

1932-yildan Tarixiy arxeografiya instituti va Kommunistik akademiya tarixi instituti bazasida – sobiq SSSR Tarix instituti fanlar Akademiyasi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot institutida boshqa sektorlar qatorida, yordamchi ixtisoslashtirilgan arxeografiya sektorlariga ham e'tibor qaratildi.

30-yillarining ikkinchi yarmidan «xalq dushmanlariga qarshi kurash» shiori ostida olib borilgan siyosiy qirg'inlarga NKVD davlat arxivlaridan ham o'z maqsadlari yo'lida foydalandi.

1934-yilning 1 dekabrda S.M Kirovning o'ldirilishidan so'ng, ommaviy repressiya boshlanib ketdi. Bu ommaviy qatog'onlarga arxiv hujjatlari ham jalb qilindi.

1935-yil mahalliy arxivlar tarixida ham katta voqea sodir bo'ldi. Sobiq SSSR MIK shu yili barcha tumanlarda tuman davlat arxivlarini tuzishni tavsiya qildi. O'z SSR MIK ning 1935-yil 21 dekabr qaroriga binoan respublikaning barcha shahar va tumanlarida davlat arxivlari tashkil qilindi. 1936-yili respublikada 31 ta tuman davlat arxivlari va arxivi bo'lmagan shaharlarda shahar davlat arxivlari tuzildi.

1936-yilda respublika arxivlarida 1534 ta arxiv jamg'armalari va 1 mln 001 ming 680 saqlov birligidagi hujjatlar saqlanardi. 1938-yilda jamg'armalar soni 3770 ta va 1483670 saqlov birligidagi hujjatlardan, ularning 534419-saqlov birligi ro'yxatga olingan edi. 1934-1938-yillarda tashkilot va fuqarolarga 2100 arxiv ma'lumotnomalari berildi, 1934-1939 yillarda o'quvchilar soni 318 taga etib, ular tomonidan 27247 saqlov birligidagi hujjatlar foydalanildi.

1937-yil 2 martdagi O'zSSR MIK Prezidiumi qaroriga ko'ra, barcha tashkil etilgan Markaziy davlat arxivlari – tarixiy, oktabr inqilobi, kasaba – uyushma harakatlari, harbiy, kino, surat, ovozli hujjatlar, bir necha yil oldin tashkil etilgan Markaziy arxiv boshqarmasi tarkibiga kiritildi.

1938-yil 15 yanvardagi sobiq SSSR Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekistonda – Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan edi, bular o'z-o'zidan Markaziy arxiv ishini yaxshiladi va tartibli tuzilma vujudga kelishi uchun zamin yaratdi. Shu munosabat bilan 1938-yil iyunida shu viloyatlarda arxiv boshqarmalari tuzildi.

1938-yilning 16 aprelda sobiq SSSR Markaziy arxiv boshqarmasi sobiq SSSR ichki ishlar xalq komissariati (IIXK)ning qaramog'iga o'tkazildi va sentabrdan sobiq SSSR NKVD Bosh arxiv boshqarmasi deb o'zgartirildi. 1939-yili respublika arxiv tashkilotlari O'zSSR MIK huzuridan O'zSSR ichki ishlar xalq komissariati (IIXK) qaramog'iga o'tkazildi. Ma'lumki, NKVD deb nomlangan bu tashkilot 1930-yillardagi qatag'onlarni o'tkazgan. Uning roli, ahamiyati ortib ketishi va arxiv hujjatlari bu tashkilotga ko'proq kerak bo'lishi sababli sobiq SSSR va O'zSSR da arxivlar IIXKga o'tkazildi. Shu munosabat bilan O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi o'rniga O'zSSR Ichki ishlar xalq komissariati Arxiv bo'limi tashkil qilindi. Joylarda esa, viloyat IIXK boshqarmalarining viloyat arxiv bo'linmalari va viloyat davlat arxivlari tuzildi.

O'n yil mobaynida (1929-1939-yillar) Arxiv idoralari budjeti ancha oshdi: 300 mingdan 570250 rublgacha, amalda ikki barobar.

Arxiv tashkilotlari kadrlar bilan ham ancha mustahkamlandi. Ular soni 1929-yilda 34 tani, 1936-yilda – 70 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1941-yilga kelib ularning soni 111 taga yetdi. 1929-yilda, masalan, arxiv tizimida bironta tugallangan oliy ma'lumotli ishchi yo'q edi. Yetti yildan so'ng 1936-yilda ular soni 4 taga yetdi. Bundan tashqari, urushgacha bo'lgan davrda Toshkentga, Moskvadagi tarix - arxiv institutini bitiruvchilari N.G. Manin, O.V. Spiridonova, A.A. Tyamaevalar kelishdi. Toshkent arxiv idoralarida A. Byersenev, G.N. Sibirova va boshqalar – oliy ma'lumotli tarixchi ma'lumotiga ega bo'lgan holda ish olib bordilar.

1932-1941-yillarda Moskva davlat tarix-arxiv instituti qoshidagi malaka oshirish kursiga shahar, tuman, viloyat arxivlaridan 18 kishi yuborildi. Toshkentda Markaziy arxiv boshqarmasi qoshidagi malaka oshirish kursida shahar, tuman, viloyat arxivlari xodimlari muttasil malakasini oshirib bordilar. Shunday qilib, 1938-yilda Toshkent shaharini o'zidagina 43 ta tashkilotning arxiv materiallari qayta ishlandi. Ulardan 31 tasi narkomat (xalq qo'mitasi) va markaziy tashkilotlar edi. Tartibga keltirilgan yig'ma jildlar soni 690833 saqlov birligiga yetdi.

1936-yilda respublika arxivlarida 1534 ta arxiv jamg'armalari va 1mln 001 ming 680 saqlov birligidagi hujjatlar saqlanardi. 1938-yilda jamg'armalar soni 3770 ta va 1483670 saqlov birligidagi hujjatlardan, ularning 534419 saqlov birligi ro'yxatga olingan edi. 1939-yilda Toshkentdagi olimlar uyida O'zSSR tashkil topganligining 15 yilligiga bag'ishlangan inqilobiy va milliy ozodlik harakatini yorituvchi, sho'rolar hukumatining o'rnatilishi, O'zbekistonda "sotsialistik" qurilishning borishi haqidagi arxiv hujjatlarining ko'chma ko'rgazmasi tashkil etildi.

1939-yilning 16 sentabrida NKVD sobiq SSSR bosh arxiv boshqarmasi tomonidan arxiv bo'limlari boshliqlariga buyruq jo'natilib, NKVD sobiq SSSR tomonidan haligacha ko'p sonli arxiv materiallari o'rganilmaganligi va bu materiallar "NKVD sobiq SSSR hodimlari uchun juda katta operativ qiziqish uyg'otishi mumkinligi" ta'kidlandi.



Olimlarimizning hisob-kitoblariga ko'ra, 1937-1939-yillarda 40 mingdan ortiq kishi davlat xavfsizlik idoralari tomonidan qamalgan, shundan 6 ming 920 nafari otib tashlangan. Bu esa "sovetlarning davlat daraxti, fuqarolarning daryo-daryo qoni evaziga kun ko'rgani"ni ko'rsatadi.

1940-yilning 23 oktabrida NKVD sobiq SSSR ning №:001345 sonli "Arxiv materiallaridan operativ-chekistlar ishlarida foydalanishi to'g'risida"gi maxsus buyrug'i – Ichki ishlar narkomi Beriya imzosi bilan hamma joylarga yuborildi. Arxiv xizmati bu davrga kelib siyosiy repressiya va g'oyaviy kurashda – instrument vazifasiga aylantirildi.

Arxiv jamg'armalaridan davlat idoralarining siyosiy va amaliy faoliyati uchun keng foydalanildi. Arxivchilik sohasidagi totalitar siyosatning olib borilishi-arxivshunoslikning ilmiy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatib, maxfiy rejim – amaliy jihatdan arxiv jamg'armalariga olib boradigan eshiklarni yopib qo'ydi. Natijada tarixiy fanda chuqur inqiroz vujudga keldi.

### **Savol va topshiriqlar:**

3. O'zSSR kasaba uyushmalari markaziy davlat arxivi qachon tashkil etilgan? O'zbekistonda idoraviy arxiv hujjatlarini saqlash borasidagi qanday siyosat amalga oshirildi?
4. Davlat arxivlari faoliyatini yaxshilash borasida qanday chora-tadbirlar qo'llangan?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). – 1970.
2. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. – М., 1959.
3. Бескровный Л.Г., Гольденберг Л.А. Систематизация

- картографических материалов (на примере ЦГВИА). // «Советские архивы», 1971, № 2.
4. Ботвинников А. Д., Ройтман И. А. Обучение чтению чертежей в процессе профессиональной подготовки учащихся. – М., 1962.
  5. Бурова Е. М, Е.Ф. Алексеева, Л.П. Афанасьева. Архивоведение. – М., 2002.
  6. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф.дисс...канд.ист. наук. – Ташкент, 1995.
  7. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. – М., 1957.

## 8-MAVZU. URUSHDAN KEYINGI DAVRDA O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHI

---

### Reja:

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi.
2. KSOH markaziy davlat arxivining tashkil qilinishi.
3. 1950-yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi.

**Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi.** 30-yillarning oxiri 40-yillarning boshi – sobiq SSSRning II Jahon urushiga kirishi bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston – ushbu unitar davlat tarkibida uning eng ishonchli xalq xo‘jaligi obyekti, zavod va fabrikalari uchun xomashyo bazasi, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy kollektivlarni evakuatsiyasi uchun juda qulay makon edi. Ikkinchi jahon urushi munosabati bilan Toshkentga juda katta yirik olimlar, sharqshunoslar, tarixchi, tilchilar va boshqalar kelishdi. Ular orasida akademik R. Vipper, B. Grekov, V.V. Struve, sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi muxbir-a‘zolari E. Bertels, E.A. Kosminskiy, K. Riksanov, V. Pichyut, K.V. Trever, A.D. Udalsov, V. Shishmarov, A.Yakubovskiy, professorlar S.N. Volk, M.V. Levchenko, L.A. Matsulevich, M.V. Nechkina va boshqalar bor edi. Natijada RSFSR va O‘zbekiston olimlari o‘rtasida juda yaxshi ilmiy aloqa o‘rnatildi. V.V. Struve va boshqa mashhur olimlar – mualliflar jamoasiga O‘zbekiston tarixi bo‘yicha, arxiv materiallarini qayta tiklashda katta yordam berishdi. 1940-yilda (yanvar oyida) sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi-ning O‘zbekistondagi filiali – O‘z FA ochildi. Uning tarkibida Tilshunoslik instituti, Adabiyot va tarix-ijtimoiy yo‘nalishlarni yorituvchi, shu jumladan arxivshunoslik sohalari ham yo‘lga qo‘yildi.

1941-yilda arxiv idoralari tomonidan 98 ta tashkilotning arxivlari tartibga keltirildi. Bundan tashqari, 41 ta tashkilotda bu ishni amalga

oshirishga kirishildi va 20 ming saqlov birligidagi hujjatlar makalaturaga topshirildi.

1941-yil O‘z SSR Markaziy arxivi va Markaziy harbiy davlat arxivi 35 ming saqlov birligidagi hujjatlarni qabul qildi. 1942 yilda yuqorida tilga olingan arxiv va Toshkent viloyati davlat arxivlari tomonidan 65 mingga yaqin saqlov birligidagi hujjatlar qabul qilindi. O‘sha yillardagi arxiv ishlari borasida olib borilgan yillar ma‘lumoti quyidagicha bo‘lgan: 1940-yil respublika arxivlarida hujjatlar soni 1.263,786, 1942-yilda esa – 1.710.177 saqlov birligiga oshgan, boshqacha qilib aytganda, 2 yilda arxiv saqlanmalari 0,5 millionga yaqin hujjatlar bilan to‘ldirilgan.

1940 yili O‘z SSR tarkibida Andijon, Namangan, Surxondaryo va keyinroq, 1943-yili Qashqadaryo viloyatlari tashkil etilishi munosabati bilan viloyat IIXK boshqarmasida arxiv bo‘linmalari va viloyat davlat arxivlari tashkil qilindi. 1940-yillarda yana quyidagi arxivlar: Buxoro viloyati filiallari – Qorako‘l, G‘ijduvon, Gala Yassi (1943); Navoiy viloyati filiallari – Nurota (1946); Tomdi buloq (1946) shaharlarida; Qashqadaryo viloyati filiallari – Beshkent, Shahrisabz shaharlarida (1943); Samarqand viloyat filiallari – 1944-yilda Ulug‘bek posyolkasida va Kattaqo‘rg‘onda, 1946-yilda Oqtosh shaharlarida vujudga keldi. Andijon viloyati davlat arxivi filiallari – Oltinko‘l qishlog‘ida (1946), Poytuk (1949) shaharlarida tashkil qilindi. Toshkent viloyati davlat arxivi filiallari – Qibray qishlog‘ida (1944), Chirchiq va Yangiyo‘l (1943) shaharlarida ochildi. Jami 17 ta viloyat arxiv bo‘limlari tuzildi.

Shunday qilib, 1941-yil 2 yanvarida arxiv idoralarida 113 kishi ishlagan bo‘lsa, 1945-yilning 1 yanvarida ular soni 306 taga yetdi. Ularning 30 tasi oliyma‘lumotli xodimlar edi. Ularning ichida tarixchi-arxivchilar: Z.I. Agafonova, A.I. Belkova, N.G. Manin, L.M. Landa, Y.N. Seriy, A.A. Xalfin va boshqa malakali mutaxassislar bor edi, biroq keyingi yillarda hujjatlarni davlat arxiviga qabul qilish kamaydi. Arxivlarda hujjatlarni qabul qilish va saqlashga joy yetishmas edi. 1944–1945-yillarda davlat arxivlariga 48055 saqlov birligidagi hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tashkil qilingan KSOH Markaziy davlat arxivi tomonidan 1944-1945-yillarda 165896 suratli hujjat, 402701 aerosuratli surat, 1794 kinohujjat va 6949 fonohujjatlar - Toshkent arxivlari, shuningdek, idora va tashkilotlarda mavjudligi aniqlandi.

KSOH arxivi tashkil topganida, uning suratlitekasida 8 ming saqlov birligidagi hujjatlar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1944-yilda saqlashga 12 ming hujjat va 1945-yilda - 3420 suratli hujjat topshirildi.

Urush sharoitida davlat arxivlari tartibga solinmagan arxivlarni, asosan frontga jo'natilgan harbiy qismlar arxivlarini qabul qilishga majbur bo'ldilar. Davlat arxivlarining asosiy vazifalaridan biri tartibga solish edi. Respublika davlat arxivlaridan 1941-yili 100 ming saqlov birligidagi hujjatlar tartibga solindi. 1942-yil rejasiga ko'ra, 162305 saqlov birligidagi hujjat tartibga solinishi kerak edi. Birinchi yarim yillikda 117858 saqlov birligi tartibga keltirildi. 1944-1945-yillar respublika davlat arxivlarida 136.370 saqlov birligidagi hujjatlar qo'shimcha tarzda ro'yxatlashtirildi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanish sohasida ham bir qator ishlar qilindi. Xalq xo'jaligi maqsadida foydalanish uchun ko'p hujjatlar topilib, tegishli tashkilotlarga yuborildi.

1942-yilda ro'yxati tuzilmagan materiallar 787240 saqlov birligida edi. Bu o'sha paytdagi arxivlarda saqlanayotgan arxiv hujjatlarining 50 % ini tashkil qilar edi.

**KSOH Markaziy davlat arxivining tashkil qilinishi.** 1942-yil noyabrda Toshkent shahrida va Qozog'iston respublikalari bo'limlari arxiv xodimlarining kengashi bo'lib o'tdi. Qabul qilingan qarorda bu respublikalar arxiv idoralari hujjatlarini ehtiyot qilishni ta'minlash, tartibga solish va ulardan urush manfaatlari yo'lida foydalanishda katta yutuqlarga erishgani e'tirof etildi. Shu bilan birga O'z SSR arxiv idoralari ishida ayrim kamchiliklar mavjudligi hamda shahar tuman arxivlari birmuncha inqirozga uchraganligi, zaiflashgani va Markaziy davlat arxivlarida ishchilarning arxivchilarning yetishmasligi, O'z SSRda KSOH Davlat arxivi tashkil etilmaganligi

ko'rsatib o'tildi. Kengash arxiv hujjatlarini ehtiyot qilish choralari ko'rish, ilmiy va tashviqot maqsadlarida hujjatlardan keng foydalanishni tashkil etish zarurligini uqtirib o'tdi. Urush davrining qiynchiliklariga qaramay, respublika hukumati arxiv ishini yaxshilash sohasida ancha ishlarni amalga oshirdi.

O'z SSR XKS ning 1943-yil 18 fevral qarori bilan O'z SSR KSOH Markaziy davlat arxivi tashkil qilindi. 108 ta shahar, tumanlarda davlat arxivi ochilib, ularning mudirlarini oylik ish haqi miqdori oldingi 110 so'm o'rniga 300 so'm qilib tasdiqlandi.

1943-yilning 27 sentabrda sobiq SSSR XKS qarori bilan "O'z SSRda Fanlar Akademiyasi tuzish" haqida ko'rsatma berildi. Shu yilning 4 noyabrda Toshkentda O'z SSR FA tashkil topganligining tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. 1940-yilning 2 iyulida O'z SSR XKS Markaziy Arxiv boshqarmasi O'z SSR NKVD Arxiv bo'limi deb o'zgartirildi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston ASSR MA boshqarmasi – Qoraqalpog'iston ASSR NKVD Arxiv bo'limiga aylantirildi. Joylarda esa, Xorazm, Buxoro, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida viloyat IXXK boshqarmalarining viloyat arxiv bo'linmalari va viloyat davlat arxivlari tuzildi.

1944-yil yanvarida O'z SSR Davlat kutubxonasi Sharq bo'limi bazasida respublika Fanlar Akademiyasi Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tashkil qilindi (birinchi direktor – prof. A.A.Semyonov edi).

Respublika hukumati qarori bilan bu institutga saqlash uchun va o'rganish uchun Sharq tilidagi qo'lyozmalar (Toshkent Davlat Kutubxonasida to'plangan) topshirildi. Keyinchalik institutga O'zSSR FA fundamental kutubxonasidan qo'lyozma asarlar va boshqa hujjatlar, A.Navoiy nomidagi Davlat muzeyi va boshqa tashkilotlardan ham hujjatlar qabul qilindi. Institut ilmiy faoliyati boshlanishida hammasi bo'lib 6102 jildli qo'lyozma va 6000 ga yaqin litografik kitoblar to'plandi.

Institutning ilmiy faoliyatining ilk kunlarida Davlat ommaviy kutubxonasidan kelgan, unchalik katta bo'lmagan olimlar guruhi

ish olib bordi. Ular A.A. Salimov, I. Adilov, D.G. Varonovskiy, A. Muradov, A. Nasirov, M.A. Salye, E. Muhammedxadjayev, A.I. Ageyev, shuningdek, Leningraddan evakuatsiya qilingan sharq-shunoslar guruhlarini bor edi.

1946-yilning 17 aprelida umumittifoq respublikalari arxiv va IIV bo'limlari boshliqlarining majlisida arxiv idoralarining keyingi yo'nalishlari belgilab olindi. Urushdan keyingi yillarda arxivchilar oldida turgan muhim vazifa arxiv materiallariga ilmiy ma'lumotnoma apparati, ma'lumotnomalar tuzish ishi edi. Hujjatlardan foydalanishni yaxshilash uchun ko'rsatkich (putevoditel)lar, ilmiy ro'y-xatlar, kataloglar va boshqa axborotnomalar tayyorlash zarur edi. Bu ishlarni amalga oshirishdan avval arxivchilar davlat arxivlarida saqlanayotgan tartibsiz arxiv jamg'armalarini tartibga soldilar.

Bu masalalar – 1948-yil 16-17 iyul kunlari Moskvada, sobiq SSSR tarixchi-arxivchilarining RSFSR XKSning, "Arxiv ishlarini qayta tiklash va markazlashtirish to'g'risida"gi qarorining 30 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiyasida ham muhokama qilindi. Yuqoridagi konferensiyada mamlakatdagi arxiv qurilishining maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Shu bilan birga O'z SSR arxiv idoralari ishida ayrim kamchiliklar mavjudligi hamda shahar, tuman arxivlari birmuncha inqirozga uchraganligi, zaiflashgani va markaziy davlat arxivlarida ishchilarining, ya'ni arxivchilarning yetishmasligi, O'z SSR da KSOH davlat arxivining joylardagi bo'limlari tashkil etilmaganligi ko'rsatib o'tildi. Anjuman a'zolari tomonidan arxiv hujjatlarini ehtiyot qilish choralari ko'rish, ilmiy va tadqiqot maqsadlarida hujjatlardan keng foydalanishni tashkil etish zarurligini uqtirib o'tdi.

Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekistonda arxiv ishi tarixida eng og'ir yillardan biri bo'ldi. Adolatsiz urushning boshlanishi respublikamiz xalqining dushmanga nafratini va Vatanga mehrini, vatanparvarligini kuchaytirdi. Bir necha arxivchilar ixtiyoriy ravishda frontga jo'nab ketdilar. Arxiv tashkilotlari xodimlari dushmanni tezda tor-mor etishga, g'alabaga erishishga qaratilgan ijtimoiy

tadbirlarda faol ishtirok etdilar. Toshkent shahar arxiv tashkilotlari jamoalari mudofaa jamg'armasiga har oy o'z maoshlarining 2 foizini o'tkazib turdilar.

1941-yilda arxiv idoralarida 98 ta tashkilotning arxivlari tartibga keltirildi. Bundan tashqari 41 tashkilotda bu ishni amalga oshirishga kirishildi va 20 ming saqlov birligidagi hujjatlar makalaturaga topshirildi. 1941-yil O'z SSR Markaziy Arxiv va Markaziy harbiy davlat arxivi 35 ming saqlov birligidagi hujjatlarni qabul qildi. 1942-yilda yuqorida tilga olingan arxiv va Toshkent viloyati davlat arxivlari tomonidan 65 mingga yaqin saqlov birligidagi hujjatlar qabul qilindi. O'sha yillardagi arxiv sohasida olib borilgan ishlarining umumiy ma'lumoti quyidagicha: 1940-yil respublika arxivlarida arxiv hujjatlari soni 1.263.786, 1942-yilda esa, 1.710177 saqlov birligiga oshgan. Umuman olganda, ikki yilda arxiv saqlanmalari 0,5 mnga yaqin hujjatlar bilan to'ldirilgan.

Urush davrining qiyinchiliklariga qaramay, respublika hukumati arxiv ishini yaxshilash sohasida ancha ishlarni amalga oshirdi. O'z SSR XKSning 1943-yil 18 fevral qarori bilan O'z SSR KSOH Markaziy davlat arxivi tashkil qilindi. 108 ta shahar va tumanlarda davlat arxivi ochilib, ularning mudirlarini oylik ish haqi miqdori oldingi – 110 so'm o'rniga 300 so'm qilib tasdiqlandi.

Shunday qilib, 1941-yil 1 yanvarida arxiv idoralarida 111 kishi ishlagan bo'lsa, 1945-yil arxiv idoralarida 306 kishi ishlagan, xususan, 1945-yilda arxivlarda ishlayotgan xodimlarning 30 tadan ko'prog'i oliy ma'lumotli xodimlar edi.

Ularning ichida tarixchi-arxivchilar, Z.I. Agafonova, A.I. Belkova va boshqa malakali mutaxassislar bor edi. Biroq, keyingi yillarda hujjatlarni davlat arxiviga qabul qilish kamaydi. Arxivlarda hujjatlarni qabul qilish va saqlashga joy yetishmas edi. 1944-1945-yillarda davlat arxivlariga 48055 saqlov birligi qabul qilindi.

Yangi tashkil qilingan KSOH Markaziy davlat arxivi 1944-1945-yillarda 15 mingdan ortiq fotehujjat qabul qildi.



Bundan tashqari, 165896 suratli hujjat, 402701 ayerosuratli surat, 1794 kinohujjat va 6949 suratli hujjatlar Toshkent arxivlari, shuningdek, idora va tashkilotlarda ham mavjudligi aniqlandi.

KSOH arxivi tashkil topganida uning suratli kamerasida 8 ming saqlov birligidagi hujjatlar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1944 yilda saqlovga 12 ming hujjat va 1945-yilda 3420 suratli hujjat topshirildi. 1942 yilda ro'yxati tuzilmagan materiallar 780240 saqlov birligida edi. Bu o'sha paytdagi arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarning 50 % ini tashkil qilar edi.

Urush sharoitida davlat arxivlari tartibga solinmagan arxivlarni asosan frontga jo'natilgan harbiy qismlar arxivlarini qabul qilishga majbur bo'ldilar. Davlat arxivlarining asosiy vazifalaridan biri tartibga solinmagan arxiv jamg'armalarini tartibga solish edi. Respublika davlat arxivlaridan 1941-yili 100 ming saqlav birligidagi hujjatlar tartibga solindi. 1942-yil rejasiga ko'ra, 162305 saqlov birligidagi hujjat tartibga solinishi kerak edi. 1944-1945-yillar respublika davlat arxivlarida 136.370 saqlov birligidagi hujjatlar qo'shimcha tarzda ro'yxatlashtirildi. Arxiv hujjatlaridan foydalanish sohasida ham bir qator ishlar qilindi. Xalq xo'jaligi maqsadida foydalanish uchun ko'p hujjatlar topilib tegishli tashkilotlarga yuborildi. 1944-yil yanvarda O'z SSR Davlat kutubxonasi sharq bo'limi bazasida respublika Fanlar Akademiyasi sharq qo'lyozmalarini o'rganish Instituti tashkil qilindi (Birinchi direktor, prof. A.A. Semyonov edi).

Respublika hukumati qarori bilan bu institutga saqlash uchun va o'rganishi uchun sharq tilidagi qo'lyozmalar (Toshkent Davlat kutubxonasida to'plangan) topshirildi. Keyinchalik institutga O'z SSR FA fundamental kutubxonasidan qo'lyozma asarlar va boshqa hujjatlar, A.Navoiy nomidagi Davlat muzeyi va boshqa tashkilotlar hujjatlari ham qabul qilindi. Institut ilmiy faoliyatining ilk kunlarida Davlat ommaviy kutubxonasidan kelgan, unchalik katta bo'lmagan olimlar guruhi ish olib bordi. Bular – A.A. Semyonov, I. Adilov, D.G. Yuronovskiy, A. Muradov, A. Nasirov, E. Muhammedxodjayev, A.I. Ageev, shuningdek, Leningraddan evakuatsiya qilingan sharq-

shunoslar guruhlari bor edi. 1946 yilning 17 aprelida Umumittifoq respublikalari arxiv va IIV bo'limlari boshliqlarning majlisida arxiv idoralarining keyingi yo'nalishlari belgilab olindi.

Urushdan keyingi yillarda arxivchilar oldida turgan muhim vazifa materiallarga ilmiy-ma'lumotnoma apparati, ma'lumotlar tuzish edi. Hujjatlardan foydalanishni yaxshilash uchun ko'rsatilgan ilmiy ro'yxatlar, kataloglar va boshqa axborotnomalar tayyorlash zarur edi. Ushbu ishlarni amalga oshirishdan avval arxivchilar davlat arxivlarida saqlanayotgan tartibsiz arxiv jamg'armalarini tartibga soldilar.

**1950-yillar O'zbekistonda arxiv ishi.** 1946-1950-yillarda respublika va viloyat arxivlarida 158045 saqlov birligidagi hujjatlar ro'yxatlashtirildi va 75996 saqlov birligidagi muddati tugagan yig'ma jildlar yo'q qilindi.

1951-yilda arxiv xizmatchilarining mashaqqatli mehnatlari evaziga 120018 saqlov birligidagi hujjatlar yo'qotishga ajratildi.

O'z SSR KSOH MDA xodimlari o'z hujjatlarini tartibga keltirishdi. Ular tomonidan 5910 suratli hujjat qayta ishlandi va 1990 lavhali kinojurnallar ham qayta ta'mirlandi.

Arxiv tashkilotlarining muhim ishlaridan yana biri idoralar arxivlarini tartibga solish va hujjatlarni ehtiyot qilib saqlashni tashkil qilish edi. Bu ishda O'z SSR Ministrlar Sovetining 1949-yil 13 yanvardagi davlat va idoraviy arxivlar ishini yaxshilash to'g'risidagi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qaror e'lon qilinganidan keyin ko'plab tashkilotlar arxivlarini tartibga soldilar.

1947-1948-yillarda Toshkentda 50 ta tashkilot o'z arxivlarini tartibga soldilar. 1946-1950-yillarda Markaziy va viloyat davlat arxivlari davlat saqloviga 280543 saqlov birligidagi hujjatlarni qabul qilishdi. Bu yillarda O'z SSR KSOH Markaziy davlat arxiviga 29892 saqlov birligidagi hujjatlar topshirildi. 1956-yilning 1 yanvarida respublika va viloyat davlat arxivlarida 1.6 mln. ga yaqin saqlov birligidagi hujjatlar saqlanardi.

Idoralar arxiv ishlarini yaxshilash uchun bir necha metodik qo'llanma tayyorlandi. Masalan, "Tashkilotlarda arxiv hujjatlarining

ekspertizasini o'tkazish uchun esdalik", "Idoralar arxivlari ishini nazorat qilish uchun ko'rsatmalar", "Vazirliklar arxivlari ishini rejalashtirish va hisobot qilish bo'yicha ko'rsatmalar" shular jumlasidandir. XX asrning 50-yillari boshlarida arxivlarga yangi arxiv hujjatlarini saqlaydigan binolar yetishmas edi. Ushbu vaziyatni hisobga olib O'zbekiston hukumati 1954-yilning 13 yanvarida "Respublikada arxiv ishini yaxshilash to'g'risida" qaror qabul qildi va Toshkent shahrida markaziy arxiv uchun bino qurilishi nazoratini O'z SSR IIV ga yukladi. Bu vazifa 1964-yilga kelibgina, amalda bajarildi. 1947-yilda respublika bo'yicha jami 118 tuman va 5ta shahar arxivlari, ularda esa 137mingyig'majildsaqlanaradi. 1955-yilning 1 yanvarida O'zbekiston shahar va tumanlarida 8 ta shahar va 138 ta tuman arxivlari mavjud edi. 50 yillar mobaynida viloyatlarda davlat arxivining quyidagi arxiv filiallari ochildi: Andijon viloyatida - Qo'rg'ontepa (1956), Jizzax viloyatida - Jizzax shahrida (1954), Sirdaryo viloyatida Sirdaryo (1951) va Yangiyer (1954), Toshkent viloyatida - Bekobod (1950), Olmaliq va Angren (1956). Stalin vafotidan so'ng arxivchilik yo'nalishida ham yangi qirralar ochildi. 1955-yilning aprelida Moskvada sobiq SSSR Bosh arxivi ilmiy kengashining majlisi bo'lib; "SSSR davlat arxiv jamg'armasi hujjatlaridan qishloq xo'jaligi va ilmiy maqsadlarda foydalanish" masalasi muhokama qilindi. Shu yilning 15-20 iyun kunlarida Toshkentda O'rta Osiyo partiya arxivlarining boshliqlari ishtirokidagi majlis bo'lib o'tdi va unda O'rta Osiyo partiya tashkilotlari tarixini tuzish va yoritish masalalari muhokama qilindi. 1956 yilning martida Qozog'iston Respublikasining arxiv tashkilotlari va davlat arxivlarining majlisi bo'lib o'tdi. Muhokamada KPSS XX syezdidagi arxiv qurilishi borasidagi va sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1956-yil 7 fevraldagi mamlakatda arxiv ishi holati masalalari muhokama qilindi.

1958-yili O'z SSR Oktabr inqilobi Markaziy davlat arxivi O'z SSR Markaziy davlat tarix arxivi bilan birlashtirilib, yagona O'z SSR Markaziy davlat arxivi tashkil qilindi. **Bir yildan keyin bu arxivga O'z SSR KSOH Markaziy davlat arxivi ham qo'shildi.**

1958-yilning iyunida arxiv ishini ko‘rib chiqishi bo‘yicha Toshkentda, sobiq SSSR arxiv qurilishining 40 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

1959-yilning 13-15 aprelda Toshkentda va Qozog‘iston tarixchi va arxivchilarining majlisi bo‘lib, unda N.R. Prokopenko mintaqalardagi arxiv tashkilotlarining vazifasi haqida ma‘ruza qildi.

Arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadda foydalanishni yaxshilashda O‘z SSR Ministrlar Sovetining 1956-yil 31 martdagi “O‘z SSR Vazirliklari va idoralar arxiv materiallarini saqlash usullarini tartibga solish va ulardan foydalanishni yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori muhim rol o‘ynadi. Respublika hukumati arxiv tashkilotlariga hujjatlardan foydalanishni kengaytirish, hujjatli to‘plamlar, ma‘lumotnomalar, arxiv jamg‘armalari axborotnomalarini tayyorlashni va “O‘zdavlat nashr”ga ularni nashr qilishni topshirdi. Bu qaror arxiv tashkilotlarining ilmiy ishlarni, hujjatlarni e‘lon qilish borasidagi faoliyatlarini jonlantirib yubordi.

Shunday qilib, 50-yillar oxiriga borib respublikada arxiv tashkilotlarining tartibli tizimi vujudga keldi. Bu tizim ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha hujjatlarni ehtiyot qilib saqlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi holati.
2. Toshkent shahrida KSOH MDA qachon tashkil etildi?
3. Arxiv ishi sohasidagi yutuq va kamchiliklarni ko‘rsating.

## Manba va adabiyotlar:

1. Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). -- 1970.
2. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. – М.,1959.
3. Бескровный Л.Г., Гольденберг Л.А Систематизация картографических материалов (на примере ЦГВИА). // «Советские архивы», 1971, № 2.
4. Ботвинников А. Д., Ройтман И. А. Обучение чтению чертежей в процессе профессиональной подготовки учащихся. – М., 1962.
5. Бурова Е. М, Е.Ф. Алексеева, Л.П. Афанасьева. Архивоведение. – М., 2002.
6. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф.дисс...канд.ист. наук. – Ташкент, 1995.
7. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. –М., 1957.

## 9-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA ARXIV TIZIMINING RIVOJLANISHI (1960-1990 YILLAR)

---

### Reja:

1. 60-yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi.
2. 1970-80 yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi.

**60 yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi.** 1960-yillar boshida arxivlar taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Arxiv tashkilotlarini bevosita O‘zbekiston Ministrlar Sovetiga bo‘ysundirilishi respublikada arxiv ishini rivojlanishiga yordam qilgan muhim omil bo‘ldi. Ministrlar Sovetining 1961-yil 9 maydagi qarori bilan O‘zbekiston Ichki Ishlar Vazirligining arxiv boshqarmasi O‘zbekiston Ministrlar Soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasi qilib qayta tashkil qilindi. Shu qaror asosida mahalliy arxiv tashkilotlari Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar soveti va viloyatlar ijroiya qo‘mitalari Arxiv bo‘limlari qayta tashkil qilindi. Arxiv tashkilotlarini Ministrlar Soveti va viloyatlar ijroiya qo‘mitalari ixtiyoriga o‘tkazilishi ularni davlat apparati tuzimidagi rolini orttirdi va arxiv ishi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

1960-1961-yillarda sobiq ittifoq Bosh arxiv boshqarmasi ko‘rsatmasiga binoan Respublikada arxivlarni butlash tamoyili tubdan qayta ko‘rib chiqildi. O‘z faoliyati natijasida ilmiy ahamiyatga ega hujjatlar vujudga kelmaydigan mayda, yordamchi va kommunal maishiy tashkilotlar (sartaroshxona, atele, oshxona, apteka, do‘konlar, hammomlar, ta‘mirlash ustaxonalari, avtobuslar saroylari, mehmonxonalar va boshqalar)dan davlat saqloviga hujjatlar qabul qilish to‘xtatildi.

1961-yildan boshlab davlat arxivlarining ekspert tekshiruv komissiya (ETK)lari vazifalari tubdan o‘zgardi. ETKning ekspertiza masalasida asosiy vazifasi davlat arxivlarini nazorat qiladigan tash-

kilotlar topshirgan doimiy saqlanadigan hujjatlarning ro'yxatini ko'rib chiqish va tasdiqlash bo'lib qoldi. Shuningdek ETK 5 yildan ortiq saqlanadigan materiallar dalolatnomasini va hujjatlarni saqlash muddati ko'rsatilgan ro'yxatda ETK belgisi bor materiallar ro'yxatini muhokama qilib, tasdiqlaydigan bo'ldi. 1962-yilda 118 ta tuman davlat arxivlari bazasida 28 ta tumanlararo davlat arxivi tashkil qililib, unda 3-5 tagacha ishchilar ishlashar edi. 13 ta uzoq tumanlarda esa tuman davlat arxivlari saqlab qolindi.

1962-yilda Toshkentda O'zbekiston meditsina hujjatlari Markaziy Davlat Arxivi tashkil qilindi.

1960-yili O'z SSR MDA jamg'armalari ko'rsatkichi (putevoditel) nashr qilindi. 1964-yili O'z SSR KSOH MDA ko'rsatkichi elon qilindi. Bu ko'rsatkichlar tadqiqotchilarning arxiv materiallaridan foydalanishida juda katta qulayliklar yaratdi.

1961-yilning oxirida Toshkent shahrida va Qozog'iston arxivchilarining yana bir majlisi bo'lib o'tdi. Yig'ilganlar sobiq SSSR Bosh arxiv boshlig'i G.A Belovning "KPSS XXIII syezdi va SSSR dagi arxiv tashkilotlarining ahvoli" bo'yicha ma'ruzasini tinglab, muhokama qilishdi. 1960-yillar boshida arxivlar tarraqiyotida yangi davr boshlandi. Arxiv tashkilotlarini bevosita O'zbekiston Ministrlar Sovetiga bo'ysundirilishi respublikada arxiv ishini rivojlanishiga yordam qilgan muhim omil bo'ldi. 1961-yildan boshlab davlat arxivlarining ekspert tekshiruv komissiya (ETK)lari vazifalari tubdan o'zgardi. ETKning ekspertiza masalasida asosiy vazifasi davlat arxivlarini nazorat qiladigan tashkilotlar topshirgan doimiy saqlanadigan hujjatlarning ro'yxati(opis)ni ko'rib chiqish va tasdiqlash bo'lib qoldi. Shuningdek, ETK 5 yildan ortiq saqlanadigan materiallar dalolatnomasini va hujjatlarni saqlash muddati ko'rsatilgan ro'yxat (perechen)da ETK belgisi bor materiallar ro'yxatini muhokama qilib, tasdiqlaydigan bo'ldi. 1962-yilda 118 ta tuman, davlat arxivlari tashkil qililib, unda 3-5 ta ishchilar ishlashar edi. 13 ta uzoq tumanlarda tuman davlat arxivlari saqlab qolindi. 1962-yilda Toshkentda O'zbekiston meditsina hujjatlari Markaziy Davlat Arxivi

tashkil qilindi. 1960-yillarda respublikada quyidagi arxiv filiallari ochildi: Farg‘ona viloyatida – Marg‘ilon (1961), Xorazmda – Yangibozor (1963), Xiva rayonida – Ogahiy kolxozi (1963), Xonqa posyolkasida – Xonqa (1967), Sirdaryo viloyatida – Guliston (1963), Navoiyda – Navoiy shabri (1963).

1962-yil O‘z SSR Arxiv boshqarmasi boshlig‘i etib A.A Mirzabayev tayinlandi.

Bu yillarda davlat arxivlari arxiv ishini tartibga solishni nazorat qilishni kuchaytirdilar. Shu bilan birga ularga yordam berishga katta e‘tibor qaratdilar. Bu ishlar natijasida respublikada 1964-yili 1809 tashkilotda, 1965-yili 1759 tashkilotda arxiv hujjatlari tartibga solindi.

1963-yil 14 oktabrida O‘z SSR Ministrlar Soveti “O‘z SSRda arxiv ishini yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qaror idoraviy arxivlar ya‘ni tashkilotlar arxivlari ishini yaxshilashda muhim rol o‘ynadi. Unga ko‘ra idora arxivlarini yaqin 2-3 yil ichida tartibga solishni tugatish, doimiy saqlanadigan hujjatlarni davlat arxivlariga topshirish, arxivlarning o‘zini esa, hujjatlarni beshikast saqlashga yaraydigan binolarga joylashtirish va ularni malakali kadrlar bilan ta‘minlash keng yo‘lga qo‘yildi.

Davlat arxivlari uchun maxsus binolar ham qurildi. 1964-yili MDA ga yangi bino qurilib foydalanishga topshirildi. 1970-yili O‘z SSR kino, surat, ovozli hujjatlar MDAGA maxsus bino qurib berildi. Lekin, viloyatlarda ko‘p arxivlar eski binolarda faoliyat yuritib kelar, ularda hujjatlarni saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan edi.

1968-yilning boshida Namangan viloyati tashkil topishi munosabati bilan Namangan viloyati davlat arxivi tashkil qilindi. Keyinchalik Namangan viloyatida Uychi shahar posyolkasi arxivi (1969) va Chust (1962) bo‘limlari ochildi.

Umuman olganda, 60 yillarning oxiriga kelib O‘zbekiston arxiv ishchilarining soni 597 kishiga yaqin edi, shulardan 236 tasi ilmiy xodimlardan tashkil topgandi. 112 ta mutaxassis oliy ma‘lumotli bo‘lib, shu jumladan 36 tasi maxsus tarixchi-arxivchilar edi.



1966-yilning 1 yanvarida respublika bo'yicha nazorat qilindigan davlat arxivi tashkilotlari soni 64801 tani tashkil etar edi. 1960-1962-yillar mobaynida ulardagi hujjatlar qayta ishlanib, shulardan 3650 tasi 1964-1966-yillar davomida qayta tiklangan edi.

1956-1963-yillarda davlat arxivlari tomonidan 522 ming saqlov birligidagi, 1964-1967-yillarda 633 ming saqlov birligiga yaqin hujjatlar qabul qilindi. 1968-yilning 1 yanvarida O'z SSR davlat arxivlari va ularning bo'limlaridagi ma'lumotnoma hujjatlar 3 mln saqlov birligiga yaqin edi, shu jumladan 150 mingdan ortiq suratli hujjatlar va 7000 ta qutida kinohujjatlar ham bor edi.

**1970-80-yillarda O'zbekistonda arxiv ishi tarixi.** 70 yillarda davlat arxivlari nazorat qilayotgan tashkilotlarning idoraviy arxivlari va ish yuritish xizmati birmuncha yaxshilandi. 1972-yil 13 iyunda Andijon viloyati ijroiya qo'mitasi "Viloyat davlat arxivining Qo'rg'ontepa filiali qoshida shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlarining tumanlararo birlashgan arxivini tashkil qilish to'g'risida" qaror qabul qildi. Unga asosan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, kolxozlar, sovxozlarning shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlar saqlanishini ta'minlash, hisobga olish, ularni jamlash va fuqarolarga biografik ma'lumotnomalar berish maqsadida shaxsiy tarkib bo'yicha xo'jalik hisobidagi qo'rg'ontepa tumanlararo arxivi tashkil qilingan. Bu arxiv Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod tumanlari va Sovetobod shahri tashkilotlari, kolhoz va sovxozlari mablag'i hisobidan shaxsiy tarkib hujjatlarini markazlashtirib saqlash va foydalanish uchun tuzilgan. Har bir tashkilot va xo'jalik shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlarni markazlashtirib saqlagan xo'jalik hisobidagi arxivga mablag' o'tkazib turar, ana shu mablag' hisobidan arxiv ishchi va xizmatchilarga ish haqi berar edi. Ijroqo'm qarori bilan har bir yig'majild uchun bir yilga 65 tiyin miqdorda haq to'lash belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining 1973-yil 16 fevraldagi "Respublikada arxiv ishini ahvoli va yanada yaxshilash tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ijrokomlar qoshida shaxsiy tarkib hujjatlarini idoralararo xo'jalik hisobidagi arxivlarni tashkil qilish keng avj oldi.

Bu arxivlar vazifasi ularga tashkilotlar shartnoma asosida topshirgan shaxsiy tarkib hujjatlarini markazlashtirib saqlash va fuqarolarga ular asosida ma'lumotnomalar berish edi. Bunday arxivlar shaxsiy tarkib hujjatlarini saqlashni ta'minlashda va tuman, shaharlarda arxiv ishini umumiy ahvolini yaxshilashda, fuqarolarga arxiv ma'lumotnomalari berishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1971-1975-yillarda respublika davlat arxivlari saqlash uchun 598019 yig'majildni qabul qildilar, 65 ming suratli hujjat komplektlashtirildi. Lekin shuni ta'kidlashimiz kerakki, 70 yillarning o'rtalarida davlat arxivlarining ko'pchilik qismi noqulay sharoitdagi binolarda faoliyat ko'rsatar edi, uch mingga yaqin tashkilotlar bunday binolarga umuman ega emas edilar. Masalan, ko'pchilik sud, prokuratura, ijtimoiy-ta'minot tashkilotlari arxivlari tartibsiz ahvolda edi.

1974-yil 13 dekabrda O'z SSR Ministrlar Soveti "Yagona davlat tuzilishida arxiv ishini tuzish to'g'risida"gi qarorini chiqardi. Unga asosan tashkilotlardagi va uyushmalardagi arxiv ishlari yig'majildli arxiv tizimiga o'tib ishlashlari ta'kidlandi. 1976-1978-yillarda davlat arxivlari 580021 saqlov birligidagi boshqaruv hujjatlarini, 7 mingga yaqin shaxsiy tarkib hujjatlarini, mingta ilmiy-texnika, 2 mingga yaqin turli kasalliklar tarixi bilan bog'liq hujjatlarni qabul qildilar.

1977-yil 10 martda "Bosh arxiv davlat arxivlarini 1-3 guruhlariga bo'lish va tartibga solish" haqida qaror qabul qildi. Yangi qoidalariga ko'ra MDA tarkibiga: ilmiy tadqiqot va metodik ishlar, idoraviy arxivlari, qimmatli hujjatlarni ekspertiza qilish va komplektlashtirish, ma'lumot qidirish tizimi ma'lumotnoma va hujjatlardan ilmiy maqsadlarda foydalanish, arxiv saqlanmalari jamg'armasi, sho'rolar davri tashkilotlari inqilobigacha bo'lgan davr, kichik suratli nusxalar, matbuot nashrlari bo'limlari tashkil qilindi.

1979-yilda hukumat qarori bilan O'zbekiston Bosh arxiv direksiyasi tashkil etilib, 1980-yil sentabrda u respublika Bosh arxiv kollegiyasi deb, 1984-yil mayida esa yana Bosh direksiyaga aylantirildi. Arxiv hujjatlaridan foydalanishda arxiv hujjatlaridan nusxa

olish o‘z-o‘zidan muammolarni keltirib chiqarar, hujjatlarni saqlash va qimmatli arxiv hujjatlarni restavratsiyasida ham qiyinchiliklar mavjud edi.

Bu masalalarni hal etishda Bosh arxiv boshlig‘i A.A. Mirzabayev va uning o‘rinbosari L.Vayslar tomonidan o‘tkazilgan majlislarda bu masalalar muhokama qilindi. Buning natijasida qimmatli hujjatlar uchun sug‘urta jamg‘armalari tuzildi. Bu ish O‘zbekiston Markaziy davlat arxivi, Buxoro davlat arxivi, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ham jadal amalga oshirildi. Asosiy kamchilik ximikat va mikrofilmlil apparatlar uchun plyonkalarining yetishmasligi edi, yana shuningdek, proyavka (yuvish) mashinalarining ehtiyot qismlari yetishmasligidan doimiy ishlay olmaganligidir. 1980-yilda Respublikada davlat arxivlari nazoratidagi 8733 ta tashkilotdan 3472 (40%) tasida ish yuritish bo‘yicha yo‘riqnoma, 85% ida yig‘majildlar nomenklaturasi mavjud edi. Biroq, 1976-1985-yillarda arxivlarida ilmiy tadqiqot olib borayotganlar soni oldingi o‘n yillikka qaraganda bir yarim barobarga qisqardi.

O‘zbekiston arxiv ishi qurilishidagi yangi bir muhim hujjat, O‘z SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1986-yil 19 yanvarida “Respublikada arxiv ishlarini rivojlantirish”ga oid qarori katta ijobiy o‘zgarishga sabab bo‘ldi.

1986-yildan boshlab respublika davlat arxivlari tashkilotlarda idoraviy arxiv va ish yuritishni tashkil qilinishini, tekshirishni odatda idoraviy tizimlar bo‘yicha kompleks tarzda amalga oshirdilar. 1986-yilda O‘zbekiston teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar davlat qo‘mitasi tizimi kompleks tekshirilgan.

O‘z SSR Ministrlar Soveti 1988-yil oktabr oyida “Respublika arxiv ishlarini boshqarish tizimi” to‘g‘risida qaror qabul qildi. Unga asosan Bosh arxivdan 5 kishidan iborat kollegiya va jamoatchilik kengashi tuzildi. Bir vaqtning o‘zida ilmiy-metodik arxiv bo‘limlari kengashi va respublika davlat arxivlari direksiyasi ham ishlay boshladi. Yirik arxiv tashkilotlarida mehnat kollektivlari Soveti tuzilib, lavozimlar konkurs asosida egallanadigan bo‘ldi.

Kadrlar tayyorlashga e'tibor kuchaydi. Arxiv sohasida xizmat qiluvchi xodimlarga, albatta. O'z SSR Gosplan va Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Bosh arxiv 1988-yilda shartnoma imzoladi. Shartnomaga ko'ra TOSH DU har yili Tarix fakultetida 15 tadan bitiruvchi tarixchi-arxivchi mutaxassislar tayyorlab berishi kerak edi. 1986-1990-yillarda O'zbekistondan 17 kishi Moskvadagi Tarix-Arxiv Institutida (MTIAI) malaka oshirish kursini tugallashdi. Bir vaqtning o'zida Bosh arxiv bazasida 124 ta respublika tashkiloti arxivi xodimlari stajirovka o'tashdi. Arxiv hujjatlaridan qishloq xo'jaligini rivojlantirishda foydalanishga katta e'tibor qaratildi. 1990-yil maydan O'z SSR Ministrlar Soveti iqtisodiy reformalar o'tkazib, "O'z SSR arxiv tashkilotlarini xo'jalik hisobiga o'tib ishlashlarini ma'qulladi". 1991-yilning boshida yangi xo'jalik hisobiga O'z SSR MDA, Samarqand viloyati davlat arxivi, Buxoro, Namangan viloyatlari davlat arxivlari, Toshkent shahri Davlat arxivlari ham xo'jalik hisobiga o'tishdi. Ular pullik xizmat ko'rsatish tizimiga o'tib, qo'shimcha daromadlar ola boshlashdi.

Arxiv tashkilotlarining texnik material jihatidan mustahkamlanishiga ham e'tibor berildi. Masalan: Namangan Markaziy davlat Arxivi, Qashqadaryo viloyati davlat arxivlari uchun binolar qurilishi boshlab yuborildi. Yangi binoga Andijon viloyati filiali, Sirdaryo viloyati Yangi yer filiali, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz filiallari o'tishdi. 1990-yilda Farg'ona viloyati davlat arxiviga bino ajratish muammosi ijobiy hal qilindi. 1986-1990-yillarda texnikalar bilan ta'minlash ishlari 63229 rubl miqdorida bajarildi. Biroq, shunga qaramasdan arxivlar uchun binolar (zamonaviy sharoitga ega bo'lgan) qurish ishlari oqsab, arxiv tashkilotlari faoliyatida markazga tobelik va buyruqbozlik illatlari ko'rinib turardi. 1986-1990-yillarda 9 ta rejalashtirilgan respublika viloyat arxivlari uchun quriladigan yangi binolardan faqat bittasi – Urganch shahrida qurildi. Jami arxiv qurilishi ishlari 25 % dan kam hisobda bajarildi. Qayta qurish yillari munosabati bilan 1991-yilning aprel va noyabr oylarida butun ittifoq davlat arxiv boshqarmalarining majlisi bo'lib

o'tdi. O'z SSR dan Bosh arxivning yangi rahbari P.N.Ne'matov qatnashdi. U tomonidan respublikaga mustaqil arxiv huquqini berilishi masalasi, O'zbekiston xalqining qiziqishlarini hisobga olish masalalari qo'yildi. Shuningdek, arxiv sohasida olib borilayotgan boshqa kamchiliklar ham ko'rsatib o'tildi. Afsuski, Moskvadagi rahbarlar o'zlarining imperik rejalari asiri bo'lib qolaverdilar.

E'lon qilingan qayta qurish o'z mavqeini jamiyat hayotida yo'qotib, jamiyat taraqqiyotini to'xtatishga sabab bo'ldi. Amaldagi chuqur yangilanish va o'zgarishlar O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritilishi bilan amalda ro'yobga chiqa boshladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Toshkentda O'zbekiston meditsina hujjatlari Markaziy Davlat arxivi qachon tashkil etildi?
2. O'zbekiston hukumatining 1973-yildagi "Respublika arxiv ishini qayta tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga sharh bering.
3. 1960-90-yillarda davlat arxivlari nazorat qilayotgan tashkilotlarning idoraviy arxivlari va ish yuritish xizmati qanday edi?

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). – 1970.
2. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. – М., 1959.
3. Бескровный Л.Г., Гольденберг Л.А. Систематизация картографических материалов (на примере ЦГВИА). // «Советские архивы», 1971, № 2.
4. Ботвинников А. Д., Ройтман И. А. Обучение чтению чертежей в процессе профессиональной подготовки учащихся. – М., 1962.

5. Бурова Е. М, Е.Ф. Алексеева, Л.П. Афанасьева. Архивоведение. – М., 2002.
6. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1995.
7. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. – М., 1957.
8. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие. – М., 1946.
9. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.

## Reja:

1. “O‘zarxiv” agentligining Respublika arxiv ishini yanada rivojlantirish sohasidagi faoliyati.
2. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida arxiv ishini tashkil qilish.

**“O‘zarxiv” agentligining Respublika arxiv ishini yanada rivojlantirish sohasidagi faoliyati.** Bugun ko‘p millatli xalqimiz mustaqil vatanimizning 18 yillik qutlug‘ to‘yini baland ruh va katta xursandchilik bilan nishonlamoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan, arxivshunoslik fanlarini rivojlantirish sohalarida ham ko‘p o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib kelmoqda.

Biz bugun o‘tgan yillar mobaynida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘limizni xolisona baholar ekanmiz eski mafkuraviy tizim va g‘oyalardan butunlay voz kechib, yangi hayot barpo etish yo‘lida qo‘lga kiritgan, dunyo ahli tan olayotgan yuksak marra va yutuqlarimiz barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlashi tabiiydir.

Mustaqillik sharoitida “O‘zarxiv” agentligi tomonidan arxiv ishining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirishning kompleks dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu dasturlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tuzilgan va besh yilga mo‘ljallangan: hujjatlarni idoraviy saqlovini ta‘minlash, ularning davlat hisobi va ilmiy-ma‘lumot apparatini takomillashtirish, arxiv hujjatlaridan foydalanishni jadallashtirish.

1996-yilda “O‘zarxiv” agentligi O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini 2000-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiya davlat arxiv xizmati faoliyatining metodologik harakat dasturi edi. U jamiyatni va davlatni axborot bilan ta‘minlashdagi

imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatning hujjatli yodgorliklarini saqlashdagi rolini orttirishga qaratilgan edi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi hukumati arxiv ishi va jamiyatning hujjatli yodgorliklarini saqlash bo'yicha qonun va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqdi. Masalan, "Arxivlar to'g'risida" (O'zR Oliy Majlisi axborotnomasi, 1999-y. №5 (1277), 120-bet) va "Madaniy meros obyektlarini qo'riqlash va ulardan foydalanish to'g'risida" (O'zR Oliy Majlis axborotnomasi, 2001-y. № 940 (1305-1306) qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30 oktabrdagi "Arxiv ishiga oid me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash haqida" 482-sonli qaroriga asosan hamda Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3 fevraldagi 49-sonli qaroriga (O'R VM SP, 2004-yil mart, 474-475-betlar) binoan ishlab chiqilgan.

Ushbu hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O'zR MAF) tarkibining tasnifi, shuningdek, hujjatlar saqlanishi tartibi va muddatlari ko'rsatilgan, "O'zarxiv" agentligi tizimiga kiradigan muassasalar tarkibi aniqlab berilgan.

Mustaqillik yillari davlat arxiv muassasalari idoraviy arxivlar hujjatlari saqlovini ta'minlash, ish yuritishni tashkil qilish borasida samarali ishlarni amalga oshirdi. Ular o'z faoliyatini 1990-yil 28-iyunda "O'zbosharxiv" qarori bilan tasdiqlangan "DAF hujjatlari idoraviy saqlovining ta'minlashini asosiy yo'nalishlari (1990-1995-yillar) ning amalga oshirishni tashkiliy-metodik tadbirlari rejasi" asosida amalga oshirdilar. Unda arxiv tashkilotlari Respublika vazirliklari va idoralari bilan birgalikda DAF hujjatlari idoraviy saqlovini takomillashtirish, ular tarkibini yaxshilash, moddiy texnika bazasini yaxshilash, ularni kadrlar bilan ta'minlash, idoraviy arxivlar bilan ishlash bo'yicha me'yoriy-metodik qo'llanmalar tayyorlash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi. Bu tadbirlarning bajarilishi muassasa, tashkilot va korxonalar idoraviy arxiv hujjatlari saqlovini yanada yaxshilashga imkon berdi.

Shahar va tuman hokimiyatlari qoshidagi shaxsiy tarkib bo'yicha idoralararo arxivlar tarmog'i birmuncha kengaydi. 1995-yilda



1990-yilga nisbatan bunday arxivlarning soni 13 taga ko'paydi va 1995-yilda ularning soni 91 tani tashkil qildi. Bu arxivlar shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlari saqlovini va fuqarolarga ijtimoiy-huquqiy ma'lumotnoma berishni yaxshiladi.

1990-1995-yillarda davlat arxivlari idoraviy arxivlarda 115 ta kompleks, 1378 ta mavzu bo'yicha, 1705 ta nazorat qilish maqsadida tekshirish o'tkazdi. Shu bilan birga arxiv tashkilotlari Respublika ayrim idoralari tarmoqlarida kompleks tekshiruvlar o'tkazdilar. Masalan, 1991-1995-yillarda quyidagi idoralar tarmoqlari kompleks tekshirildi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy statistik qo'mitasi (1991 y.), mahalliy sanoat vazirligi (1992-y.), "O'zsanoatfuqaroqurilish" korporatsiyasi (1993-y.), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (1994-y.), Sog'liqni saqlash vazirligi (1995-y.) va hokazolar.

O'zbekiston davlat sanoat va fuqarolar qurilishi korporatsiyasining kompleks tekshirilishi natijasida 31 ta arxiv tashkilotlari nazoratidagi muassasalarda 26 tasi binolar bilan ta'minlanganligi, ulardan 20 tasi stelajlar bilan jihozlanganligi aniqlandi. 31 ta tashkilotdan 17 tasing ish yuritish bo'yicha yo'riqnomasi, 58% muassasalarda yig'majildlar nomenklaturasi bo'lgan.

Shuning bilan birga, ushbu korporatsiya tizimidagi idoraviy arxivlarda hujjatlar saqlovini ta'minlash va ish yuritishni tashkil qilishda ayrim kamchiliklar borligi aniqlandi. Ish yuritish bo'yicha yo'riqnomalar va yig'majildlar nomenklaturasi barcha muassasa va korxonalarda bo'lgan va joriy qilingan. Faqat 3 ta muassasa shtatida arxiv xodimi bo'lib, 5 ta muassasada arxivga mas'ul shaxs buyruq bilan tayinlanmagan edi. Hujjatlarni tartibga solish, ularni davlat saqloviga tayyorlash va topshirish yetarli darajada uyushtirilgan emas edi. Korporatsiya tizimi bo'yicha doimiy saqlanadigan 5,1 ming yig'majild, shaxsiy tarkib bo'yicha 9,3 ming yig'majild tartibga solinmagan va 3,2 ming muddati o'tgan yig'majildlar saqlanmoqda edi. Ko'pchilik muassasalarda doimiy ishlaydigan ekspert komissiyasi tashkil qilinmagan va bu to'g'risida nizomlar ishlab chiqilmagan edi.

Boshqa kompleks tekshirilgan idoralar tizimida ham idoraviy

arxivlarda hujjatlar saqlovi va ish yuritishni tashkil qilinishi yuqorida bayon etilgan tizimdagiga o'xshagan holatlar uchratildi.

Arxiv tashkilotlari nazoratidagi muassasalarga ish yuritish bo'yicha yo'riqnomalar, yig'majildlar nomenklaturasi, ekspertiza komissiyasi idoraviy arxiv to'g'risidagi nizomlar ishlab chiqishga metodik va amaliy yordam ko'rsatdilar.

1996-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi tizimi muassasalarida arxiv hujjatlarining idoraviy saqlovi va ish yuritishda tashkil etilishi ahvoli o'rganildi. Ish yuritishda asosiy me'yoriy hujjat hisoblangan ish yuritish bo'yicha yo'riqnomalar vazirlik tizimida mavjud bo'lgan 1763 ta tashkilotning 585 tasidagi (33%) ishlab chiqilgan. Buning ustiga bir qator idoralarda ish yuritish bo'yicha tuzilgan yo'riqnomalarga qo'shimcha aniqlik kiritilishi va arxiv muassasalari bilan kelishishni talab qilardi.

Vazirlik tizimi tashkilotlarining yig'majildlar nomenklaturasi bilan ta'minlanishi 65 % ni tashkil qilgan. Holbuki, hujjatlarni qidirish, indekslashni o'tkazish, yig'majildda ijro etilgan hujjatlarni to'plashda yig'majildlar nomenklaturasi odatdagi ish yuritishda asosiy hujjat hisoblanadi.

Idoraviy arxivlar to'g'risidagi nizomlar ushbu tizimning 585 ta tashkilotlarida mavjud edi. Bu 31%ni tashkil qilardi.

Tekshirilgan davrda tizimning davlat arxivlari nazoratdagi 1763 ta tashkilotdagina 750 nafar ish yuritish xodimi va 107 nafar arxiv xodimi xizmat qilgan.

Vazirlik tizimidagi 1333 ta (75%) muassasa va tashkilotlar arxiv uchun ajratilgan xonalarga ega bo'lgan, qolgan 25% idoralarda esa arxiv hujjatlari duch kelgan joylarda yotgan.

Tizim bo'yicha arxiv muassasalari nazoratidagi 1763 ta muassasaning 838 tasida ekspert komissiyasi tuzilgan, shulardan 554 tasi o'zining nizomiga ega bo'lgan.

Tizim muassasalarida tegishli davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan 78-164 yig'majilddan iborat hujjatlar belgilangan muddatdan ortiq saqlanayotgan edi. Qishloq xo'jaligi muassasalarin-

ing idoraviy arxivlarida doimiy saqlanishi molik 157610 yig'majild saqlanayotgan bo'lib qariyb 38 mingtasi tartibga keltirilmagan.

Arxiv tashkilotlarining harakati tufayli 1995-yilda respublika bo'yicha 61,5% idoraviy arxivlar hujjatlar saqlaydigan joylar bilan, 67,7% davlat arxivlari nazorat qiladigan muassasalar yig'majildlar nomenklaturasi bilan ta'minlanganligi ma'lum bo'ldi.

Davlat arxivlarida saqlanishi lozim bo'lgan hujjatlar saqlovini ta'minlashning ishonchli garovi bu idoraviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatli materiallarni tartibga solish va ularni davlat arxivlarga qabul qilish hisoblanadi. Lekin 1996-yil 1-yanvarda idoraviy arxivlarda 1 milliondan ortiq doimiy muddatda saqlanadigan va 0,5 millionga yaqin idoraviy arxivda saqlash muddati tugagan, ya'ni davlat arxiviga qabul qilinadigan hujjatlar saqlanardi. Davlat arxivlarida bo'sh joy bo'lmaganligi uchun idoraviy arxivlardagi hujjatlarni qabul qilish imkoniyati bo'lmagan.

Davlat arxiv fondi hujjatlari saqlovini ta'minlashning jiddiy muammosi davlat va idoraviy arxivlarda hujjatlar saqlaydigan joylarning yetishmasligi edi. 1996-yil 1 yanvarda Respublikada faqat 9 ta davlat arxivlari uchun qurilgan bino mavjud bo'lgan. 68 ta davlat arxivlarining binolari hujjatlar saqlash uchun moslashtirilgan binolar bo'lib, ularni ko'pchiligi hujjatlar bilan to'lgan va idoraviy arxivlardan davlat saqlovi uchun hujjatlar qabul qila olmas edi. Arxivlarning rejali butlashni ta'minlash uchun respublika bo'yicha 1,5 milliondan ortiq yig'majildlar saqlanadigan joylar qurib foydalanishga topshirish lozim edi.

Respublika davlat arxivlarida hujjatli axborotlar bilan ta'minlash uchun O'zR Milliy arxiv fondi (MAF) tarkibi va mazmuni to'g'risida ilmiy-ma'lumotnoma apparati (IMA) barpo qilindi. Davlat arxivlarining IMA tarkibiga quyidagi ma'lumotnomalar kiradi: 1) arxiv ro'yxati (opis); 2) Arxiv bo'yicha ko'rsatkich (Putevoditel); 3) viloyat arxivi bo'yicha qisqacha ma'lumotnoma; 4) Fondlar katalogi; 5) tizimli, ismli, mavzuli kataloglar; 6) fondlar va mavzular bo'yicha sharhlar. Viloyat Davlat arxivlari filiallarida

fondlar katalogi va ro'yxatlar, Viloyat Davlat arxivlarida bulardan tashqari, arxiv fondlari bo'yicha qisqacha ma'lumotnoma va tizimli katalog. Markaziy Davlat arxivlarida IMA ning barcha turlari albatta bo'lishi kerak. Ayrim arxivlar doirasidagi IMA dan tashqari respublika va viloyat doirasida ham IMA bo'ladi. "O'z arxiv" agentligida respublika fondlar katalogi, arxiv ishi hududiy boshqarmalarida fondlar katalogi bor. Bu barcha ma'lumotnomalar tarixchilar, tadqiqotchilar uchun ochiqdir. Ular tadqiqotchilarga O'zR MAF tarkibi va mazmuni haqida zarur bo'lgan ma'lumotlar beradi.

Mustaqil O'zbekiston sharoitida arxiv tashkilotlari IMA ni takomillashtirish bo'yicha kompleks dasturni amalga oshirdilar. "1989–1995-yillarda DAF hujjatlarining davlat hisobi va IMA ni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi arxiv muassasalarining tashkiliy – metodik rejasi"ni bajara borib, arxiv tashkilotlari arxiv hujjatlari IMA ni takomillashtirishda ma'lum darajada yutuqlarga erishdi.

1989-1995-yillarda 404368 yig'majildlardan iborat arxiv ro'yxatlari takomillashtirildi va qayta ishlandi. Ularni takomillashtirish jarayonida yig'majildlar sarlavhalari tahrir qilindi, ro'yxatlarga mundarija, kirish so'zi va ko'rsatgichlar tuzildi. 152 ming boshqaruv hujjatlari yig'majildlari, 6 ming ilmiy-texnik hujjatlar yig'majildlari, 227 kino hujjatlar saqlov birligi, 49 ming foto hujjatlar va 4,1 ming fotofono hujjatlar saqlov birligi kataloglashtirildi. Mavzular bo'yicha kataloglar uchun 375 ming kartochka tuzildi va kataloglarga qo'shildi. Davlat arxivlari fondlar tarkibi va mazmuni haqida 5 ta ma'lumotnoma chop etdilar, jumladan O'zbekiston Respublikasi kino, foto, fono hujjatlari Markaziy davlat arxivining ko'rsatgichi, O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivining ko'rsatgichi va h.k.

Mustaqillik tufayli respublikamiz xalqimiz tarixiga qiziqish keskin ortdi. Shu munosabat bilan davlat arxivlarining xalqning arxiv hujjatlariga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan axborot faoliyati ahamiyati o'smoqda.

O'zbekiston arxiv tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan yana biri tarixiy hujjatlarni e'lon qilish hisoblanadi. Biroq, bozor munosabatlari sharoitida arxiv tashkilotlari nashriyot bazasi, qog'oz va mablag' yo'qligi tufayli hujjatlar to'plamlari chop etish imkoniyati bo'lmadi. Tarix ixtisosligidagi manfaatdor tashkilotlarni, shuningdek, homiylarni qidirish borasidagi urinishlar muvaffaqiyat bilan tugallanmadi. Arxiv tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot ishlari ham shu ahvolda qoldi.

**Bozor munosabatlariga o'tish davrida arxiv ishini tashkil qilish.** Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiy islohotlar jarayonida arxiv tashkilotlarida xo'jalik yuritishning iqtisodiy usullarini joriy qilish va rivojlantirish yuz bermoqda. Respublika arxiv ishini rivojlantirish fondining asosiy qismini bundan keyin ham davlat budjeti mablag'lari tashkil etadi.

Shuning bilan birga, yangicha xo'jalik yuritish usuliga o'tish arxivlarga tashkilot va korxonalar, jamiyat va kooperativ, ijodiy muassasalar hamda aholiga shartnoma asosida pulli xizmat ko'rsatishni kengaytirish hisobiga budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarining topish imkoniyatini berdi.

Davlat arxivlarini shartnoma asosida bajaradigan pullik xizmat ishlari turlari quyidagilardan iborat:

1. Vazirlik, idora va boshqalarga yig'majildlar nomenklaturasini ishlab chiqishda, ish yuritishni tashkil qilishda metodik va amaliy yordam ko'rsatish.

2. Hujjatlarni tanlab olish va tartibga solish, jumladan shaxsiy arxivlarda ham shunday ishlar amalga oshirilishi mumkin.

3. Mavzuli so'rovlarni, shuningdek mulkdorlik huquqi to'g'risida, sulolaviy xususidagi so'rovlarni bajarish.

4. Tashkilotlarni axborot bilan ta'minlash.

5. O'quv yurtlari, ijodiy muassasalar va boshqa tashkilotlar buyurtmasi bilan hujjatlar to'plamlari, hujjatlar ko'rgazmalari, ekskursiyalar tayyorlash.

Davlat arxivlari rahbarlari ish haqi jang'armasidan iqtisod qilingan, pullik xizmat va shartnoma asosida topilgan qo'shimcha da-

romadlar asosida xizmatchilarni iqtisodiy rag‘batlantirish (oylikka qo‘shimcha haq qo‘shib berish, mukofotlash) huquqiga ega bo‘ldilar. 1999-yilda respublika arxiv tashkilotlari pullik xizmat hisobiga 47,5 million so‘m daromad qildilar. Arxiv tashkilotlari pulli xizmatdan olingan daromaddan xizmatchilarni mukofotlash, ularga qimmatli sovg‘alar taqdim etish va sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirdilar.

Mustaqillik sharoitida arxiv ishini boshqaruv davlat organi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi hisoblanadi. Uning tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy boshqarmalari, ularning qaramog‘idagi davlat arxivlari (ularning filiallari) hamda Markaziy davlat arxivlari kiradi.

Yuqorida qayd etilgan arxiv tashkilotlariga arxivlarni butlash, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hisoblangan respublika xalqlarining o‘tmish tarixi to‘g‘risidagi hujjatli yodgorliklarni jamiyat va fuqarolar manfaati uchun saqlash va foydalanish kabi davlat majburiyatlari yuklangan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 80 dan ortiq davlat arxivlari bo‘lib, ularda 6 mln. yig‘majildlardan ziyod hujjatlar asrab-avaylab saqlanmoqda. Bu hujjatlardan tarixchilar, tadqiqotchilar, talabalar va boshqa mutaxassislar ilmiy, madaniy- ma‘rifiy ishlarda keng foydalanmoqda.

Bugungi kunda respublikamizning barcha davlat arxivlari “O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivlarining asosiy ish qoidalari” ga amal qilishlari shart.

Ilmiy-texnikaviy, kino, surat va ovozli hamda boshqa maxsus hujjatlarni saqlaydigan davlat arxivlari mazkur qoidalardan rejalashtirish, ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkil etish, hujjatlardan foydalanish, idoraviy arxivlarni nazorat qilish masalalari bo‘yicha foydalanishlari mumkin. Boshqa masalalarda ular uchun ishlab chiqilgan maxsus qoidalarga amal qiladilar.

Mazkur qoidalaridan O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxiv Fondi hujjatlarining o‘zlari doimiy saqlanuvini amalga oshirayotgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa respublika idoralari hamda sohaviy davlat fondlari arxivlari ishida foydalanish mumkin.

Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilib, “O‘zarxiv” agentligining ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlar bo‘yicha komissiyasi tomonidan ma’qullangan.

Mustaqillik sharoitida arxiv ishini boshqaruv davlat organi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi hisoblanadi. Uning tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy boshqarmalari, ularning qaramog‘idagi davlat arxivlari (ularning filiallari) hamda Markaziy davlat arxivlari kiradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sobiq ittifoq parchalanishining mustaqil O‘zbekiston arxiv ishiga ta’sirini yoriting.
2. Mustaqillik yillaridagi davlat va nodavlat fondlarining tashkil etilishini tahlil qiling.
3. “O‘zarxiv” agentligining respublika arxiv ishini yanada rivojlantirish sohasidagi faoliyatini izohlang.

### **Manba va adabiyotlar:**

1. Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). – 1970.
2. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. – М., 1959.
3. Бескровный Л.Г., Гольденберг Л.А Систематизация картографических материалов (на примере ЦГВИА). // «Советские архивы», 1971, № 2.

4. Ботвинников А. Д., Ройтман И. А. Обучение чтению чертежей в процессе профессиональной подготовки учащихся. – М., 1962.
5. Бурова Е. М., Е.Ф. Алексеева, Л.П. Афанасьева. Архивоведение. – М., 2002.
6. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф.дисс...канд.ист. наук. – Ташкент, 1995.
7. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. – М., 1957.
8. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие. – М., 1946.
9. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.
10. Иофе В.Г., Ишанходжаева З.М. Подготовка архивных кадров в Узбекистане. // Отечественные архивы, 2004, № 1.
11. Иофе В.Г., Мустафаев З.М. Архивная практика в Национальном университете Узбекистана. // Отечественные архивы. 2005, № 2.
12. Иофе В.Г. Новое в управлении архивным делом Республики Узбекистан. // Отечественные архивы, 2006. – № 1.
13. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. Ўқув кўлланма. – Т.: Чўлпон. 2007.



# 11-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY DAVLAT ARXIVI

---

## Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi tarixi va uning asosiy jamg‘armalari.
2. O‘quv xonalari ishi.
3. O‘zR MDA tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar va fuqarolarni qabul qilish.

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi tarixi va uning asosiy jamg‘armalari.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O‘zR MDA) respublika ahamiyatidagi tashkilot hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga bo‘ysunadi. Arxiv O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi.

O‘zR MDA o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi yo‘riqnomalari, qoidalari va ko‘rsatmalariga amal qiladi.

O‘zR MDA o‘z faoliyatini arxiv direksiyasi ishining va arxiv rivojlantirish rejalari asosida amalga oshiradi.

Arxivning asosiy vazifalari:

- arxiv yo‘nalishi bo‘yicha hujjatlar bilan jamlash;
- arxivning hisobga olish tizimi va ilmiy-ma‘lumot apparatini rivojlantirish va takomillashtirish;
- arxivda saqlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi jamg‘armasi hujjatlari saqlovini ta‘minlash;
- arxivning axborot bazasini kengaytirish;

- hujjatlardan har tomonlama foydalanish va ularni nashr qilishni tashkil etish;
- arxivshunoslik, hujjatshunoslik, arxeografiya sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlar olib borish;
- o‘z yo‘nalish bo‘yicha hujjatlar bilan ishlashda ilmiy-uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish.

Arxiv 1958-yili O‘zSSR Markaziy davlat tarix arxivi hamda O‘zSSR oktabr inqilobi va sotsialistik qurilish Markaziy davlat arxivining (1931-yilda tashkil topgan) qo‘shilishi natijasida tashkil topdi. 1991-yildan esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi deb nomlanadi.

Arxivda milliy bo‘linishga qadar Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va O‘zbekistonning bir qismi kirgan Turkiston tarixiga oid hamda O‘zbekiston tarixini aks ettiruvchi hujjatlar saqlanadi.

Harbiy gubernator va Turkiston viloyati qo‘shinlar qo‘mondoni hamda markaziy viloyat mahalliy aholisini boshqaruvchisining Turkiston general-gubernatorligi shakllanishidan avvalgi davrga taalluqli bo‘lgan davrga qarashli (1865-1868 yillar) jamg‘armalarida ma‘muriy tuzilma va aholini boshqarish, Turkiston viloyati haqida ma‘lumotlar bor.

Turkiston general-gubernatori devonxonasi, Turkiston general gubernatoriga qarashli diplomatik amaldori, Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi jamg‘armalarida Rossiyaning g‘arbiy Xitoy, Afg‘oniston, Buxoro, Xiva, Yeron bilan bo‘lgan diplomatik va iqtisodiy aloqalari haqidagi materiallari to‘plangan. Turkiston general-gubernatorining O‘rta Osiyo hokimiyatlari bilan tuzilgan shartnomalari, O‘rta Osiyoning Rossiyaga birlashtirilishi tarixi to‘g‘risida, Rus qo‘shinlari G‘o‘lja tumanini egallashi (1871 yil) va uni Xitoyga (1881-yil) qaytarilishi, Pomir tumanini Rossiyaga birlashtirilishi (1895-yil), Turkistonga qo‘shni bo‘lgan davlatlarning siyosiy va iqtisodiy hayotiga oid hujjatlar mavjud. Hujjatlar Turkiston o‘lkasining ma‘muriy tuzilishi, uning alohida mintaqalarini ta‘riflaydi, shahar-

lar tuzilishi va shahar nizomini kiritilishi, madrasa va masjidlarning holati va soni haqida guvohlik beradi.

Turkiston general-gubernatori devonxonasi, Turkiston tuman qo'riqlash bo'limi, viloyat boshqaruvi, uyezd boshliqlari, mahkama organlari hujjatlari va boshqa jamg'armalarda O'rta Osiyo xalqlarining milliy-ozodlik kurashlari aks ettirilgan. Hujjatlarda Farg'onadagi qo'zg'olon (1885-yil), Buxorodagi g'alayon (1910-yil), Turkiston o'lkasidagi qo'zg'olonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bor.

Turkiston o'lkasi moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy-xo'jalik muassasalari, tashkilotlari va korxonalari, Turkiston general-gubernatori devonxonasi jamg'armalari hujjatlarida aks ettirilgan. Tog'-kon qazib olish, paxta qayta ishlash sanoati, sanoat korxonalarini, temir yo'llarini barpo etish, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar, paxtani qayta ishlash, xarid qilish va sotish, savdo-sanoat va Turkiston o'lkasi davlat mulki va dehqonchilik boshqarmasi hujjatlarida mavjud.

Hujjatlar dehqonchilik, yerdan foydalanish masalalari, vaqf masalalarini hal etish, paxta va boshqa texnik o'simliklarni yetishtirish, bog'dorchilikni, pillachilik, uzumchilik, tamakichilikni rivojlantirish masalalarini yoritadi, ekin va turli boshoqli ekinlar hosildorligi, xalqaro va Rossiya ko'rgazmalarida namoyish etish haqida ma'lumotlarga ega.

Sug'orish inshootlarini barpo etish va ularni o'zgartirish, ya'ni yerlarga suv chiqarish, o'rmonzorlar yaratish va qum to'sish ishlari haqida, zakot, mirabon va boshqa soliqlar haqida ma'lumotlar Turkiston general-gubernatori devonxonasi, dehqonchilik va davlat mulki boshqaruvi jamg'armalari hujjatlarida aks topgan.

Turkistonning madaniy hayoti o'quv va madaniy-yoritish ilmiy ekspeditsiya va tadqiqotchilar haqidagi hisobotlar va yozishmalar, Rossiya jo'g'rofiya jamiyatining Turkiston bo'limi, kutubxonasi, muzeylar, arxeologik izlanish va tarixiy yodgorliklarni saqlash ishlari haqida, shuningdek ilmiy jamiyatlar kengashlarida so'zlagan ma'ruzalarning qo'lyozmalari, olimlar xatlari saqlangan.

Viloyat boshqaruvi jamg'armalarida vabo, o'lat, chechak kasalligi epidemiyalariga qarshi kurash haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Xiva xonligining devonxonasi (1874-1917-yil) va Buxoro amirining Qushbegi Arxivi jamg'armalari Buxoro va Xiva xonliklarining siyosiy va iqtisodiy holatini, mahalliy aholining tarkibi va mulkchiligini, beklar va musulmon dini peshvolarini, O'rta Osiyo xalqining madaniyati, urf va odatlarini tariflaydi. 1917-yil fevraldan oktabrgacha bo'lgan davrdagi Vaqtli hukumatning siyosatini ta'riflovchi hujjatlar Turkiston qo'mitasi Vaqtli huqumat, ishchi va soldat deputatlarining O'lka soveti jamg'armalarida mujassamlashgan.

Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ), Xalq Komissarlari Soveti (XKS) va Turkiston ASSR xalq komissariatlari jamg'armalaridagi hujjatlarida Sovet hukumatining o'rnatilishi va uning xo'jalik va madaniy qurilishdagi faoliyatini aks ettiruvchi hodisa va voqealar yoritib berilgan.

Shuningdek, Turkiston Respublikasi deb e'lon qilinishiga oid, ishlab chiqarish korxonalarini, mahalliy boylarning yerlarini milliytlashtirish, ishlab chiqarishga ishchilar nazoratini joriy etish, frontlardagi ahvol haqida tezkor ma'lumotlar, milliy ozodlik harakatlariga qarshi qilingan operatsiyalar haqidagi hujjatlar ham bor. 1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralash ishlarini o'tkazishga tayyorgarlik O'zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston avtonom viloyatini tashkil topish va sovet davri O'zbekiston tarixining keyingi davriga oid voqealar haqidagi hujjatlar Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (TurMIQ), O'zSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti (MIQ va XKS O'zSSR) jamg'armalarida mavjud. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining birinchi raisi Y. Oxunboboyevning faoliyati haqidagi hujjatlar ham bor.

Arxivda Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining markaziy va mahalliy tashkilotlarining hujjatlari saqlanadi (1920-1924-yillar).

O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston xalq xo'jaligining rivojlanishi masalalari haqidagi hujjatlar xalq xo'jaligi markaziy kengashi, iqtisodiy kengash, Davlat rejasi, Turkiston ASSR Xalq

xo'jaligi idoralari, O'z SSR Davlat rejasi, O'rta Osiyo iqtisod kengashi va O'rta Osiyo davlat rejasi jamg'armalarida mujassamlangan. Og'ir mashinasozlik, kon qazish, paxta tozalash, yengil sanoat, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi Ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi davr haqidagi ma'lumotlar sanoat va korxonalar jamg'armalarida mavjud.

Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish 1925-1926-yillardagi yer-suv islohotini o'tkazilishi, Qo'shchi birlashmasining tashkil topishi, qishloq xo'jaligining qayta tuzilishi, paxtachilik, ipakchilik, o'rmon xo'jaligi, suv xo'jaligi, chorvachilik, suv inshootlarining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar yer masalalari bo'yicha xalq qo'mitasi va uning boshqarmasi va bo'limlari jamg'armalari hujjatlarida aksini topgan. Qo'riq yerni o'zlashtirish va sug'orish bosh rejasi ham saqlangan. Hujjatlarda yig'im-terim va paxta tayyorlash mavsumi, agronomlik tarmoqlarini tashkil qilish, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash, tuproqni o'rganish tadqiqotlari, melioratsiya va gidrotexnika ishlari, jamoa xo'jaligi faoliyatini tashkil qilish, MTSlar haqida ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyo respublikalari hududida davlat va kooperativ savdoni boshqarish haqida, qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa tovarlar bilan xalqni ta'minlash, O'rta Osiyo respublikalarining butun ittifoq yarmarkalarida ishtirok etishi, hunarmandchilik va iste'molchilik kooperatsiyalari haqidagi hujjatlar, savdo muassasalari, kooperativ tashkilotlar, aksionerlik jamiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bojxona jamg'armalarida mavjud.

Madaniy qurilish, ilm-fanning shakllanishi va rivojlanishi, xalq ta'limini tashkil qilish, ilmiy muassasalar tarmog'i, bolalar turmushini yaxshilash masalalari, sog'liqni saqlash haqidagi ma'lumotlar Madaniyat vazirligi, maorif, sog'liqni saqlash va ularning muassasalari jamg'armalarida yoritilgan.

Nashriyot va nashriyot ishlari, adabiyot va san'atning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar Madaniyat Vazirligi, nashriyot tahririyatlari, ijodiy uyushmalar jamg'armalarida mavjud.

O'rta Osiyoda huquq me'yorlarini o'rnatish, musulmon xalq sudlarini tuzish haqidagi ma'lumotlar sud prokuratura organlari jamg'armalari hujjatlarida aks ettirilgan.

Kasaba uyushmalari va jamoa tashkilotlarining faoliyatlari, mehnatni muhofaza qilish, mehnatkashlarni sog'lomlashtirish va boshqa masalalar bo'yicha ma'lumotlar Turkiston byuro VTSSPS, O'zbekiston kasaba uyushmasi, markaziy, respublika va mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitalari, Markaziy ixtiyoriy jamiyatlar qo'mitalari jamg'armalarida yoritilgan.

Arxivda shaxsiy kelib chiqish jamg'armalari ham mavjud. Ular orasida: P.A. Kobozev (Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasining raisi) va D.I. Manjura (TurMIQ raisi o'rinbosari); fan arboblari: qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor A.I. Belov, O'z SSR fanlar akademiyasi prezidenti H.M. Abdullayev; adabiyot va sanat namoyondalaridan – yozuvchilar D.M. Abdullaxanov, S. Abduqahhorov, A.V. Almatinskaya, O'z SSR xalq rassomi L.A. Abdullayev, arxeolog Ya.G. Gulyamov, akademik-etnograf K.Sh. Shoniyozov, akademik-sharqshunos S.A. Azimjonova, tarixchi A. Karimov, rassom J. Xasanova, texnika fanlari doktori, samolyotsoz X.G. Sarimsoqov, yozuvchi-tarjimon G.A. Jahongirov, seleksioner olim S.N. Alimuhamedov va boshqalarning shaxsiy jamg'armalari bor.

Davlat arxivlarining "Arxiv ishini rivojlantirish rejasi" tahlilini O'zR MDA misolida ko'rib chiqish o'rindir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi 1958 yilda O'zSSR Markaziy davlat Tarix arxivi hamda O'zSSR oktabr inqilobi va socialistik qurilish markaziy davlat arxivining (1931 yilda tashkil topgan) qo'shilishi natijasida tashkil etilgan arxiv binosi maxsus loyiha asosida 1964-yilda qurilgan bo'lib, arxiv hujjatxonalarining maydoni 5608,1m .

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini saqlovchi muassasa sifatida 2003-yil 22 yanvarda Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi respublikadagi eng katta arxiv bo'lib, 2867 ta fond, 5141 ta yig'majildlar ro'yxati,

1 mln. 600 mingdan ortiq yig‘majild, 18 ta hujjat saqlovxonada XIII asrdan (ma‘lumotlarning eng qadimiysi IX asrga tegishli) bugungi kungacha bo‘lgan hujjatlar saqlanadi. Ulardan 167 mingdan ortiq saqlov birligi va 15 mln.dan ortiq kaddan iborat sug‘urta nusxalari mavjud.

2010-yilgi shtatlar jadvali bo‘yicha arxivda 9 ta bo‘lim va 92 ta xodim (Pullik xizmat ko‘rsatishdan olingan foyda hisobiga hujjatlar-ni jamlash, idoralarga qarashli arxivlar va ish yuritish bo‘limidan tashqari) faoliyat yuritadi.

Markaziy Davlat arxivida "Arxiv ishini rivojlantirish rejasi"ni ishlab chiqish "Rejalashtirish va tashkiliy-uslubiy ishlar bo‘limi" ning asosiy vazifasi hisoblanadi. 2004-yilgacha bo‘limga "Arxiv ishi bo‘yicha pullik xizmatlar Narxnomasi", "O‘zR MDA da bir saqlov birligidagi yig‘majild (hujjat)ning saqlanishi Kalkulyatsiyasi" va "Ish turlari bo‘yicha vaqt va ishlab chiqarish namunaviy normalari" ni hisoblab chiqish vazifalari yuklatilgan. Ushbu vazifalarni bajarish uchun shtatlar jadvaliga yetakchi muhandis-iqtisodchi lavozimi kiritilgan va jami 5 nafar xodim faoliyat yuritgan.

Hozirgi kunda bo‘limda bo‘lim mudiri, ikki nafar katta ilmiy xodim, bir nafar kichik ilmiy xodim faoliyat yuritadi. Ularning barchasi oliy ma‘lumotli (2 ta fan nomzodi) bo‘lib, ulardan bir nafari tarixchi-arxivchi, bir nafari arxivchi, 2 nafari tarixchi muttaxassisligiga ega.

Hujjatlar saqlovini ta‘minlash ishlarini rejalashtirish hajmi ortib borishi, birinchidan, arxivda bir necha yillar davomida konditsioner tizimi ishlamasligi tufayli hujjatlar saqlovxonalarida havo harorati va namligining me‘yori buzilishi, ikkinchidan esa hujjatlardan foydalanish hajmi ortib borishi bilan izohlash mumkin. Buning natijasida hujjatlarning jismoniy holati yomonlashib, ta‘mirlab bo‘lib qolgan.

Mustaqillikning ilk yillarida ko‘plab tashkilotlarning munosabati bilan mavzuli so‘rovlar; oxirgi ikki yil davomida fuqarolarga pensiya tayinlash maqsadida ularning ish faoliyati, oylik maoshlarini

tasdiqlash zaruriyati munosabati bilan ijtimoiy-huquqiy mavzudagi so'rovlar ortib borganligi sababli hujjatlardan foydalanish 3-4 barobarga ko'paygan.

Respublikada arxiv ishini va ish yuritishni yanada rivojlantirish, arxiv hujjatlari saqlanishini ta'minlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tarmoqning normativ va metodik bazasini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2008-yil 26-avgustdagi qarori asosida arxivning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin:

- moddiy-texnik ba'zasini mustahkamlash;
- pullik xizmat;
- malaka oshirish va h.k.

Bundan tashqari, so'nggi yillar davomida arxivda pullik xizmat ko'rsatish rejasi ham ortgan. Masalan, 2008-yilda arxiv moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga 17 mln so'm miqdorida mablag' ajratilgan. Shu yilda pullik xizmat ko'rsatish 45 mln. so'mni tashkil etgan. 2009-yilga kelib arxiv moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga 11 mln so'mdan ortiq mablag' ajratilgan. Pullik xizmat ko'rsatish rejasi esa 100 mln qilib belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan ijobiy holatlar bilan birga, hozirgi kunda arxivlarning asosiy ish turlari bo'yicha 1 vaqt va ishlab chiqarishning namunaviy normalari ishlab chiqilmaganligi va arxivlar ishini rivojlantirish rejasini ishlab chiqish bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlar yo'qligi davlat arxivlari ishini rejalashtirishda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, moliyaviy muammolar hamda texnika vositalarining eskirganligi sababli alohida qimmatli hujjatlarni aniqlash ishlari olib borilayotganligiga – qaramay, ularning sug'urta nusxalarini yaratish butunlay to'xtab qolgan. Ushbu holat mazkur hujjatlar saqlovini ta'minlashda bir qator qiyinchiliklar tug'dirmoqda.



Arxiv arxiv hujjatlarining davlat hisobini amalga oshiradi va arxiv ishi bo'yicha yuqori boshqaruv organiga MAF hujjatlarining markazlashgan hisobini yuritish uchun hisob ma'lumotlarini taqdim etadi .

Arxiv tashkilotlari hisobot ham tayyorlaydilar. Hisobot bu shunday hujjatki, unda ma'lum davrga mo'ljallangan rejaning bajarilishi bo'yicha tashkilot faoliyatining yakuni aks ettiriladi. Hisobotni tuzish jarayoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Tashkilot xodimlari shaxsiy ish rejasini bajarish to'g'risida hisobot yozadi. Tashkilotning har bo'limi yuqoridagi hisobotlar asosida bo'limning umumiy hisobotini tayyorlaydi. Bo'limlar hisobotlari asosida butun tashkilot hisoboti tuziladi. Davlat arxivlari yuqori arxiv idoralari yozma hisobot va statistik hisobotlardan tashkil topgan yillik hisobot topshiradilar. Yozma hisobot yillik rejaning barcha bo'limlari bo'yicha va uning shakliga muvofiq tuziladi. Yozma hisobotda yillik rejaning bajarilishi tahlil etiladi, uning ba'zi ko'rsatkichlari bajarilmay qolgan ayrim tadbirlar boshqalar bilan o'zgartirilgan hollarda uning sabablari sharhlab beriladi. Davlat arxivlarini butlash qaysi tarmoqlar bo'yicha bo'lganligi, qaysi tugatilgan tashkilotlardan hujjatlar qabul qilinganligi qayd etiladi. Ilmiy-ma'lumot apparatini qaysi yo'nalishlari bo'yicha takomillashtirish ishlari amalga oshirilgani, qayta ishlangan fondlar ro'yxatlari nomeri ko'rsatiladi. Hujjatlardan foydalanishning barcha turlari bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar mavzusiga batafsil to'xtaladi va arxiv ishida duch kelingan qiyinchiliklar yoritiladi. 20 dekabrqa qadar davlat arxivi fondlari tarkibi va miqdoridagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Yil davomida arxiv ishining rivojlantirish haqidagi hisobotni taqdim etish tartibi, muddati va ilovalar tarkibini arxiv ishining rivojlantirish bo'yicha yuqori boshqaruv organi belgilaydi.

Tuzilmaviy bo'linma rejasini xodimning shaxsiy rejasini bajarilishi haqidagi hisobotlar rejalar shakliga ko'ra tuziladi va rejalashtirish davriyligiga va arxiv direktori o'rnatgan muddatlarga muvofiq bo'ladi.

Arxiv ishini boshqaruv idoralari o'zining faoliyati yakunlari va ularning qaramog'idagi arxiv tashkilotlari ishi haqida umumlashma yig'ma yillik hisobotlar tuzadilar.

Shuni aytib o'tish kerakki, arxivni muntazam ravishda arxiv hujjatlari bilan jamlashni tashkil etish, tizimli hisobga olish va tegishli sharoitda saqlash, arxiv hujjatlaridan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish istiqbolli rejalarini amalga oshirish kabi ishlarni amalga oshirib arxiv ishini rivojlanishini tezlashtirish zarur.

**O'quv xonalari ishi.** Barcha foydalanuvchilar arxiv hujjatlari-dan foydalanishda teng huquqlarga ega. O'quv xonalariga qatnaganligi, arxiv hujjatlaridan foydalanganligi uchun haq olinmaydi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalarining rejalariga muvofiq ilmiy ish olib borayotgan yoki xizmat topshirig'ini bajarayotgan foydalanuvchilar o'zlarini yuborgan tashkilotlarning xatlarini taqdim etadilar.

Shaxsiy tashabbusi bilan tadqiqot olib borayotgan foydalanuvchilar o'quv xonalariga shaxsiy arizalari asosida qo'yiladi. Xatlarda yoki shaxsiy arizalarda foydalanuvchilarning familiya, ismi, otasining ismi, lavozimi, ma'lumoti, ilmiy darajasi, unvoni, tadqiqot mavzusi xronologik doirasi, maqsadi ko'rsatiladi.

O'quv xonada ishlash uchun ruxsat arxivlar rahbariyati tomonidan foydalanuvchilarga zarur bo'lgan muddatga, odatda rasmiylashtirish kunidan boshlab 1 yilga beriladi. Zarurat tug'ilgan taqdirda muddatini uzaytirish masalasi arxiv rahbariyati bilan kelishib olinadi.

16 yoshga yetmagan shaxslar hujjatlar bilan ishlashga qo'yilmaydi. O'quv xonalariga ruxsatnomalarni rasmiylashtirish foydalanuvchi shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirda amalga oshiriladi.

**O'z R MDA tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va fuqarolarni qabul qilish.** O'z R MDA hujjatlarni nashr qilish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi, bu tashkilotlarga respublika davlat arxivi hujjatlaridan ilmiy, amaliy, ijtimoiy-madaniy va boshqa maqsadlarda foydalanish bo'yicha ma'lumotlar yetkazib beradi.

Bundan tashqari, O‘zR MDA tashkilotlar va jismoniy shaxslarning davlat arxivi hujjatlari bo‘yicha tematik so‘rovlariga javob byeradi; davlat arxivida mavjud hujjatlarni tematik guruhlariga ajratadi; tashkilot va muassasalarning tashabbuslariga ko‘ra arxiv hujjatlari bo‘yicha ko‘rgazmalar, ekskursiyalar o‘tkazadi.

O‘zR MDA o‘rta ta’lim muassasalariga ham xizmatlar ko‘rsatadi, ya’ni arxiv hujjatlaridan foydalangan holda maktablarda darslar uyushtiradi.

O‘zR MDA shartnoma asosida arxiv yo‘nalishlari bo‘yicha pullik xizmatlarini taklif qiladi.

Fuqarolarni qabul qilish ishini hujjatlardan foydalanish va nashr etish bo‘limi tashkil qiladi, u ijtimoiy-huquqiy so‘rovlarni bajaradi va fuqarolarni qabul qiladi. Shuning uchun foydalanuvchi tomonidan so‘rov varaqasi to‘ldiriladi, unda quyidagilar ko‘rsatiladi: familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, ish joyi (tashkilotning to‘g‘ri nomi), u yoki bu tashkilotda ishlagan vaqti, murojaat qiluvchining manzili va uning telefoni. Fuqarolarning so‘rovlarini bajarish muddati – 1 oy.

Aloqa uchun ma’lumotlar:

100043, Toshkent sh., Chilonzor ko‘chasi, 2

Tel: 277-04-80

E-mail: urittxmdag@mail.uz

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zR MDA ning tuzilishi, vazifalari va faoliyati nimadan iborat?
2. Arxiv fondlarini sharhlang.
3. O‘zR MDAdagi Turkiston general-gubernator devoni hujjatlari tarixiy manba sifatida qanday ahamiyat kasb etadi?

## Manba va adabiyotlar:

1. Закон “Об архивах Республики Узбекистан”. Материалы XIV сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан 14-15 апреля, 1999 г. / Народное слово.– 16 апреля, 1999 г.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 30 октябрдаги “Архив иши бўйича меъерий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 3 февральдаги “Ўзбекистон Республикасида архив ишини бошқаришни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарори.
4. “Архив иши бўйича меъерий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябр, 482-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон,” 2003.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Архивлар тўғрисида”ги Қонуни.- Тошкент, 1999.
7. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1995.
8. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. – М., 1957.
9. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие. – М., 1946.
10. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.
11. Иофе В.Г., Ишанходжаева З.М. Подготовка архивных кадров в Узбекистане. // Отечественные архивы, 2004, № 1.
12. Иофе В.Г., Мустафаев З.М. Архивная практика в Национальном университете Узбекистана. // Отечественные архивы. 2005, № 2.

13. Иофе В.Г. Новое в управлении архивным делом Республики Узбекистан. // Отечественные архивы, 2006. - № 1.
14. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. Ўқув қўлланма.–Т.: “Чўлпон,” 2007.
15. Исакова М.С. Архивы – хранилища фактов истории. / Народное слово, 18 апреля 2001.
16. Исакова М.С. Сокровищница ценных источников по истории Узбекистана (к 60-летию ЦГА КФФД РУз). // Общественные науки в Узбекистане. 2003, № 1-2.

# 12-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KINO-SURAT-OVOZLI HUJJATLAR VA ILMIY-TEXNIKA VA TIBBIYOT HUJJATLARI MARKAZIY DAVLAT ARXIVLARI

---

## Reja:

1. O'zbekistonda Kino-surat-ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining tashkil topishi va asosiy jamg'armalari.
2. Arxiv xizmatlari.
3. O'zbekistonda Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi va asosiy jamg'armalari.

**O'zbekistonda kino-surat-ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining tashkil topishi va asosiy jamg'armalari.** O'z SSR KSOH MDA 1943-yilda tashkil topgan. 1959-yilda O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivining kino, surat, ovozli hujjatlar bo'limi etib qayta tashkil etilgan. 1974-yildan O'zbekiston SSR kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi, 1991-yil sentyabrdan O'zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi deb nomlangan.

O'zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi – O'rta Osiyodagi eng yirik va O'zbekistondagi yagona, maxsus hujjatlar saqlovi uchun ixtisoslashgan arxivdir. O'zR KSOH MDA O'zbekiston Respublikasida o'z sohasiga tegishli bo'lgan maxsus hujjatlar bilan ishlashda ilmiy-uslubiy markaz hisoblanadi.

Arxivda O'zbekiston va Turkiston o'lkasining XIX asrning 60 yillaridan to hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrlarga oid tarixni o'zida aks ettirgan noyob hujjatlar yig'ilgan.

Mustamlaka davr suratli hujjatlarida Turkiston o'lkasidagi milliy-ozodlik va inqilobiy harakat (1898, 1905-1907-yillar) ko'ri-

nishlarini, chor Rossiyasi ma'murlari tomonidan o'lkaning boshqaruvi, ularning mahalliy hokimiyat bilan munosabatlari, sud organlari faoliyati, Qo'qon xoni va Buxoro amirining xalqaro munosabatlari va aloqalari, musulmonlar dini va turmush tarzi tasvirlangan.

Suratli hujjatlarda sanoatning rivojlanishi (temir yo'l ko'priklarining qurilishi, sug'orish kanallari, teri va yog' zavodlarining ishlab chiqarish faoliyati, to'qimachilik, ipakchilik fabrikalari, gilam to'qish xunarmandchiligi, qishloq xo'jalik inventari, ko'mir sanoati va boshqalar) qishloq xo'jalik (sodda mehnat qurollari, yerni omoch bilan haydash, qo'l bilan paxta terish va boshqalar), transport va aloqalar (vokzal binolarining ko'rinishlari; Toshkent temir yo'li, Toshkentda Turkiston pochta-telegraf xizmatchilarining X o'lka syezdi 1917-yil); savdo-sotiq (gazlama sotuv do'konchalari, do'ppilar, sopol idishlar, Samarqanddagi Registon maydonidagi sotuv rastalari; Andijon, Buxorodagi bozorlarning umumiy ko'rinishlari va boshqalar) tasvirlangan. Suratlar o'zida o'lkadagi sog'liqni saqlash, maorif va fanni rivojlanishi; Turkiston ilmiy-tekshirish komissiyasining ishlari, Samarqanddagi Ulug'bek observatoriyasi qazilmalari, musulmon maktablaridagi darslar, maktabdagi urf-odatlar, kasallarni eskicha davolash (o'qib dam solish) usullari, ko'cha muzikachilarining chiqishlari va boshqalarni aks ettirgan.

Sho'rolar davri kino, surat va ovozli hujjatlarida hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududida sho'ro hukumatining o'matilishi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, Turkiston ASSR, O'zbekiston SSR dagi davlat hukumati, ushbu respublikalar jamoat tashkilotlarining faoliyati, xalq xo'jaligi, fan-texnika, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat va san'at, sport, xizmatchilarning dam olishi, shuningdek, bu respublikalar vakillari va chet davlat siyosiy jamoat arboblarning yuqori partiya organlari faoliyatida ishtirok etishi, fan va madaniyat arboblarning O'zbekistonga tashriflari va o'z vakillarining boshqa respublikalarga safarlarini o'zida aks ettirgan.

Badiiy ovozli hujjatlar O'zbekiston, Sovet va chet el kompozitorlari asarlari, xalq musiqalari, she'riy, nasriy va dramatik asarlar,

taniqli qo‘shiqchilarning chiqishlari, xalq ijrochilari, respublika musiqa kollektivlari, jumladan Tamaraxonim, F. Baratova, M. Turg‘unboyeva, N. Axmedova, T. Qodirov, M. Uzoqov, Yu. Rajabiy va boshqa ovoqli yozuvlardan iborat.

Shuningdek, O‘zbekistonda xotin-qizlar ozodligi uchun harakati (hujum): xotin-qizlarni paranjini butunlay yo‘q qilishga qaratilgan miting va yig‘ilishlari, Respublika ayollarining syezd va slyotlari, savodsizlikka barham berishga qaratilgan kino, suratlar ham mavjud.

Arxivning kino va surat hujjatlari ikkinchi jahon urushi davridagi respublika hayotini, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining frontdagi qahramonligi, front orqasida o‘zbek xalqining yetim bolalarni asrab olish, mamlakatga zavod va fabrikalarni evakuatsiya qilinishi, mehnatkashlarning mitinglari, frontga ko‘ngillilarni kuzatish va boshqalarni ko‘rish mumkin.

Arxivda urushdan keyingi davrlarda respublika xalq xo‘jaligi tarmoqlari energetika, yoqilg‘i sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, stanoksozlik, asbobsozlik sanoati va boshqalar, transport va aloqaning rivojlanishi; O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining rivojlanishi (qishloq xo‘jaligi ilg‘orlari va ishchilarining syezd va qurultoylari), qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va kollektivlashtirish, paxtachilik va chorvachilikni rivojlantirish) o‘zida tasvirlangan kino, surat hujjatlar mavjud. Ushbu kino, surat hujjatlar madaniyat qurilishi, fan, sog‘liqni saqlash, sanat, fizkultura va sport rivojlanishi haqida ham tushuncha beradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davri kino, surat va ovoqli hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi, demokratik jamiyat qurilishi, davlat boshqaruvining yangi tizimini vujudga kelishi, markaziy organlari faoliyatining maqsad va vazifalarining o‘zgarishi, bank tizimining qayta tashkil etilishi, jahon tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining tan olinishi, chet el mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, ko‘p partiyaviylikning va jamoat harakatining vujudga kelishi, bozor



iqtisodiyoti, tadbirkorlikning rivojlanishi, yangi ma'naviy dunyoqarashning vujudga kelishini o'zida aks ettirgan.

Arxivning kino hujjatlari M. Qayumov, D. Salimov, Sh. Zoxidov, I. Gibalevich kabi va ko'pgina boshqa hujjatli kino ustalari ishlari bilan tanishtiradi. O'zR KSOH MDA da irrigator P.M. Kildyushovning, Toshkent tramvay-trolleybus boshqarmasi faxriy ishchisi M. Yusupovning, Toshkent Davlat Universiteti biologiya-tuproqshunoslik fakulteti professori I.A. Raykovaning, respublikamizning sport faxriylari L. Ivanova va F.R. Semerninlarning, "Tashkentskie malchishki" kitob muallifi, jurnalist L. Berejnixning, respublikamizning markaziy ro'znoma va oynomalari suratkash muxbirlari M.Z. Penson, I.N. Panov, A.P. Shteynberg, U. Nurumbayev, E. Ryapasov, M.Ya. Rozankrans va boshqalarning suratli hujjatlar kolleksiyalari (to'plamlari) saqlanadi.

**Arxiv xizmatlari.** O'zR KSOH MDA da quyidagi xizmatlar amalga oshiriladi:

– arxivda saqlanayotgan kino, surat va ovozli hujjatlar haqida ma'lumot berish;

– tadqiqotchilar o'rganishi va ishi uchun kino, surat va ovozli hujjatlarni taqdim etish;

– kino hujjatlarni video tasmaga ko'chirib berish;

– surat va ovozli hujjatlar nusxalarini tayyorlash;

– suratli ko'rgazma va stendlarni tashkil etish;

– mavzuli so'rovlarni ijro etish;

– suratli albomlar tayyorlash;

– arxiv bo'yicha umumiy va mavzuli ekskursiyalarni tashkil etish.

Ko'rsatilgan xizmatlar yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovnomalari asosida amalga oshiriladi. Arxivning kino, surat va ovozli hujjatlari faqat arxiv rahbari ruxsati orqali taqdim etiladi. Ruxsat beriladigan muddat ish mavzusi bo'yicha belgilanadi. Tadqiqotchilarni kino, surat va ovozli hujjatlar bilan ishlashi arxivning kino zali, katalog va ovozli hujjatlar eshitish xonalarida amalga oshiriladi.

Bog'lanish uchun ma'lumot: Toshkent, 100043, 1 Chilonzor berk ko'cha,

Tel. 277-55- 89, 277-11-44, 277-55-11.

E-mail: urittxmdag@mail.uz

**O'zbekistonda Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi va asosiy jamg'armalari.** O'zbekiston Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy Davlat arxivi 1962-yil O'z SSR Ministrlar Sovetining qaroriga binoan tashkil etilgan.

2004-yilda arxiv S. Rahimov tumani, Nozimaxonim ko'chasi, 86-uyda joylashgan yangi binoga ko'chib o'tdi. Arxivda quyidagi sohadagi korxonalar, tashkilot va muassasalardan hujjatlar qabul qilinadi va saqlanadi:

1. Sanoat.
2. Qishloq xo'jaligi.
3. Suv xo'jaligi.
4. O'rmon xo'jaligi.
5. Transport.
6. Qurilish.
7. Turar-joy kommunal xo'jaligi.
8. Maishiy xizmat ko'rsatish.
9. Sog'liqni saqlash muassasalari.

Arxivda ilmiy texnikaviy hujjatlar, konstruktorlik loyihalar va bir qancha tarixiy ahamiyatga ega hujjatlar saqlanadi.

Masalan, qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tumanlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish to'g'risidagi loyihalar va smetalar mavjud. Suv xo'jaligi sohasida Respublikabo'yichaxo'jaliklarni, xalqni ichimlik suvi bilan ta'minlash va yerlarni sug'orish ishlari haqidagi, o'rmon xo'jaligi sohasi bo'yicha cho'l yerlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari haqida, transport sohasi bo'yicha ko'priklar qurish, yo'llarni ta'mirlash to'g'risidagi, qurilish sohasida esa shahardagi turar-joylar, binolar qurish, rekonstruksiya qilish haqidagi, paxta tozalash, paxtani qayta ishlash va yana bir qancha mashinalarning loyihalari

haqidagi, sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha ilmiy-tekshirish institutlarida olib borilayotgan ilmiy ishlar, tibbiyot sohasi tarixini rivojlantirishga oid doimiy saqlanadigan boshqaruv hujjatlari mavjud.

Bundan tashqari, respublikada ilm-fan sohasini rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shgan professor va olimlarning shaxsiy jamg‘armalari tashkilqilingan bo‘lib, ularning shaxsiy hujjatlari, suratlari, ilmiy ishlari qabul qilinadi va saqlanadi. Masalan, me‘mor A.B. Boboxonov, kardiolog M.X. Xamidova, ximik T.M. Mirkomilov, stomatolog T.X. Safarov, onkologlar S. Navro‘zov, Y.T. Tadjibayeva, M.A. Gafur-Oxunov, ginekolog-professor N.M. Maxmudova, A.A. Choroxova, xizmat ko‘rsatgan agronom M.M. Mirzayev, irrigator N.A. Aliyev, yirik suv xo‘jaligi qurilishlarining rahbari E.I. Ozerskiy, S.S. Kanash, bakteriolog va patologoanatom S.P. Choroxov, epidemiolog N.I. Xodukinlarning shaxsiy jamg‘armalari saqlanadi.

Aloqa uchun malumot: 100109, Toshkent sh., S. Rahimov tumani, Nozimaxonim ko‘chasi, 86 uy.

Tel. 46-53-54, 46-52-84.

E-mail: urittxmdag@mail.uz

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Arxivning tarixi, tuzilishi, vazifalari va faoliyatini yoritish.
2. Asosiy bo‘limlarini sharhlang.
3. Arxivdagi tibbiyot va ilmiy-texnikaga oid hujjatlarni tahlil qiling.

### **Manba va adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent, 2010.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30 oktabrdagi “Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori
4. "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil, 30 oktabr, 482-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: «O'zbekiston,» 2003.
6. O'zbekiston Respublikasining "Arxivlar to'g'risida"gi qonuni.- Toshkent, 1999.
7. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'z bosh arxiv" boshqarmasi to'g'risidagi Nizomi va respublika markaziy davlat arxivlari tarmog'ini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil, 19 iyun, 296-sonli qarori.
8. "O'zbekiston Respublikasi arxiv ishini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil, 3 fevral, 47-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2004, №4.
10. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2004-yil, №6.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh Arxiv boshqarmasi va Amerikaning «Xolokost» yodgorlik Kengashi va uning Vashingtondagi Muzeyi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida Bitim. – Toshkent, 2003, № 6. / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi Axborotnomasi. – Toshkent, 2003, № 31.

### Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi viloyat davlat arxivlari va filiallari tarixi.
2. Viloyatlarda arxiv ishining tashkil qilinishi.
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.

**O‘zbekiston Respublikasi viloyat davlat arxivlari va filiallari tarixi.** Turkistonda mahalliy viloyat arxiv bo‘limlarini tashkil qilinishiga katta e‘tibor berilgan. Masalan, 1920-yil martida Farg‘onada, 1920-yil iyunda – Samarqandda, o‘sha yil noyabrda Yettisuvda, 1920-yil martda – Kaspiyorti viloyatida ana shunday arxiv bo‘limlari tashkil qilindi.

Mahalliy arxiv tashkilotlari Turkiston Respublikasi Komissarlari Soveti (XKS)ning 1921-yil 25 yanvardagi “Viloyat arxiv fondlari to‘g‘risida” gi qaroriga asosan qonuniy jihatdan rasmiylashdi. Bu qarorga ko‘ra viloyat hududidagi barcha idoralarning ish yuritish hujjatlari viloyat davlat arxivi fondining tarkibiy qismi hisoblanadi deb ko‘rsatilgan.

Markaziy va mahalliy davlat arxivlarining muhim vazifasi arxiv hujjatlarini qidirib topish va yig‘ish edi. 1920-1921-yillari 500 dan ortiq fondlar hisobga olindi. 1921-yil oxirigacha davlat arxiv fondlariga 157 ta harbiy va fuqaro tashkilotlari, 305 mingdan ortiq yig‘majildlarni topshirdilar. 1922-yili 83 ta tashkilot tomonidan 200 mingga yaqin yig‘majild topshirildi.

1924-yil 28 dekabrda maxsus qaror bilan O‘z SSR MIK huzurida O‘z SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. O‘zbekiston hududida tashkil etilgan barcha arxivlar, masalan, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarda vujudga kelgan arxiv fondlari O‘z SSR Arxiv ishi

Markaziy boshqarmasiga topshirildi. Shuningdek, O'rta Osiyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxiv fondlari ham O'rta Osiyo markaziy arxivi tuzilmaganligi uchun O'zbekiston arxiv boshqarmasiga topshirildi, chunki ushbu O'rta Osiyo arxiv fondlari Toshkentda vujudga kelgan edi. Shunday qilib, O'z SSR arxivida faqat respublika tarixiga oid hujjatlarga emas, balki butun O'rta Osiyo tarixiga doir materiallar saqlana boshladi.

**Viloyatlarda arxiv ishining tashkil qilinishi.** Viloyatlarda viloyat arxiv byurolari tashkil etildi. 1925-yilda Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Zarafshon viloyatlari arxiv byurolari, 1926-yilda esa, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari arxiv byurolari ochildi.

1938-yil yanvarida Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlari qayta tashkil bo'ldi. Shu munosabat bilan 1938-yil iyunida shu viloyatlarda arxiv boshqarmalari tuzildi.

1941-yil Andijon, Namangan, Surxondaryo va keyinroq, 1943-yili Qashqadaryo viloyatlari tashkil etilishi bilan viloyat Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) boshqarmasida arxiv bo'linmalari va viloyat davlat arxivlari tashkil qilindi.

**Andijon viloyati davlat arxivi.** 1936-yilda Andijon shahri arxivi sifatida 1927 yilgacha Farg'ona va Andijon okruglari arxivi sifatida 1930 yilda tashkil etilgan. O'z SSR Markaziy arxiv boshqarmasi Farg'ona bo'limi bazasi asosida tashkil etilgan. 1941-yilda Andijon viloyati davlat arxivi deb qayta nomlandi.

Mahalliy davlat idoralari boshqaruvi jamg'armasida, sovet hukumatining o'rnatilishi, xalq xo'jaligi, madaniy xo'jalikning yuritilishi, mahalliy idoralarning boshqaruviga oid ma'lumotlar mujassamlashgan. Shuningdek, Andijon uyezdi Turkiston bo'limi jamg'armasida M.V. Frunzening 1925-yil fevral oyidagi tashriflari, 1924-yil o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida xonavayron bo'lgan dehqonlar ahvoli, Andijon uyezdi shahar boshqaruviga oid ma'lumotlar mavjud. Adliya va sud jamg'armasida, viloyatdagi ushbu sohaga oid ko'plab tergov va sud faoliyatiga doir hujjatlar bor.

Andijon viloyati davlat arxivida 432 jamg'arma 1917-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan 89212 yig'majild. 4964 saqlov birligidagi suratli hujjatlar (1963 yildan hozirgi davrgacha) mavjud.

**Buxoro viloyati davlat arxivi.** 1925-yilda Zarafshon viloyati arxiv byurosi sifatida tashkil etilib, 1927-yildan Buxoro okrugi arxiv byurosi deb qayta nomlangan. 1931-yildan Zarafshon viloyati va Buxoro okrugi arxiv jamg'armalari Samarqand bo'limida to'plangan edi. 1932-yildan esa Buxoro bo'limiga topshirilgan. 1938-yili Buxoro viloyati boshqaruviga o'tkazilgan. 1940-yildan Buxoro viloyati davlat arxivi deb tashkil etilgan.

Arxivda Buxoro viloyati shuningdek, Zarafshon viloyatiga oid hujjatlar, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining 1920-1924-yillar tarixiga oid hujjatlar jamlangan edi. Bugungi kunda bu barcha hujjatlar O'zbekiston Markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.

Shuningdek, arxivda 1918-yilda shahar Dumasining faoliyati, zavodlarning davlat hisobiga o'tkazilishiga oid, Navoiy, Buxoro harbiy garnizoni Kerkidagi qo'zg'olonlar (1919-yil), shuningdek, harbiy asirlarni K. Gaos boshchiligidagi faoliyatiga oid ma'lumotlar to'plangan. Buxoro tumani ijroiya qo'mitasi jamg'armasida – Zarafshon viloyatida dastlabki MTSning tuzilishiga oid, uy va sanoat qurilishiga, va madaniy-ma'rifiy sohaga doir hujjatlar mavjud.

Madaniyat jamg'armasida esa, milliy san'at tarixini o'rganish, sog'liqni saqlash, mahalliy qozilar faoliyatiga doir hujjatlar to'plangan.

Shaxsiy jamg'arma arxivlarida, arxeolog S.N.Yunineva, Buxoro Davlat Pedagogika instituti tarix fanlari nomzodi F.Chelaxa va yozuvchi satirik N.Alimovlar to'g'risidagi hujjatlar mavjud.

Arxivning suratli hujjatlarida 1917-yilgi voqealarning O'zbekiston xalqiga o'tkazgan zulmiga, gaz quvurini qurilishiga oid (1965), Amu Buxoro kanali (1965) tarixiga oid, Navoiy GRES (1965) qurilishiga oid lavhalar tasvirlangan. Shuningdek, Buxorodagi Minorai Kalon, Mir Arab madrasasi, Chorminor, Ismoil Somoniy maqbarasi, Buxoro olimlarining yozgi va qishgi saroylari hisoblangan Sitorai Mohi Xosa va Arklar xususida atroflicha ifodalar berilgan.

**Jizzax viloyati davlat arxivi.** Sirdaryo viloyati davlat arxivining Jizzax filiali sifatida 1954-yilda qayta nomlandi. Mazkur arxiv hujjatlari viloyat va uyezd tarixini yoritib va ushbu tarixga oid hujjatlar Jizzax uyezdi ishchi dehqonlar va qizil armiya deputatlari jamg'armasida mujassamlashgan.

Jizzax suv okrugi 4-jamg'armasida fuqarolarning urush davriga oid Milliy ozodlik kurashi haqidagi hujjatlar mavjud.

Shuningdek, bu jamg'armada yer-suv islohoti, 1921-yildagi ocharchilikka qarshi kurashga oid ma'lumotlar mavjud.

Sanoat korxonalari jamg'armasida qurilish materiallarining ahvoli, paxta tozalash, plastmassa mahsulotlarini kimyoviy tayyorlash, go'sht va sut mahsulotlarini tayyorlashga oid ma'lumotlar jamlangan.

Shuningdek, arxiv hujjatlarida sanoat, uy-joy qurilishi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va sport-madaniy soha faoliyatiga oid qimmatli hujjatlar mavjuddir.

Arxiv suratli hujjatlari 1920-yilda "Jizzax temiryo'lichilari shanbaliklari", "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari" haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

Jizzax viloyati davlat arxivida 101 jamg'arma, 20720 saqlov birligidagi yig'ma jildlar, ularning 1917-yildan hozirgi kungacha. 101 ta suratli hujjatlar bo'lib, davriy chegarasi 1920-yildan hozirgi kungacha.

1974 yildan arxiv Jizzax viloyat davlat arxivi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Navoiy viloyati davlat arxivi.** 1982-yilda Buxoro viloyati davlat arxivi huzuridagi Navoiy shahar arxivi sifatida tashkil etilgan.

Navoiy shahri ijroiya qo'mitasi jamg'armasida sovet hukumatining ma'muriy-hududiy boshqaruviga oid, 1979-yildagi aholini ro'yxatga olish to'g'risidagi, Karmana, Zarafshon shahar posyolkalarining qurilishiga oid ma'lumotlar mavjud.

Navoiy azot kombinati jamg'armasida kimyo sanoatining rivojlanishiga doir, paxta tozalash, sement zavodlarining qurilishiga oid ma'lumotlar jamlangan.



Shuningdek, ushbu jamg'armada xalq ta'limi hayoti ham yoritilgan.

Sog'liqni saqlash jamg'armasida kasalxonalarining qurilishi, har xil epidemiyalarga qarshi kurash, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishga oid ma'lumotlar to'plangan. Xususan, Prokuratura nazoratida tartibni saqlashga oid hujjatlar ham mavjud edi.

Navoiy viloyati davlat arxivida 12 jamg'arma 6105 yig'ma jild. 1940-yildan hozirgi davrgacha va 1984-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan 67 saqlov birligidagi suratli hujjatlar mavjud.

**Namangan viloyati davlat arxivi.** 1936-yilda Namangan davlat arxivi bazasi asosida tashkil etilgan 1941-yilda Namangan viloyat davlat arxivi deb qayta nomlangan. 1960-yildan Andijon viloyati davlat arxivining Namangan shahar filiali sifatida faoliyat yuritgan. 1986-yilga kelib, Namangan viloyati davlat arxivi deb qayta nomlangan.

Arxiv jamg'armalariga Namangan viloyati siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga oid sovet hukumati davrini yorituvchi hujjatlar jamlangan. Namangan viloyatida sho'rolar hukumatining o'rnatilishi, milliy ozodlik harakati, sotsialistik qurilishning olib borilishi va Namangan viloyati shahar, tuman ijroiya qo'mitalari jamg'armalarida turli hujjatlar mujassamlashgan.

Uyezd yer-suv komissiyasi jamg'armasida qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligiga oid 1925-1926 yillardagi yer-suv islohotlariga oid, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishga, kooperativlar tarixiga oid hujjatlar to'plangan.

Xalq ta'limi jamg'armasida, sog'liqni saqlash, madaniyat, kasaba uyushmalari, xalqning moddiy ahvoriga oid, ko'p sonli oilalarning ahvoriga doir ma'lumotlar mavjud.

Arxivning suratli hujjatlari jamg'armasida yer-suv islohotlari, sanoat va xalq xo'jaligi taraqqiyotini madaniy va ommaviy tarzda yoritilishiga oid hujjatlar mavjud.

**Samarqand viloyati davlat arxivi.** Arxivning tashkil topishi 1921-yilda Turkiston ASSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasining Samarqand viloyati bo'limi sifatida tashkil topadi.

1925-yilda Samarqand viloyati arxiv byurosi deb, 1927-yilda Samarqand viloyat arxiv boshqarmasi deb nomlangan va 1940-yilda shu arxivlar bazasi asosida Samarqand viloyati davlat arxivi tashkil etilgan.

Samarqand viloyati inqilob jamg'armasida viloyatga oid, uyezd, volost okruglariga oid va tuman ijroiya qo'mitasi faoliyatiga, 1917-yilgi voqealarning xalqimizning mustabid zulmiga ya'ni istilosiga oid va fuqarolar urushiga, shuningdek, mahalliy xalqning sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishiga qarshilik qiluvchi milliy ozodlik harakatlariga oid, shuningdek, Turkiston o'lkasidagi shahar, tuman va bu yerlarga sovet hokimiyatining o'rnatilishiga doir arxiv hujjatlari mavjud.

O'rta Osiyoning milliy chegaralanishiga oid jamg'armada O'z SSR 1924-1930 yillar oralig'ida qanday ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda bo'lganligiga, uning poytaxti bo'lmish Samarqand va keyinchalik viloyatdagi sotsialistik qurilish haqidagi hujjatlar mavjud.

Shuningdek, iqtisodiy va sanoat ishlab chiqarish jamg'armasida viloyatning sanoatiga oid mulklarining nasionalizatsiyasi, paxta yetishtirish, vinochilik, ipakchilik va boshqa sohalarga oid arxiv hujjatlari bor. Viloyat qo'mitasining qishloq xo'jalik jamg'armasida "Qo'shchi ittifoqlarning vujudga kelishi", yer suv islohotlariga oid hujjatlar saqlanmoqda.

Faxriylar jamg'armasida shaxsiy arxiv hujjatlari G.A. G'ofurovning harbiy injener, general-mayor B. Kastalskiyning faoliyatiga oid, O'zbekiston meditsina jamg'armasi professori A.M. Isayevaning faoliyatini yorituvchi tarixchi olimlar Samarqand davlat universiteti vakillari M.Ya. Abduraximova, I.I. Kmnyakova, X.F. Chekayeva faoliyatiga oid hujjatlar bor.

Shuningdek, bu jamg'armada ulug' vatan urushi qatnashchilari haqida ham batafsil ma'lumotlar mavjud. Arxivning suratli hujjatlari ichida Bibixonim, Shohi Zinda, Xo'ja Ahror masjidi, Ulug'bek madrasasi, Temuriylar saroyi arxiv hujjatlari saqlanmoqda. Arxivda shuningdek, Samarqand viloyatidagi 1927-yilgi syezd, 1929-yil

1 may namoyishi, hujum harakatlariga oid va sobiq Komsomol ko'lidagi 1957-yildagi arxeologik izlanishlarga oid hujjatlar mavjud.

**Sirdaryo viloyat davlat arxivi.** 1941-yilda Toshkent viloyati davlat arxivining Mirzacho'l tumani bazasida faoliyat ko'rsatib, 1963-yilda ajralib chiqqan. 1962-yilda Guliston tumanlararo Toshkent viloyati davlat arxivi sifatida faoliyat olib borgan.

Arxiv hujjatlari Mirzacho'l tumani va shu yerlarni o'zlashtirish tarixiga, Sirdaryo viloyati va Guliston tarixiga bag'ishlanadi.

Mirzacho'l uyezdi cho'l yerlarni o'zlashtirish ishchi sovet dehqon deputatlari jamg'armasida bu hududda sovet hukumatining o'rnatilishi, Mirzacho'l uyezdi harbiy komissarligining Turkiston fronti shahri, profsoyuz uyezdlari va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Mirzacho'l ijroiya qo'mitasi jamg'armasida savodsizlikni tugatilishi, madaniy-ma'rifiy ishlarning ishchi dehqonlar o'rtasida olib borilishi, yer-suv islohotlarini o'rnatilishi, aholidan qishloq xo'jaligi soliqlarini olishga oid ma'lumotlar mujassamlashgan.

Sanoat jamg'armasi hujjatlarida yog' ishlab chiqarish, paxta zavodining qurilishi va yo'l qurilishiga oid ma'lumotlar mujassamlashtirilgan.

Eski Kerp kanali magistrali boshqarmasi jamg'armasida sug'orish va cho'l yerlarini o'zlashtirishga, kanalni ta'mirlashga oid ma'lumotlar mavjud.

Madaniy va kino boshqarmasi jamg'armasida, "Sirdaryo haqiqati" gazetasi faoliyati, shuningdek davlat sog'liqni saqlash, Gulistonda kasalxonalar qurilishiga oid hujjatlar mujassamlashgan.

Tashkil topgan yili 1954-yil.

**Surxondaryo viloyat arxivi.** 1926-yilda Surxondaryo viloyati arxiv byurosi tashkil qilinib, 1927-yilda okrug arxivi sifatida qayta nomlandi. 1934-yilda O'z SSR Markaziy arxiv boshqarmasining Tyermiz bo'limi tashkil qilinib, 1955-yildan boshlab Surxondaryo okrugi arxivi deb atala boshlandi. 1941-yildan boshlab Surxondaryo viloyat davlat arxivi deb qayta nomlandi.

Arxivda Surxondaryo viloyatiga tegishli bo'lgan viloyat tarixini, sovet davrini yorituvchi va bu davrdagi ijtimoiy qurilishlarni aks ettiruvchi arxiv hujjatlari to'plangan. Arxivda sovet hokimiyatining Termiz shahrida ham o'rnatilishi kabi ma'lumotlar jamlangan.

Masalan: Termiz shahar boshqaruvi jamg'armasida sovetlarning yig'ilishlari, ishchi dehqon va deputat kengashlarining qarorlari, shahar komissarlari ma'ruzalari to'plangan (1917-1918-yillar).

Qizil partizanlar byurosi jamg'armasida O'zbekiston xalqining boshiga mustamlaka istibdodini solgan Qizil armiya xususidagi ma'lumotlar mujassamlangan (1932-1933-yillar); Sovet hukumatining iqtisodiy va madaniy sohadagi amalga oshirgan ishlari Surxondaryo okrug, viloyat va shahar ijroiya qo'mitasi jamg'armalarida jamlangan. Shuningdek, milliy ozodlik harakatimizning faoliyati yoritilgan hujjatlar, oddiy mehnatkash xalqning orden va medallar bilan taqdirlanishi, xotin-qizlarning paranjini tashlashi va sobiq sho'rolar hukumatining jamoat ishlariga jalb qilinishi, aholi sonining o'sib borishi, savodsizlikning tugatilishi, maktab, kasalxona, shahar va tumanlarda olib borilgan obodonlashtirish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham mavjud.

Xo'jalikning viloyatda rivojlanishi to'g'risidagi arxiv hujjatlari— Surxondaryo viloyati mahalliy xo'jaliklar bo'limi jamg'armalarida yig'ilgan.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi jamg'armasida xalq xo'jaligini rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Surxondaryo viloyati xomashyo tayyorlash va paxtani qayta ishlash jamg'armasida, Termizdagi paxta tozalash zavodining hujjatlari, umuman paxtani yetishtirish va qayta ishlashga oid bo'lgan ya'ni, paxta sanoati to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ilgan.

Ko'pgina arxiv hujjatlari sovet hukumatining sharqda olib borgan savdo aloqalariga ham bag'ishlanadi.

Yerchilik, yerga egalik qilish, suvdan foydalanish haqidagi hujjatlar Surxondaryo viloyati yer qo'mitasi jamg'armasida o'z aksini topgan. Shuningdek, bu jamg'armada Termizdagi sug'orish tizim-

lari, Surxondaryo viloyati suv xo‘jaligi, Xo‘jaqiyon kabi melioratsiya va chorvachilik to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tasvirlangan.

Madaniy qurilish sohasidagi ma‘lumotlar Surxondaryo xalq ta‘limi bo‘limi jamg‘armasida aks ettirilgan. Ko‘ngilli jamiyatning faoliyati Surxondaryo okrug profsoyuzi jamg‘armalarida jamlangan. Arxivning suratli hujjatlari – shahar qurilishi, xonalar, maktabning ochilishi, yodgorliklar, kinoteatrlar to‘g‘risidagi rasmlar, ishlab chiqarishning turli sohalari va qishloq xo‘jaligi voqealarini tasvirlaydi.

Surxondaryo viloyat davlat arxivi 384 jamg‘armadan tashkil topgan bo‘lib, 88.530 yig‘majildidan iborat. 1917-yildan bugungi kungacha bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

18.701 ta saqlov birligidagi suratli hujjatlar ham mavjud (1964 va hozirgi kungacha bo‘lgan yillarni tasvirlagan).

**Toshkent viloyati davlat arxivi.** 1938-yilda Toshkent viloyati arxiv byurosi bazasida ya‘ni 1925-yilda tashkil etilgan va 1927-yildan okrug arxivi deb o‘zgartirilgan. Arxiv hujjatlarida Toshkent shahridagi oktabr inqilobining tarixi, sho‘rolar davrida viloyatdagi qurilishlarning olib borilishiga oid materiallar jamlangan. Arxivning Sirdaryo viloyati ishchi dehqonlar deputatlari ijroiya qo‘mitasi jamg‘armasida Toshkent uyezdi, shuningdek milliy harbiy qismlar, sobiq sovet hukumati idoralari xususidagi ma‘lumotlar jamlangan.

Viloyat ijroiya qo‘mitasi statistika boshqaruv jamg‘armasida, Chirchiq elektroximiya kombinati, Farhod GESi va boshqa korxonalar, Olmaliq, Angren, Ohangaron, Bekobod va Chirchiq tarixiga doir ma‘lumotlar to‘plangan.

Mahalliy sanoat boshqarmasi jamg‘armasida, Toshkent okrugi qishloq xo‘jaligi kooperativlari sanoatining rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqqa oid ma‘lumotlar mavjud.

Toshkent viloyati okrug, uyezd, yerchilik bo‘limi jamg‘armasida, Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi boshqaruvi, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirilishiga oid, shuningdek, yer-suv islohotlariga va sug‘orishga oid ma‘lumotlar jamlangan.

Toshkent viloyati okrug, uyezd xalq ta‘limi va madaniyati

idoralari jamg'armasida, viloyatda xalq ta'limini rivojlanishiga oid, maktab, maktab intyernatlari, bolalar uylari, oliy o'quv yurtlarining tuzilishiga oid, o'rta maxsus bilim yurtlari, kutubxona va madaniyat uylarining qurilishiga oid ma'lumotlar bor.

Sirdaryo viloyati kasaba uyushmalari kengashlari hujjatlari, Toshkent viloyati kasaba uyushmalari kengashlarining ishsizlikning tugatilishiga, savodsizlikka qarshi va uning tugatilishiga oid, xotin-qizlar faoliyatiga doir, qishloq faoliyatiga oid, urush davrida front ortida turib, frontdagilarga yordam berganlar haqidagi batafsil hujjatlar mavjud.

**Qashqadaryo viloyati davlat arxivi.** Qashqadaryo viloyati arxiv byurosi 1926-yilda tuzilib, 1927-yilda Qashqadaryo viloyati okrugi arxivi deb nomlandi.

1935-yilda Qashqadaryo okrug arxivi tashkil qilinadi. 1938-yilda bu okrug arxiv hujjatlari Buxoro viloyat boshqarmasiga beriladi. 1940-yilda Buxoro davlat arxiviga topshiriladi. 1943-yilda qaytadan Qashqadaryo viloyati davlat arxivi va bo'limi tashkil qilinib, 1960-yilga kelib, Surxondaryo viloyati davlat arxivining filiali sifatida faoliyat ko'rsatadi.

1964-yilda yana qaytadan Qashqadaryo viloyati davlat arxivi sifatida arxiv tashkil qilinadi. Arxiv jamg'armasi hujjatlarida Qashqadaryo viloyati va qarshi shahri xo'jalik va madaniy qurilishi tasvirlangan.

Qashqadaryo viloyati ijroiya qo'mitasi jamg'armasida Sovet hukumatining o'rnatilganligi to'g'risidagi hujjatlar bor. Saylov komissiyasi jamg'armasida bevosita sobiq sovet hukumati davridagi markaziy saylovlar respublika va mahalliy organlarda bo'lgan saylovlar o'z aksini topgan. Shuningdek, xalq xo'jaligi, madaniyat, elektr stansiyalarining qurilishi, maktablar, kasalxonalar, teatrlar, kinoteatrlar, parklarning qurilishiga doir hujjatlar, viloyat va shahar-sovet deputatlari jamg'armasida va viloyat statistika boshqarmasi hujjatlarida o'z aksini topgan. Qarshi shahri ishlab chiqarish sanoati jamg'armasida tikuvchilik, shahar va viloyatda sanoat kombinat-

lari tarixiga, Koson selitra va Beshkent tarixi xususidagi hujjatlar jamlangan.

Kollektivlashtirish davridagi kolxozlar qurilishi, suv xo‘jaligi hujjatlari, mehnatkash ishchi sovet qo‘mitasining, shuningdek, viloyatdagi yerchilik idoralarining va kolxozlarining tarixiga oid hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Ularda bug‘doy yetishtirish texnikasi tarixi, paxta yetishtirish, yerchilik, bog‘dorchilik, uzum va qorako‘lchilikka oid ma‘lumotlar bor.

Xalq ta‘limi jamg‘armasi hujjatlarida – sog‘liqni saqlashga oid, savodsizlikni tugatishga va maktablarni kengaytirishga oid ma‘lumotlar mavjud.

Suratli hujjatlar jamg‘armasida sanoat va qishloq xo‘jaligiga oid ma‘lumotlar to‘plangan.

Qashqadaryo viloyati davlat arxivida 517 ta jamg‘arma bo‘lib, 47380 saqlov birligi yig‘ma jildlardan iborat. Mazkur hujjatlar 1924-1980-yillarga oid. Ulardan 4273 tasi 1964-1985-yilga doir suratli hujjatlardir.

**Farg‘ona viloyat davlat arxivi.** 1925-yilda Farg‘ona viloyati arxiv byurosi sifatida, 1927-yildan Farg‘ona va Andijon okruglararo arxivi sifatida faoliyat yuritib, 1938-yildan Farg‘ona viloyati davlat arxivi boshqarmasi, deb o‘zgartirilgan. 1940-yilda esa Farg‘ona viloyati arxiv bo‘limi va Farg‘ona viloyati davlat arxivi sifatida qayta tashkil qilindi.

Farg‘ona viloyati tarixi jamg‘armasida Farg‘ona shahri, Namangan va Andijon viloyatlari tarixiga oid hujjatlar mavjud. Shuningdek, Farg‘ona viloyati ishchi-sovet, soldat va dehqonlari xo‘jaliklari jamg‘armasida shu viloyatlardagi sovet hukumatining o‘rnatilishi, shuningdek Farg‘ona viloyati boshqaruv tizimi, madaniy qurilish, ocharchilikka, ishsizlikka, xotin-qizlarni jamoat ishlariga jalb qilishga oid hujjatlar bor. Sanoat jamg‘armasida esa bevosita o‘lkada mahalliy va turli xil hunarmandchilikning tarixiga oid “Sredazneft” va “Azot”kabi ishlab chiqarish korxonalari, yog‘ va boshqa turli

kombinatlari, ipakchilik kombinatlar, paxta tozalash va irrigatsiya ishlariga oid hujjatlar bor.

Viloyatdagi bir qator elektrlashtirishga oid hujjatlar ham mavjud. Farg'ona elektr xo'jaligini boshqarish jamg'armasida mujassamlashgan, qishloq xo'jaligi jamg'armasida, qishloq xo'jaligini rivojlanishi, yer-suv islohotlari, yirik kolxoz va sovxozlar qurilishi, paxta, uzum, chorvachilik, shuningdek, qishloq xo'jaligini yangi texnikalari bilan ta'minlanganligiga oid hujjatlar mavjud.

Xalq ta'limi jamg'armasida, viloyatdagi oliy o'quv yurtlarini tashkil etilishiga maktab, bolalar madaniy uylari, o'rta maxsus bilim yurtlariga oid hujjatlar bor.

Kasaba uyushmalari jamg'armasida, savodsizlikka qarshi kurash, qishloqlar ustidan boshqaruv, mamlakatda sobiq sovet davri boshqaruviga, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davrida front ortidagi yordamlashish tarixiga oid hujjatlar bor.

Xalq xo'jaligini qayta qurish jamg'armasida korxonalarining, aholi punktlarining ko'chirilishiga oid hujjatlar mujassamlashgan.

Shaxsiy jamg'armada esa O'z SSRda xizmat qilgan ko'pgina kishilar to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar joy olgan.

Sobiq SSSR yuqori kengashi, shuningdek O'z SSR mahalliy ishlab chiqarish, paxta, chorvachilik, ishchi xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan munosabatlarni yoritib beradi.

Farg'ona viloyat davlat arxivida 711 jamg'arma, 1917-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan 152519 yig'ma jild va 1918-yildan hozirgi davrgacha 4604 saqlov birligidagi suratli hujjatlar mavjud.

**Xorazm viloyati davlat arxivi.** 1926-yilda Xorazm viloyati arxiv byurosi sifatida tashkil etilgan. 1927-yildan Xorazm okrugi arxivi deb o'zgartirilgan.

1934-yildan O'zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi yangi Urganch bo'limi sifatida tuzilib, 1935-yildan Xorazm okrugi arxivi deb qayta o'zgartirildi. 1938-yildan Xorazm viloyati arxiv boshqarmasi deb qayta nomlangan. 1940-yildan boshlab Xorazm viloyati davlat arxivi



sifatida hozirgi kungacha arxiv ishi sohasida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Viloyat va tuman ijroiya qo'mitasi jamg'armasidagi hujjatlarda Xorazm viloyati xalq ta'limi va viloyatdagi qurilish ishlarini olib borilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, sovet hukumatining iqtisodiy-siyosiy siyosati va viloyatda sovet hukumati mahalliy idoralarining olib borgan iqtisodiy va madaniy hayoti aks ettirilgan.

Qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi jamg'armasida, qishloq xo'jaligida tashkil etilgan kolxoz va mts larning tuzilishi, kollektivlashtirishni o'tkazilishi, paxtachilik, chorvachilik va sug'orish tizimlari taraqqiyoti borasidagi ko'pgina hujjatlar mavjud.

Sovet hukumati xalq ta'limi jamg'armasida, xalq ta'limiga, shuningdek, viloyatda sog'liqni saqlash, sport va madaniyat sohasiga oid va maktab internat, bolalar uylarining qurilishi faoliyatiga doir ma'lumotlar mavjud. Xususan, viloyatdagi oliy o'quv va o'rta maxsus bilim yurtlarini, kutubxonalar, madaniy-maishiy uylar qurilishiga oid, viloyat aholisining statistikasiga oid hujjatlar jamlangan. Shuningdek, arxivda suratli hujjatlar Xorazmdagi sovet hukumatining boshqaruvi-ga oid, sovet ittifoqi qahramonlari va mehnat qahramonlari hayotiga oid va turli shahar va tumanlarga doir hujjatlar jamlangan.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.** 1925-yilda Qoraqalpog'iston avtonom viloyati arxiv idorasi sifatida, 1932-yildan Qoraqalpog'iston ASSR arxiv idorasi sifatida, 1934-yildan esa Qoraqalpog'iston ASSR Markaziy boshqarmasi sifatida, 1940-yildan Qoraqalpog'iston ASSR NKVD arxiv bo'limi sifatida va Qoraqalpog'iston ASSR davlat arxivi sifatida o'z faoliyatini olib borgan.

1943-yildan boshlab, hozirgi kungacha Qoraqalpog'iston ASSR Markaziy Davlat arxivi sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Qoraqalpog'iston ASSR arxividagi davlat boshqaruvi va tuzilishi jamg'armasida, Qoraqalpog'iston ASSR va Nukus shahri tarixi shuningdek, Turkiston ASSR Amudaryo bo'limi tarixi va Qoraqalpog'iston ASSR ning 1924-yilda O'z SSR tarkibidagi tari-

xiga doir ma'lumotlar, Qoraqalpog'iston viloyati va qishloqlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ocharchilikka, vayronagarchilikka qarshi kurash to'g'risidagi hujjatlar jamlangan. Shuningdek, O'rta Osiyo xalqlarining ko'payishi va aholining soni, Qoraqalpog'istonda yer islohotlarining o'tkazilishi va Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasining birinchi Konstitusiyasini qabul qilinishi haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Markaziy va mahalliy sovet tashkilotlari jamg'armasida avtonom respublika xo'jaligi va madaniy qurilishiga oid hujjatlar jamlangan. O'lkadagi ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar, paxta tozalash zavodlari jamg'armasida jamlangan bo'lib unda shuningdek, Xo'jayli, To'rtko'l, Chimboy, Beruniy va boshqa shaharlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Bu jamg'armada Mo'ynoq baliqchilik konserva zavodiga, shuningdek, Nukusdagi turli zavodlarga oid arxiv hujjatlari jamlangan.

Yer boshqaruvi jamg'armasida qishloq xo'jaligi tarixiga doir, ishchi dehqon deputatlar faoliyatiga oid, sovet hukumati davrida Qoraqalpog'iston tarixiga doir, shuningdek, paxtachilikka oid zavodlarning qurilishiga va tuzilishiga doir ma'lumotlar to'plangan. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi MDA da 308 ta fond mavjud bo'lib, ularda 59860 yig'majild mujassamlashgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi viloyat davlat arxivlari va filiallari faoliyati.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi tarixi asosiy fondlarini sharhlang.
3. O'zbekiston Respublikasi viloyat arxivlarining asosiy fondlari.

## Manba va adabiyotlar:

1. Основные декреты и постановления советского правительства по архивному делу 1918-1922 гг. – М., 1985.
2. Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). –Т.: 1970.
3. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. – М.,1959.
4. Бескровный Л.Г., Гольденберг Л.А Систематизация картографических материалов (на примере ЦГВИА). // «Советские архивы», 1971, № 2.
5. Ботвинников А. Д., Ройтман И. А. Обучение чтению чертежей в процессе профессиональной подготовки учащихся. – М., 1962.
6. Бурова Е. М, Е.Ф. Алексеева, Л.П. Афанасьева. Архивоведение. – М., 2002.
7. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф.дисс...канд.ист. наук. – Ташкент, 1995.
8. Вяликов В.И. Управление государственными архивами. – М., 1957.
9. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие. – М., 1946.
10. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.
11. Закон “Об архивах Республики Узбекистан”.Материалы XIV сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан 14-15 апреля, 1999 г. / Народное слово. 16 апреля, 1999.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30 oktabrdagi “Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini

- boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori
14. "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil, 30 oktabr, 482-sonli Qarori.
  15. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: "O'zbekiston," 2003.
  16. O'zbekiston Respublikasining "Arxivlar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1999.
  17. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Bosharxiv" boshqarmasi to'g'risidagi Nizomi va respublika markaziy davlat arxivlari tarmog'ini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil, 19 iyun, 296-sonli Qarori.

# ADABIYOTLAR

## I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Tanlangan asarlar. 9 jildi – T.: “O‘zbekiston,” 1999.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: “O‘zbekiston,” 1999.
4. Karimov I.A. Ozod va obod vatan yerkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston,” 2000.
5. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. – T.: “O‘zbekiston,” 2001.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston,” 2011.

## II. Qonunlar va qarorlar

1. Zakon “Ob arxivax Respubliki Uzbekistan”. Matyeriali XIV sessii Oliy Majlisa Respubliki Uzbekistan 14-15 aprelya, 1999 g. / Narodnoe slovo. 16 aprelya, 1999.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30 oktabrdagi “Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori
4. “Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil, 30 oktabr, 482-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston,” 2003.

6. O'zbekiston Respublikasining "Arxivlar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1999.
7. "O'zbekiston Respubikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbosharxiv" boshqarmasi to'g'risidagi Nizomi va respublika markaziy davlat arxivlari tarmog'ini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil, 19 iyun, 296-sonli qarori.
8. "O'zbekiston Respublikasi arxiv ishini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil, 3 fevral, 47-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2004, № 4.
10. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2004-yil, № 6.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbosharxiv boshqarmasi va Amerikaning «Xolokost» yodgorlik Kengashi va uning Vashingtondagi muzeyi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida Bitim. – Toshkent, 2003, № 6. / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbosharxiv boshqarmasi Axborotnomasi. – Toshkent, 2003, № 31.

### **III. Manba va adabiyotlar**

1. Abduraimov M.A. Koushbegi, a ne kushbegi. K istorii ustanovleniya vlasti koushbegi v Buxarskom xanstve. // Obshchestvennie nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1974. – № 11. – S. 54-55.
2. Abduraximova N.A. Rustamova G. Kolonialnaya sistema vlasti v Turkestane vo vtoroy polovine XIX – pervoy chetverti XX vv. – Tashkent: Universitet, 1999. – 163 s.

3. Azarov A.I. Brjestovskaya N.V. Gosudarstvennoe arxivi i arxivnoe delo vo soyuznix Respublik. – M., 1971.
4. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: “Sharq,” 2000. – 367 b.
5. Alimov I.A. O vidax publikatsiya istoricheskix istochnikov v arxivnix uchrejdeniyax Uzbekskey SSR // Vidi formi publikatsii istoricheskix istochnikov.– M., 1960.
6. Alimov I, Ergashev F, Butayev A. Arxivshunoslik. O‘quv qo‘llanma –T.: “Sharq,” 1997.
7. Alimov I.A. Arxivshunoslik. / O‘quv qo‘llanma. – Andijon, 2005.
8. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka: Istoriya i istoricheskoe soznanie. T.1. – Tashkent: “Uzbekistan,” 2008. – 280 s.
9. Abdurahimova N.A., Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi.–Toshkent.: Akademiya, 2002. – 240 b.
10. Aminov M. va boshq. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – T.: O‘z ME, 2000.
11. A‘zamxo‘jayev S. Turkiston muxtoriyati. Milliy – demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – T.: “Ma‘naviyat,” 2000
12. Axundjanov E.A. Ochyerki po istorii knigi i knijnogo dela v Sredney Azii. – Tashkent: Izd-vo Ibn Sino, 1993. – 160 s.
13. Bartold V.V. Xranenie dokumentov v stranax musulmanskogo Vostoka.// V sb. “Arxivnie kursi “. – Pg., 1920. – 350-361.
14. Beskrovniy L.G., Goldenberg L.A Sistematsiya kartograficheskix materialov (na primere TsGVIA). // «Sovetskie arxivi», 1971, № 2.
15. Botvinnikov A. D., Roytman I. A. Obuchenie chtenie chyertejey v protsesse professionalnoy podgotovki uchashixsya. – M., 1962.
16. Burova E. M, E.F. Alekseeva, L.P. Afanaseva. Arxivovedenie. – M., 2002.
17. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. – T.: Yangi asr avlodi. 2006.
18. Vyalikov V.I. Upravlenie gosudarstvennimi arxivami. – M., 1957.

19. Volk S.N. Sovetskaya arxeografiya. – M-L., 1948.
20. Gorshenina S. Krupneyshie proekt kolonialnix arxivov Ros-sii: utopichnost totalnoy turkestanski general-gubernatora Konstantina Petrovicha fon Kaufmana. // Ab Imperio, 2007. – S. 1-64.
21. Dyakonov I.M., Livshits V.A. Parfyanskoe sarskoe xozyaystvo v Nise I do n.e. // Vestnik drevney istorii. – Moskva, 1960. - № 2. – S.134-136.
22. Zasov V.D., Yurin V.N. Razmnojenie texnicheskoy dokumentatsii. M., 1968
23. Ivanov P.P. Arxiv Xivinskix xanov XIX v. Issledovanie i opisanie dokumentov s istoricheskim vvedeniem. – Lenin-grad, 1940. – 273 s.
24. Iofe V.G., Ishanxodjaeva Z.M. Podgotovka arxivnix kadrov v Uzbekistane. // Otechestvennie arxivi, 2004, № 1.
25. Iofe V.G., Mustafaev Z.M. Arxivnaya praktika v Nasional-nom universitete Uzbekistana. // Otechestvennie arxivi. –T.: 2005, № 2.
26. Iofe V.G. Novoe v upravlenii arxivnim delom Respubliki Uz-bekistan. // Otechestvennie arxivi, 2006. - № 1.
27. Isakova M, Iofe V. Arxivshunoslik. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Cho‘lpon,” 2007.
28. Isakova M.S. Arxivi – xranilisha faktov istorii. / Narodnoe slovo, 18 aprelya 2001.
29. Isakova M.S. Sokrovishnitsa sennix istochnikov po istorii Uzbekistana (k 60-letiyu TsGA KFFD RUz). // Obshestven-nie nauki v Uzbekistane. 2003, № 1- 2.
30. Isakova M.S. Stanovlenie i razvitie arxivnogo dela v Uzbeki-stane. – Tashkent: Universitet, 2012. – 204 s.
31. Kozlov V.P. Osnovi teoreticheskoy i prikladnoy arxeografii. – M.: ROSSPEN. 2008.
32. Kormilitsin A.I. Sudbi knig. – Tashkent: Fan,1994. – 168 s.
33. Kuzin. A.A. Katalogi texnicheskix arxivov / Trudo‘ MGIAI. – M., 1954.



34. Kun A. Opisanie pechatey xivinskix xanov. // Turkestanskije vedomosti, 1873. – № 50.
35. Kuzin A.A. K voprosu o mexanizatsii nekotorig rabot v texnicheskix arxivax. / Trudi MGIAI. – M., 1962.
36. Lunin B.V. Istoriya Uzbekistana v istochnikax. –T.: Fan, 1988.
37. Livshis V.A. Yuridicheskie dokumenti i pisma. / Sogdiyskie dokumenti s gori Mug. Chtenie, perevod, kommentariy. Vip. II. – M.: Izd-vo vost. Lit-ri, 1962. – 222 s.
38. Logofet D.N. Tamerlanovskaya biblioteka. // Turkestanovskie biblioteka. // Turkestanskije vedomosti, 1911. – № 24.
39. Mityaev K.G. Teoriya i praktika arxivnogo dela. Uchebnoe posobie. – M., 1946.
40. Mukminova R. G. K istorii agrarnix otnosheniy v Uzbekistane XVI v. Po matyerialam «Vakf-name». – T., 1966.
41. Pantusov N.N. Arxiv Kokandskogo xana. // Turkestanskije vedomosti, 17 fevralya 1876. – № 12.
42. Seleznev M.S. Teoriya i metodika sovetsoy arxeografii. Uchebnoe posobie. – M., 1974.
43. Sims-Vilyam N. Novie Baktriyskie dokumenti // Vestnik Drevney istorii. – Moskva, 1997. – № 3.
44. Troiskaya A.L. Arxiv Kokandskix xanov XIX veka. – M.: Nauka, 1968.
45. Teliukulov G.S. Istoriya razvitiya arxivnogo dela v Uzbekistane. – T., 1995.
46. Tyuneev V.A. Arxivnoe nasledie stran SNG: xranenie, dostup, ispolzovanie. // Otechestvennie arxivi. 1998, № 5.
47. Ukazateli k arxivnim spravochnikom. – M., 1959.
48. Xojimetova M. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari MDA – 40 yoshda. // “O‘zbosharxiv” Axborotnomasi. 2002, № 29.
49. [www.ziyonet.net](http://www.ziyonet.net)
50. [www.history.ru](http://www.history.ru)
51. [www.arshiv.ru](http://www.arshiv.ru)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
QONUNI  
N O‘Rq-252**

**ARXIV ISHI TO‘G‘RISIDA**

**Qonunchilik palatasi tomonidan 2009-yil 3 noyabrda  
qabul qilingan  
Senat tomonidan 2010-yil 7 mayda ma‘qullangan**

- 1-bob. Umumiy qoidalar (1-5-moddalar)
- 2-bob. Arxiv ishi sohasidagi davlat boshqaruvi (6-8-moddalar)
- 3-bob. Milliy arxiv fondi (9-15-moddalar)
- 4-bob. Arxivlarni tashkil etish (16-19-moddalar)
- 5-bob. Arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish (20-29-moddalar)
- 6-bob. Yakunlovchi qoidalar (30-36-moddalar)

**1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

- 1-modda. Ushbu qonunning maqsadi
- 2-modda. Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
- 3-modda. Asosiy tushunchalar
- 4-modda. Arxiv hujjatlariga bo‘lgan mulk shakllari
- 5-modda. Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning arxiv hujjatlari

**1-modda. Ushbu qonunning maqsadi**

Ushbu qonunning maqsadi arxiv ishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**2-modda. Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari**

Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun hamda

boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining arxiv ishi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

alohida qimmatli hujjat – o'chmas tarixiy-madaniy va ilmiy qimmatga, jamiyat hamda davlat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, hisobga olish, saqlash va foydalanishning alohida tartibi belgilangan arxiv hujjati;

arxiv – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa;

arxiv ishi – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha faoliyat;

arxiv fondi – yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o'zaro aloqador arxiv hujjatlari majmui;

arxiv hujjatlari – fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ahamiyati bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar;

arxiv hujjatlarini depozitar saqlash – arxiv hujjatlarini ularning mulkdori (egasi) bilan arxiv, muzey, kutubxona o'rtasidagi keli-shuvda (shartnomada) belgilanadigan muddatlar va shartlar asosida (egasining) mulkdorning arxiv hujjatlariga bo'lgan mulk huquqini (egalik huquqini) saqlab qolgan holda saqlash;

idoraviy arxiv – yuridik shaxsning arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

ish yuritish – yuridik shaxsning hujjatlashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha faoliyatini ta'minlab beruvchi jarayon;

Milliy arxiv fondi – O‘zbekiston xalqining moddiy va ma’naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui;

Milliy arxiv fondining davlat katalogi – arxiv hujjatlari Milliy arxiv fondining tarkibiga kiritilgan arxiv fondlarining hajmi va tarkibi to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hisobga olish hujjati;

noyob hujjat – o‘zida mavjud bo‘lgan axborot va (yoki) tashqi belgilari bo‘yicha o‘xshashi yo‘q, yo‘qotilgan taqdirda o‘zining ahamiyati va (yoki) asl qo‘lyozmaligi nuqtai nazaridan o‘rmini to‘ldirib bo‘lmaydigan alohida qimmatli hujjat;

sug‘urta nusxa – alohida qimmatli hujjat yoki noyob hujjatning boshqa moddiy jismdagi, asl nusxada mavjud bo‘lgan axborotni o‘qish yoki ko‘rish (eshitish) imkonini beruvchi ko‘chirma nusxasi;

shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar – xodimning ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarini aks ettiruvchi arxiv hujjatlari.

#### **4-modda. Arxiv hujjatlariga bo‘lgan mulk shakllari**

Arxiv hujjatlari xususiy hamda ommaviy mulk shakllarida bo‘lishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida turgan arxiv hujjatlari, shuningdek ular tomonidan davlat arxivlari, muzeylari va kutubxonalariga topshirilgan arxiv hujjatlari davlat mulki hisoblanadi hamda mazkur hujjatlar davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, oldi-sotdi yoki mulk huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa bitimlar obekti bo‘lishi mumkin emas.

Davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan taqdirda ularning arxiv hujjatlari, shu jumladan, shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar davlat mulki bo‘lib qoladi va belgilangan tartibda davlat arxivlariga topshiriladi.

Nodavlat korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning arxiv hujjatlari, shuningdek jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari ularning xususiy mulkidir.

Vafot etgan fuqarolarning Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo‘lmagan qismi tarkibiga kiritilgan shaxsiy arxiv hujjatlari, vasiyatnoma yoki qonun bo‘yicha merosxo‘rlar bo‘lmaganda, shuningdek arxiv hujjatlarining mulkdorini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, davlat mulkiga o‘tadi.

**5-modda. Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning arxiv hujjatlari**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar qayta tashkil etilayotganda ularning arxiv hujjatlari tegishli davlat arxivlari bilan kelishilgan holda mazkur korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqiy vorislariga topshiriladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tugatilayotganda ularning arxiv hujjatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli davlat arxivlariga topshiriladi.

## **2-BOB. ARXIV ISHI SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI**

**6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning arxiv ishi sohasidagi vakolatlari**

**7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi**

“O‘zarxiv” agentligining arxiv ishi sohasidagi vakolatlari

**8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining arxiv ishi sohasidagi vakolatlari**

**6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning arxiv ishi sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

arxiv ishi va ish yuritish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

arxiv ishini rivojlantirish va arxivlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir davlat dasturlarini tasdiqlaydi;

arxiv ishi va ish yuritishning holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

Milliy arxiv fondi to'g'risidagi va Milliy arxiv fondining davlat katalogi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibini belgilaydi;

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini doimiy (muddatsiz) saqlashni amalga oshiradigan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ro'yxatini tasdiqlaydi;

arxiv hujjatlarining mahfiylik toifalarini, shuningdek davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan arxiv hujjatlarini kirib ko'rishga doir cheklavlarni belgilaydi;

arxivlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi;

arxivlarning asosiy ish turlari bo'yicha vaqt va ishlab chiqarish namunaviy normalarini belgilaydi;

arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan xizmat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi**

“O'zarxiv” agentligining arxiv ishi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi (bundan buyon matnda “O'zarxiv” agentligi deb yuritiladi):

arxiv ishi va ish yuritish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

arxiv ishini rivojlantirish va arxivlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

arxiv ishi va ish yuritishning holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

Milliy arxiv fondining davlat katalogini yuritadi;

arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritadi hamda uning tarkibidan chiqaradi;

hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibini belgilaydi;

arxiv hujjatlarini alohida qimmatli hujjatlar va noyob hujjatlar sirasiga kiritish tartibini, shuningdek sug'urta nusxalarni tayyorlash va saqlash tartibini belgilaydi;

arxiv hujjatlarini kirib ko'rish tartibi va shartlarini belgilaydi;

davlat mulki bo'lgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o'rnini bosuvchi ko'chirma nusxalarini, shuningdek Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o'rnini bosuvchi ko'chirma nusxalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha olib chiqishga ruxsat beradi;

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazish uchun ruxsat beradi;

arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibini belgilaydi.

“O‘zarxiv” agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining arxiv ishi sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan, tegishli hududda joylashgan davlat arxivlari va idoraviy arxivlarda turgan arxiv hujjatlarining saqlanishi uchun lozim darajadagi shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan, tegishli hududda joylash-

gan arxivlar va idoraviy arxivlarda turgan arxiv hujjatlarining holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

tegishli hududdagi davlat arxivlarini moliyalashtirish miqdorini o'z vakolatlari doirasida belgilaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-BOB. MILLIY ARXIV FONDI**

**9-modda. Milliy arxiv fondining tarkibi**

**10-modda. Arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritish**

**11-modda. Arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibidan chiqarish**

**12-modda. Milliy arxiv fondining davlat katalogini yuritish**

**13-modda. Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibi**

**14-modda. Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibi**

**15-modda. Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarining fuqarolik muomalasi xususiyatlari**

**9-modda. Milliy arxiv fondining tarkibi**

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlari O'zbekiston xalqi madaniy merosining ajralmas qismidir.

Milliy arxiv fondi Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismidan va davlatga tegishli bo'lmagan qismidan iboratdir.

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarining fuqarolik muomalasiga ushbu qonunda belgilangan cheklovlarga rioya etilgan holdagina yo'l qo'yiladi.

**10-modda. Arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritish**

Arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlari mulkdoriga mazkur hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma belgilangan tartibda beriladi.

### **11-modda. Arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibidan chiqarish**

Arxiv hujjatlarini Milliy arxiv fondi tarkibidan chiqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **12-modda. Milliy arxiv fondining davlat katalogini yuritish**

Milliy arxiv fondining davlat katalogini yuritish "O'zarxiv" agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

### **13-modda. Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibi**

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga, kimning egaligida turganligidan qat'inazar, doimiy (muddatsiz) saqlanishi lozim bo'lgan, davlat mulki bo'lgan arxiv hujjatlari kiradi.

### **14-modda. Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibi**

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga doimiy (muddatsiz) saqlanishi lozim bo'lgan, nodavlat korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyati natijasida yaratilgan arxiv hujjatlari, shuningdek jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari kiradi.

### **15-modda. Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarining fuqarolik muomalasi xususiyatlari**

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini tasarrufdan chiqarish mumkin emas. Mazkur hujjatlar yo'qolgan yoki yemirilgan hollarda ular Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibidan chiqariladi.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlari faqat "O'zarxiv" agentligining ruxsatiga binonan tasarrufdan chiqarilishi yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin.

## 4-BOB. ARXIVLARNI TASHKIL ETISH

**16-modda. Arxivlarni tashkil etish shartlari**

**17-modda. Arxivlarning turlari**

**18-modda. Arxivlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi**

**19-modda. Idoraviy arxivlarni tashkil etish**

**16-modda. Arxivlarni tashkil etish shartlari**

Arxivlarni tashkil etish uchun arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanish talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza, shu jumladan, bino (xonalar), zarur jihozlar, muhofaza vositalari hamda yong'inga qarshi vositalar bo'lishi shart.

Arxivlarning asosiy ish turlari bo'yicha vaqt va ishlab chiqarish namunaviy normalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

Mahfiy arxivlar tashkil etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**17-modda. Arxivlarning turlari**

Arxivlar davlat va nodavlat arxivlari turlarida tashkil etilishi mumkin.

**18-modda. Arxivlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi**

Arxivlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**19-modda. Idoraviy arxivlarni tashkil etish**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda idoraviy arxivlarni tashkil etishi mumkin.

## **5-BOB. ARXIV HUJJATLARINI JAMLASH, HISOBGA OLISH, SAQLASH VA ULARDAN FOYDALANISH**

**20-modda. Arxiv hujjatlarini jamlash**

**21-modda. Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasi**

**22-modda. Arxiv hujjatlarini hisobga olish**

**23-modda. Arxiv hujjatlarini saqlash**

**24-modda. Arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlari**

**25-modda. Arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta'minlash**

**26-modda. Arxiv hujjatlaridan foydalanish**

**27-modda. Arxiv hujjatlarini kirib ko'rish**

**28-modda. Arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar**

**29-modda. Arxiv hujjatlarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va O'zbekiston Respublikasiga olib kirish**

**20-modda. Arxiv hujjatlarini jamlash**

Arxiv hujjatlarini jamlash arxivlar, idoraviy arxivlar va jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlarini arxiv hujjatlari bilan to'ldirishni o'z ichiga oladi.

Davlat arxivlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining faoliyati natijasida yaratilgan arxiv hujjatlari, shuningdek ular tomonidan olingan yoki ularga nodavlat korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar topshirgan arxiv hujjatlari bilan jamlanadi.

Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi "O'zarxiv" agentligi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat arxivlar va jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari davlat mulki bo'lgan arxiv hujjatlari bilan jamlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari sotilayotganda davlat arxivlari imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlarni jamlashi shart.

Arxiv hujjatlarini jamlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **21-modda. Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasi**

Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasi saqlash uchun tanlab olish maqsadida hujjatlar yoki arxiv hujjatlarining qimmatligini belgilash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi "O'zarxiv" agentligi tomonidan belgilanadi.

### **22-modda. Arxiv hujjatlarini hisobga olish**

Arxiv hujjatlarini davlat hisobiga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

arxivlar va idoraviy arxivlarda hisobga olish hujjatlarini tuzish;

arxivlar va idoraviy arxivlarda yig'ma hujjatlarni tuzish va ularni

"O'zarxiv" agentligiga taqdim etish;

Milliy arxiv fondining davlat katalogini yuritish.

Arxivlar va idoraviy arxivlardagi hisobga olish hujjatlariga quyidagilar kiradi:

hujjatlarning kelib tushish kitobi;

arxiv fondlarining ro'yxati;

arxiv fondi varag'i;

arxiv ro'yxati;

arxiv fondi yig'majildi.

Arxiv hujjatlarini davlat hisobiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlarini hisobga olish ular tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

### **23-modda. Arxiv hujjatlarini saqlash**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning arxiv hujjatlarini, shuningdek jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlarini saqlash ular tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlari doimiy (muddatsiz) saqlanishi lozim va ularni yo'q qilib tashlash taqiqlanadi.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini doimiy (muddatsiz) saqlash davlat arxivlari, muzeylari va kutubxonalarida, shuningdek ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda amalga oshiriladi.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda doimiy (muddatsiz) saqlash «O'zarxiv» agentligi bilan kelishilgan idoraviy normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash ushbu qonunning 24-moddasida belgilangan muddatlar mobaynida amalga oshiriladi.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlari arxivlar va idoraviy arxivlarda, shuningdek jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari tarkibida saqlanishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning arxiv hujjatlari, jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari arxivlar, muzeylar va kutubxonalarga depozitar saqlash uchun topshirilishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlarni saqlashi shart.

Arxiv hujjatlarini saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **24-modda. Arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlari**

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlashning quyidagi

muddatlari belgilanadi:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek respublika bo'ysunuvidagi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining arxiv hujjatlari – o'n besh yil mobaynida;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlarining tegishli hududiy bo'linmalari, viloyat bo'ysunuvidagi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining arxiv hujjatlari – o'n yil mobaynida;

tuman va shahar bo'ysunuvidagi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining arxiv hujjatlari – besh yil mobaynida;

ustav fondida davlat ulushi bo'lgan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, boshqa tashkilotlarning arxiv hujjatlari – o'n yil mobaynida;

ilmiy, texnologik, konstruktorlik va patent hujjatlari – yigirma yil mobaynida;

kapital qurilish bo'yicha loyiha hujjatlari – yigirma besh yil mobaynida;

telemetrik hujjatlar – besh yil mobaynida;

ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari – tayyorlangan vaqtdan boshlab uch yildan oshmagan muddat mobaynida;

mashinada o'qiladigan hujjatlar – besh yil mobaynida.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlari o'tgach ular belgilangan tartibda davlat arxivlariga topshiriladi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari, notarial harakatlar yozuvlari, shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlar, sud ishlari va xo'jalik kitoblari idoraviy arxivlarda tetmish besh yil mobaynida saqlanishi lozim.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari, notarial harakatlar

yozuvlari, sud ishlari va xo‘jalik kitoblarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlari o‘tgach ular belgilangan tartibda davlat arxivlariga topshiriladi.

### **25-modda. Arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta‘minlash**

Arxivlar va idoraviy arxivlarda arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta‘minlash arxivlar hamda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining zimmasiga yuklatiladi.

Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo‘lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta‘minlamayotgan mulkdorlar sud qaroriga binoan mazkur hujjatlarga bo‘lgan mulk huquqidan mahrum etilishi mumkin, shundan so‘ng bu hujjatlar saqlash uchun tegishli davlat arxiviga topshiriladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlarning but saqlanishini ta‘minlashi shart.

Jismoniy shaxslar o‘z shaxsiy arxiv hujjatlarining but saqlanishini mustaqil ravishda ta‘minlaydi.

Alohida qimmatli hujjatlar va noyob hujjatlarning sug‘urta nusxalari yaratiladi.

Arxiv hujjatlarini alohida qimmatli hujjatlar va noyob hujjatlar sirasiga kiritish tartibi, shuningdek sug‘urta nusxalarni tayyorlash va saqlash tartibi “O‘zarxiv” agentligi tomonidan belgilanadi.

### **26-modda. Arxiv hujjatlaridan foydalanish**

Arxiv hujjatlaridan foydalanish xizmat, ishlab chiqarish, ilmiy, madaniy, ma‘rifiy, ta‘lim maqsadida va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilar:

arxiv hujjatlaridan foydalanish tartibiga rioya qilishi;

arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta‘minlashi;

arxiv hujjatlariga yetkazilgan shikastlar yoki arxiv hujjatlaridagi yetishmovchiliklar aniqlanganligi to‘g‘risida tezkor ravishda arxiv va idoraviy arxiv xodimlariga xabar berishi;

arxiv hujjatlaridan olingan ma‘lumotlarni buzib ko‘rsatish yoki soxtalashtirishga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Arxiv hujjatlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

### **27-modda. Arxiv hujjatlarini kirib ko'rish**

Arxivlar va idoraviy arxivlardagi arxiv hujjatlarini kirib ko'rish foydalanuvchiga ilmiy ma'lumotnoma apparatini, shuningdek tegishli arxiv hujjatlari yoki ularning ko'chirma nusxalarini taqdim etish orqali ta'minlanadi.

Arxivlar va idoraviy arxivlardagi arxiv hujjatlarini, shuningdek jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlarini kirib ko'rish ularning but saqlanishini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi yoki ularning hayoti va xavfsizligiga tahdid tug'diruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan arxiv hujjatlarini kirib ko'rishga doir cheklovlar arxiv hujjatlari tayyorlangan vaqtdan e'tiboran yetmish besh yil muddatga belgilanadi. Ushbu muddatdan oldin mazkur hujjatlarni kirib ko'rishga fuqaroning o'zi tomonidan, uning vafotidan so'ng esa shu fuqaroning merosxo'rlari tomonidan ruxsat berilishi mumkin.

Arxiv hujjatlarini kirib ko'rish tartibi va shartlari "O'zarxiv" agentligi tomonidan belgilanadi.

Arxiv hujjatlarining mahfiylik toifalari, shuningdek davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan arxiv hujjatlarini kirib ko'rishga doir cheklovlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **28-modda. Arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar**

Arxivlar va idoraviy arxivlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatadi.

Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan arxiv ma'lumotnomalarini, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga arxiv ma'lumotnomalarini va arxiv hujjatining ko'chirma nusxasini berish bepul amalga oshiriladi.



## **29-modda. Arxiv hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish**

Davlat mulki bo‘lgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o‘rnini bosuvchi ko‘chirma nusxalarini, shuningdek Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo‘lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o‘rnini bosuvchi ko‘chirma nusxalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

Davlat mulki bo‘lgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o‘rnini bosuvchi ko‘chirma nusxalarini, shuningdek Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo‘lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o‘rnini bosuvchi ko‘chirma nusxalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha olib chiqishga “O‘zarxiv” agentligining ruxsati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Xususiy mulk bo‘lgan, Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo‘lmagan qismi tarkibiga kiritilmagan arxiv hujjatlari yoki ularning o‘rnini bosuvchi ko‘chirma nusxalari O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi mumkin. Bu holda olib chiqilishi bildirilgan arxiv hujjatlari “O‘zarxiv” agentligi tomonidan belgilangan tartibda hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasidan o‘tkazilishi lozim.

qonuniy asoslarda qo‘lga kiritilgan va (yoki) olingan arxiv hujjatlarini yoki ularning o‘rnini bosuvchi ko‘chirma nusxalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishga ruxsat beriladi.

## **6-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

**30-modda. Arxivlarni moliyalashtirish**

**31-modda. Arxiv ishi sohasidagi xalqaro hamkorlik**

**32-modda. Nizolarni hal etish**

**33-modda. Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

**34-modda. Ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish**

**35-modda. Qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish**

**36-modda. Ushbu qonunning kuchga kirishi**

**30-modda. Arxivlarni moliyalashtirish**

Davlat arxivlarini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat arxivlarining pulli xizmatlar ko‘rsatishdan va moliyalashtirishning boshqa manbalaridan olinadigan mablag‘lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi.

Nodavlat arxivlarini moliyalashtirish ularning mulkdorlari mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

**31-modda. Arxiv ishi sohasidagi xalqaro hamkorlik**

Arxiv ishi sohasidagi xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

**32-modda. Nizolarni hal etish**

Arxiv ishi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**33-modda. Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

**34-modda. Ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish**

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15 aprelda qabul

qilingan “Arxivlar to‘g‘risida”gi 768-I-sonli qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 5, 120-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 15 aprelda qabul qilingan “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida”gi 769-I-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 5, 121-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 621-II-sonli qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 5, 90-modda) XIX bo‘limi.

**35-modda. Qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Hukumat qarorlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

**36-modda. Ushbu qonunning kuchga kirishi**

Ushbu qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining  
Prezidenti**

**I. Karimov**

## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| Kirish.....  | 3   |
| 1-Mavzu. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi O'zbekistonning asosiy arxivlari fanining predmeti, maqsad va vazifalari .....                | 5   |
| 2-Mavzu. O'zbekiston hududidagi ilk arxivlar .....   | 10  |
| 3-Mavzu. O'rta asrlarda arxiv ishi .....   | 24  |
| 4-Mavzu. O'rta Osiyo xonliklaridagi arxiv ishi va hujjatshunoslik .....  | 34  |
| 5-Mavzu. Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda arxiv ishi .....   | 55  |
| 6-Mavzu. Turkiston assrda arxiv ishi.....  | 74  |
| 7-Mavzu. O'zbekistonda arxiv ishining tashkil qilinishi.....   | 90  |
| 8-Mavzu. Urushdan keyingi davrda O'zbekistonda arxiv ishi .....  | 98  |
| 9-Mavzu. O'zbekistonda arxiv tizimining rivojlanishi (1960-1990-yillar).....   | 109 |
| 10-Mavzu. Mustaqil O'zbekistonda arxiv ishi.....   | 118 |
| 11-Mavzu. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi .....  | 128 |
| 12-Mavzu. O'zbekiston Respublikasi kino-surat-ovozli hujjatlar va ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivlari ..... | 141 |
| 13-Mavzu. Hududiy davlat arxivlari.....  | 148 |
| Adabiyotlar .....  | 164 |
| Ilova .....  | 169 |

**UYG'UN JUMAYEV**

**O'ZBEKISTONDA ARXIV  
ISHI TARIXI**

Muharrir: *S. Alimbøyeva*  
Musahhih: *S. Abdunabiyeva*  
Texnik muharrir: *T. Smirnova*  
Sahifalovchi: *A. Muhammadiyev*

Nashryot litsenziyasi AI № 223, 16.11.12  
Bosishga 31.05.2016 da ruxsat etildi. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Times» garniturasi. Ofset usulida bosildi.  
Shartli b.t. 10,92. Nashr taboq 11,00.  
Adadi 100 nusxa. 46-raqamli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ da chop etildi.  
Toshkent. Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy.



ISBN 978-9943-14-378-4



9 789943 143784